YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil 2-son

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.2.

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

TAHRIR HAY'ATI:

B. XODJAYEV
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, dotsent – bosh muharrir

I. ERGASHEV
Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

N. RAMAZONOV
TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent – mas'ul muharrir

JOAN BLUM
Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori

MARCIN MICHAŁ WISZOWATY
Polshaning Gdansk universiteti professori

A. HOSHIMXONOV
Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

M. AXMEDSHAYEVA
TDYU Davlat va huquq nazariyasi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

X. XAYITOV
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori

I. TO'RABOYEV
TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

S. XOLBOYEV
O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi kafedra mudiri, y.f.n., dotsent

N. RAXMONKULOVA
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar doktori

Z. ESANOVA
TDYU Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

J. NE'MATOV
TDYU Konstitutsiyaviy huquq kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

M. KURBANOV
TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

R. KUCHKAROV
TDYU Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

"Юриспруденция" правовой научно-практический журнал

"Jurisprudence" legal scientific-practical journal

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN: 2181-1938
© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

6 **ODILQORIYEV HOJIMUROD TO‘XTAMURODOVICH**

TULTEEV ILYAS TAVASOVICH
Zamon bilan hamnafas konstitutsiyaviy islohotlar: dolzarbligi, ahamiyati va istiqbolga yo‘naltirilganligi

16 **НЕМАТОВ ЖУРАБЕК НЕМАТИЛЛОЕВИЧ**
Научно-практический анализ определения допустимости заявления (жалобы) в административном судопроизводстве Республики Узбекистан

28 **SAYIDUMAROV OYBEK TURSUNXO‘JA O‘G‘LI**
Samarali davlat boshqaruvi asosi sifatida davlat fuqarolik xizmatchilarining ma’naviy-axloqiy masalalari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

36 **XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
Raqamli moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish sohasida kriptovalyuta muomalasining fuqarolik huquqiy masalalari

47 **YULDASHOV ABDUMUMIN ABDUGOPIROVICH**
O‘zbekiston qonunchiligi va xalqaro shartnomalarda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni raqamli muhitda muhofaza qilishga doir huquqiy normalar

55 **ХУДАЙБЕРГАНОВ БЕХЗОД БАХТИЁРОВИЧ**

МЕНГЛИЕВА СИТОРА БАХТИЁР КИЗИ
Основные понятия и виды электронной коммерции

65 **КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА**
Актуальные проблемы наделения нотариусов медиативными полномочиями

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. XO‘JALIK PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

73 **XABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**
Fuqarolik protsessida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquqiy maqomi bo‘yicha ayrim fikr-mulohazalar

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

91 **XAYITOV PANJI BUXAROVICH**
Energetik xavfsizlikning milliy tizimdagi o‘rni va ahamiyati

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

101 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**
Zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligi profilaktikasi hamda xorijiy davlatlar tajribasi

113 **TOSHPULATOV AKROM IKROMOVICH**
Jinoyat qonunida insonparvarlik prinsipi

122 **XODJAYEV SHOHRUX MUZAFFAROVICH**
O‘zbekistonda ayollar jinoyatchiligining hozirgi holati

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

131 **AXMEDOVA GUZALXON UTKUROVNA**
SOBITOVA UMIDAXON MUROD QIZI
Methodology of investigation of human trafficking

142 **JABBAROV ZOKIRJON QODIRJONOVICH**
Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlari yuzasidan to‘plangan hujjatlarni jinoyat ishida joylashtirishning ayrim jihatlari

152 **ABDULLAYEV DIYOR IBODILLAYEVICH**
Jinoyat-protsessual ehtiyot chorasi sifatida uy qamog‘i tushunchasi va huquqiy mohiyati

163 **UMARXONOV AZIZXON SHARIPXONOVICH**
Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy zarurati

174 **SHONAZAROV ABDUVALI SHONAZAROVICH**
Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda tergovchi va tezkor qidiruv xodimlarining o‘zaro hamkorligi

181 **ЗУФАРОВ РУСТАМ АХМЕДОВИЧ**
Б.И. Пинхасов – выдающийся ученый-криминалист Узбекистана

DOI: https://dx.doi.org/ 10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./XKLI8986
UDC: 329(045)(575.1)

ZAMON BILAN HAMNAFAS KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR: DOLZARBLIGI, AHAMIYATI VA ISTIQBOLGA YO‘NALTIRILGANLIGI

Odilqoriyev Hojimurod To‘xtamurodovich,
professor, yuridik fanlar doktori,
ORCID: 0000-0003-1417-7854
e-mail: domla5@mail.ru

Tulteev Ilyas Tavasovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat va huquq nazariyasi kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0002-4321-2329
e-mail: itulteev@gmail.com

Annotatsiya. *Maqola mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar tahlili va e’lon qilingan Konstitutsiyaviy qonun loyihasi referendumining siyosiy-huquqiy ahamiyatiga bag‘ishlangan. Unda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining asosiy mazmun-mohiyati, muhim xususiyatlari va kiritilayotgan yangi konstitutsiyaviy qoidalar ilmiy talqin etilgan. Loyihaning bir qator moddalarini yanada mukammallashtirishga oid taklif hamda mulohazalar ilgari surilgan. Konstitutsiyaviy islohotlar o‘tkazish zaruriyatini asoslovchi dalillar keltirildi hamda Asosiy qonunni yangilash zaminiga qo‘yilgan quyidagi g‘oyalar, ya’ni inson qadrini ulug‘lash; ahamiyati dunyo miqyosida e’tirof etilayotgan xalqparvar adolatli ijtimoiy davlatni barpo etish, fuqarolarning daxlsizligi huquqi va qonuniy manfaatlarini ta’minlashning konstitutsiyaviy kafolatlarini kuchaytirish, odamlarning ish bilan ta’minlanganligi va mehnat qilishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, xususiy mulkning qonuniy muhofazasini kuchaytirish, oila institutining konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlari tashabbuskorligini rag‘batlantirish kabi normalar sharhlab berildi. Shuningdek, xalq hokimiyatchiligining real amal qilishi huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid masalalar ilmiy tahlil etildi. Bundan tashqari, fuqarolarning odil sudlov himoyasida bo‘lish, advokatura instituti xizmatidan foydalanish, shaxs aybsizligi prinsipining konstitutsiyaviy asoslarini yanada mukammallashtirish, parlament nufuzini oshirish, uning oldida hukumat va boshqa davlat organlari hisobdorligini oshirish, qonun ijodkorligi sifatini yaxshilashga taalluqli yangi qoidalarning muhimligi hamda ahamiyati qo‘shimcha dalillab berildi.*

Kalit so‘zlar: *Konstitutsiya, konstitutsiyaviy islohotlar, inson qadrini ulug‘lash, ijtimoiy davlat, fuqarolar huquqlarining kafolatlari, referendum, konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar, xususiy mulk, demokratik qadriyatlar, qonunchilik tashabbusi, yuridik texnika.*

СОВРЕМЕННЫЕ КОНСТИТУЦИОННЫЕ РЕФОРМЫ: АКТУАЛЬНОСТЬ, ЗНАЧЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВНАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ

Одилкориев Ходжимурод Тухтамуродович,
доктор юридических наук, профессор

Тультеев Ильяс Тавасович,
доктор юридических наук, профессор
кафедры «Теория государства и права»
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. *Статья посвящена анализу происходящих в стране широкомасштабных конституционных реформ и политико-правового значения объявленного референдума по поводу проекта Конституционного закона. В ней научному осмыслению подвергаются основное содержание и сущность, важные особенности, а также предлагаемые новые конституционные положения проекта новой редакции Конституции Республики Узбекистан. Выдвигаются предложения и замечания, направленные на дальнейшее совершенствование ряда статей проекта. Приведены дополнительные аргументы, обосновывающие необходимость проводимых конституционных реформ, а также прокомментированы следующие основные идеи, положенные в основу обновления Основного закона, а именно: возвышение человеческого достоинства, создание гуманного справедливого социального государства, значение которого признается на мировом уровне, усиление конституционных гарантий, обеспечение права гражданина на неприкосновенность и законных интересов, обеспечение благоприятных условий для занятости и трудовой деятельности людей, укрепление правовой защиты частной собственности, укрепление конституционных основ института семьи, стимулирование инициатив институтов гражданского общества. Также были научно проанализированы вопросы, связанные с совершенствованием правовых механизмов функционирования народовластия. В статье также приводятся дополнительные аргументы в пользу вносимых в Конституцию новых статей и норм относительно: прав граждан быть под защитой правосудия, пользования услугами адвоката, дальнейшего расширения реализации принципа презумпции невиновности, повышения роли парламента, обеспечения подотчетности ему правительства и других государственных органов, а также улучшения качества законотворчества.*

Ключевые слова: *Конституция, конституционные реформы, возвышение человеческого достоинства, социальное государство, гарантии прав граждан, референдум, конституционно-правовые механизмы, частная собственность, демократические ценности, законодательная инициатива, юридическая техника.*

MODERN CONSTITUTIONAL REFORMS: RELEVANCE, SIGNIFICANCE AND PERSPECTIVE FOCUS

Odilqoriev Khojimurod Tukhtamurodovich,
Professor, Doctor of Law

Tulteev Ilyas Tavasovich,
Professor, Department of Theory of State and Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Law

Abstract. *The article is devoted to the analysis of the large-scale constitutional reforms taking place in the country and the political and legal significance of the announced referendum on the project Constitutional Law. In it, the main content and essence, important features, as well as proposed new constitutional provisions of the project new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan are subjected to scientific understanding. Suggestions and comments are put forward aimed at further improvement of a number of articles of the project. Additional arguments are given justifying the need*

for ongoing constitutional reforms, as well as commented on the following main ideas that form the basis for updating the Basic Law, namely the exaltation of human dignity, the creation of a humane, just and social state, the importance of which is recognized on a global scale, the strengthening of constitutional guarantees for ensuring the right of a citizen to immunity and their legitimate interests, ensuring favorable conditions for employment and labor activity of people, strengthening the legal protection of private property, strengthening the constitutional foundations of the institution of the family, stimulating the initiative of civil society institutions. Also, issues related to the improvement of the legal mechanisms for the functioning of people's power are scientifically analyzed. The article also provides additional arguments in favor of new articles and norms being introduced into the Constitution, regarding the rights of citizens to be protected by justice, to use the services of a lawyer, to further expand the implementation of the principle of the presumption of innocence, to increase the role of parliament, to ensure accountability of the government and other state bodies to it, as well as improving the quality of lawmaking.

Keywords: *Constitution, constitutional reforms, elevation of human dignity, welfare state, guarantees of citizen's rights, referendum, constitutional and legal mechanisms, private property, democratic values, legislative initiative, legal technique.*

Kirish

Shu kunlarda butun mamlakatda referendumga taqdim etilgan O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahriri loyihasi muhokama qilinmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimiz Konstitutsiyasini yangilash g‘oyasi, birinchidan, mamlakatimizni isloh qilish yo‘lida bosib o‘tilgan yo‘lni har tomonlama tahlil qilish, ikkinchidan, strategik maqsad va vazifalarga asoslanadi [1]. Konstitutsiyaning yangilanishi mamlakatni modernizatsiya qilishning uzviy qismi ekanligini ta’kidlash lozim. Konstitutsiyani modernizatsiya qilish – Asosiy qonunning nafaqat sifat jihatidan o‘zgarishi, balki uzviyligi va barqarorligini ta’minlash asosida uning tartibga solish salohiyatini yanada oshirishdan iboratdir.

Jamiyatimiz hayot tarzi va davlatchilik tizimini tubdan yangilash, mamlakatni jadal innovatsion rivojlantirish zarurati bunga tegishli huquqiy zamin yaratilishini taqozo etayotganligi tabiiy holdir. Bunday yangilanishlar va barcha sohada transformatsiyalashni ta’minlash, avvalo, Konstitutsiyani ushbu zamonaviy talablarga mos tarzda isloh qilish, shuningdek, amaldagi qonunchilik tizimini ham muayyan modernizatsiya qilishni kun tartibiga qo‘ydi.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy tadqiqot ishining obyektini O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar o‘tkazishning nazariy-metodologik jihatlari va Asosiy qonunni yangilashning, davr talablariga mos tarzda takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari tashkil etadi. Tadqiqotning maqsadi – Konstitutsiyani mukammallashtirish va uning asosida butun qonunchilik tizimini modernizatsiya qilish tendensiyalari hamda yo‘nalishlarini tahlil etishdan iborat. Tadqiqotning belgilangan maqsadlariga erishish uchun ilmiy izlanishning quyidagi metodlariga tayanildi: mamlakatimiz Konstitutsiyasi amal qilishi va takomillashuvi dialektikasini anglash uchun ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy o‘rganish, deduktiv analiz va sintez, ijtimoiy so‘rov va h.k. Mualliflar mavzuni o‘rganish jarayonida konstitutsiyaviy islohotlar doirasiga oid muayyan muammoli vaziyatlarni ham ilmiy tahlil etdilar.

Konstitutsiyaviy islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan quyidagi g‘oyalar hamda asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilmoqda:

– birinchidan, inson qadrini ulug‘lash va uni izchil yuksaltirish Bosh qomusimizning

mag‘ziga singdirilishi ustuvor vazifa sanaladi. Unda shaxsiy hayot daxlsizligi va uning kafolatlari oliy darajada mustahkamlanishi ko‘zda tutiladi;

– ikkinchidan, Asosiy qonunimizda adolatli va insonparvar davlat barpo etish maqsadida “ijtimoiy davlat” tamoyilini mustahkamlash;

– uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari bo‘lmish siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayol-qizlar va yoshlar tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmalari (mahallalar), uyushmalar, jamg‘armalar va boshqa jamoat birlashmalarining o‘rni, maqomini yanada mustahkamlash;

– to‘rtinchidan, fuqarolar daxlsizligini kafolatlash, uy-joyga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash;

– beshinchidan, Konstitutsiyada xususiy mulk himoyasini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan konstitutsiyaviy kafolatlarni kuchaytirish. Mulkdor sud qarorisiz, o‘zining roziligisiz, adolatli, tovon pulisiz mulkdan mahrum etilmasligini belgilash;

– oltinchidan, Asosiy qonunda insonning mehnat qilish va munosib turmush sharoitlariga, ishsizlikdan himoyalanishga bo‘lgan huquqlarining ishonchli kafolatlarini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish (kelgusida butunlay tugatish) – konstitutsiyaviy islohotlarning bosh maqsadidir;

– yettinchidan, oilaning konstitutsiyaviy asoslarini takomillashtirish maqsadida “oila erkak va ayolning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi” asosida shakllantirilishini mustahkamlash;

– sakkizinchidan, fuqarolarning ekologiyaga oid huquqlari va majburiyatlarini konstitutsiyaviy normalarda aks ettirish;

– to‘qqizinchidan, xalq hokimiyatchiligi real amal qilishi uchun zarur huquqiy mexanizmlarni ifodalash hamda yanada kuchaytirish.

Ana shunday yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar orqali mamlakatimizda inson qadrini chinakamiga oliy qadriyat, benazir ne’mat darajasiga ko‘tarishga erishish mumkin. Buning uchun fuqarolarimizda yuksak huquqiy ong, konstitutsiyaviy-huquqiy madaniyat, Asosiy qonunga cheksiz hurmat hissini ham shakllantirish lozim.

Tadqiqot natijalari

Zamonaviy sharoitlarda konstitutsiyaviy islohotlarni o‘tkazish murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon bo‘lib, uni muvaffaqiyatli, jamiyat va davlat rivojlanishi ehtiyojlariga mutanosib tarzda o‘tkazish ham siyosiy, ham huquqiy jihatdan puxta ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Jumladan, “konstitutsiyaviy islohot” kategoriyasini ilmiy-nazariy talqin etish vazifasi alohida dolzarbdir. Zero, u konstitutsiyaviy huquq fanining alohida mustaqil yo‘nalishiga aylanmoqda [3, 4].

“Konstitutsiyaviy islohotlar” nazariyasi so‘nggi yillarda shakllanayotgan yangi ta’limot bo‘lganligi bois uning ilmiy apparati tizimini yaratish uchun, avvalo, ushbu fenomenning ilmiy tushunchasi va ta’rifini ishlab chiqish muhimdir. U nafaqat Konstitutsiyaning rivojlanish dinamikasi, balki butun konstitutsiyaviy tuzum asoslari takomillashuvi mohiyatini anglatadi.

Ilmiy adabiyotlarda konstitutsiyaviy islohotlar uzviy va muntazam davomiylik kasb etuvchi jarayon sifatida talqin etilmoqda. Konstitutsiyaning barqarorligi uning muhim sifati bo‘lishi barobarida, u muayyan o‘zgarishlardan ham xoli bo‘lolmaydi. «Konstitutsiya ham dogma, qotib qolgan qonun emas. U ham jamiyat va davlat miqyosidagi ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar, institutlar o‘zgarib, rivojlanib borgani sayin ularga mutanosib ravishda o‘zgaradi, ya’ni isloh etib boriladi» [5, 396-b].

Amalga oshirilayotgan hozirgi konstitutsiyaviy islohotlarning xususiyatlari va tendensiyalarini inobatga olgan holda, uning quyidagi ta’rifini keltirish mumkin: konstitutsiyaviy islohot – jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, ma’naviy-ma’rifiy

shart-sharoitlarga asoslangan holda, Konstitutsiyani to‘liq yoki qisman o‘zgartirishga yo‘naltirilgan siyosiy-huquqiy jarayon bo‘lib, u mavjud qonunchilik tizimi va butun konstitutsiyaviy tuzum mazmuni o‘zgarishi hamda takomillashuvini keltirib chiqaradi [2, 19-b].

Huquqshunoslik fanida konstitutsiyaviy rivojlanish, konstitutsiyaviy islohotlar mohiyatini talqin etishga turlicha yondashuvlar shakllanmoqda. Ayrim mutaxassislar fikriga ko‘ra, konstitutsiyaviy mafkura tegishli qonunchilik hamda amaliyot mushtarakligi bo‘lib, u konstitutsiyaviy siyosiy jarayon amaliyoti va konstitutsiyaviy prinsiplar, institutlar va norma harakati, ularni muhofazalash kafolatlari amalga oshirilishini nazarda tutadi [4, 24-b].

Ikkinchi guruh olimlar – konstitutsiyaviy rivojlanish (islohot) deganda, Konstitutsiyada aks ettirilgan qadriyatlar, konstitutsiyaviy davlat tuzumi, institutlar, moddiy va tashkiliy tuzilmalar tizimi o‘zgarishini anglaydilar [3, 7-23-b]. Uchinchi toifa – fransuz tadqiqotchisi J-l. Shabo va vengriyalik A. Shayo konstitutsionalizmni jamiyat barqarorligi maqsadlariga davlat hokimiyati o‘zini o‘zi cheklashi deb tushunadilar hamda konstitutsiyaviy islohotlar natijasida ushbu demokratik tendensiya kuchayishini ta’kidlaydilar [6, 50-51-b; 7-b, 20-b].

Ma’lumki, 2023-yil 10-martda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qarori va Senatning 14-martdagi uni ma’qullashga oid qaroriga [7] muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahririni tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining loyihasi matbuotda e’lon qilindi. Bu esa mamlakatimizdagi konstitutsiyaviy islohotlarning yangi bosqichini anglatadi.

Mazkur qonun loyihasining 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumida ovozga qo‘yilishi ma’lum qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasining quyidagi eng muhim o‘ziga xos xususiyatlari, yangiliklarini alohida ta’kidlash o‘rinli.

Yangilanayotgan Konstitutsiyamiz loyihasi muhokamasi ikki bosqichda amalga oshirildi. Dastlab 2022-yilning avgustiga qadar mamlakat aholisidan 60 mingdan ziyod takliflar kelib tushdi [8]. Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga qo‘yilgach, ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari orqali u bilan 5 million aholi tanishib chiqib, 150 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi [9]. Shu asosida Konstitutsiyaviy komissiya 2023-yilning yanvar-fevral oylari oxirigacha loyihani takomillashtirish ustida ish olib bordi.

Amaldagi Konstitutsiya 128 moddadan iboratligi barchaga ayon. Referendumga qo‘yilayotgan Konstitutsiyaviy qonun loyihasida Asosiy qonunimizning moddalari 155 tani tashkil etmoqda. Agar amaldagisida 275 ta norma mavjud bo‘lgan bo‘lsa, yangilanayotgan Konstitutsiyada ularning soni 434 tani tashkil etmoqda. Boshqacha aytganda, Bosh qonun matnining qariyb 65 foizi yangilanmoqda [10].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning asosiy novellalari quyidagilardan iborat:

Avvalo, uning 1-moddasida “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” ekani qat’iy belgilab qo‘yilmoqda.

Ikkinchidan, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi deb belgilanmoqda. Unda inson huquqlariga oid normalar 3 barobardan ziyod oshib, inson huquq va erkinliklari qonunlarning, barcha vazirlik va davlat idoralari faoliyatining mazmuniga aylanishi qat’iy talab sifatida mustahkamlanmoqda. Qonunlardagi noaniqliklar inson (fuqaro)lar foydasiga hal bo‘lishi shart deb ta’kidlanmoqda.

Uchinchidan, davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llanadigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga

erishish uchun yetarli bo‘lishi lozimligi belgilanayotgani e’tiborga molik.

To‘rtinchidan, insonning yashash huquqi qonun bilan muhofaza qilinishi, fuqarolarning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari sudning asoslantirilgan qarorisiz cheklanishi mumkin emasligi, shuningdek, shaxsning aybsizlik prezumpsiyasi tamoyilining konstitutsiyaviy asoslari hamda kafolatlari sezilarli tarzda kuchaytirilmoqda. Odil sudlovni amalga oshirishda “Xabeas korpus” va “Miranda qoidasi” institutlari yanada kengaytirildi.

Beshinchidan, fuqarolarning huquqiy muhofazasi, ularning malakali yuridik yordam olish, xususan, advokat ko‘magidan foydalanish kafolatlari kuchaytirildi. Advokatura institutining konstitutsiyaviy asoslarini qamrab oluvchi alohida yangi bob nazarda tutildi.

Oltinchidan, samarali, ixcham va xalqchil davlat boshqaruvi tizimi joriy etilmoqda. Parlamentarizm institutlarini kuchaytirish sari dadil qadam qo‘yilmoqda*:

– unga ko‘ra, Qonunchilik palatasi va Senatning vakolatlari sezilarli darajada kengaymoqda, ikki palata ishidagi takrorlanishlar bartaraf etilib, har birining mas’uliyat sohasi aniq belgilanmoqda;

– xususan, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 taga, Senatda esa 14 tadan 18 taga ko‘paymoqda;

– Konstitutsiyada Senat oldiga qo‘yilayotgan yangi vazifalardan kelib chiqib, uni ixcham, xalqchil va hududlar manfaatini ifoda etadigan idoraga aylantirish bo‘yicha yangi normalar ko‘zga tutilmoqda;

– xususan, senatorlar sonini hozirgi 100 nafardan 65 nafarga tushirish, bunda har bir hududdan teng ravishda 4 tadan senator saylanishi, Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni esa 16 tadan 9 taga kamaytirilishi belgilanmoqda;

– yettinchidan, Vazirlar Mahkamasi tarkibini shakllantirish, Bosh vazir va hukumat a’zolarini tayinlash, ularning parlament oldidagi hisobdorligini yanada kuchaytirishning huquqiy mexanizmlari takomillashtirilmoqda. Mahalliy hokimiyat tuzilmalarining konstitutsiyaviy asoslari mukammallashmoqda. Viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlar hokimlari Xalq deputatlari kengashlariga rahbarlik qilishi amaliyoti bekor qilinmoqda. Mahalliy ijro etuvchi va vakillik hokimiyati vakolatlarining taqsimlanishi prinsipi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanmoqda;

– sakkizinchidan, fuqarolarning iqtisodiy faoliyati, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari takomillashtirilmoqda. Xususiy mulk daxlsizligi, undan mulkdor qonunda nazarda tutilgan hollar va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligi ta’kidlanmoqda [9].

Tadqiqot natijalari tahlili

Konstitutsiyaviy islohotlar nazariyasi va amaliyoti tahlilining asosiy maqsadi – ushbu islohotlarning mohiyatini anglab yetish, uning mazmuni va xususiyatlarini ochib berish, konstitutsiyaviy qonunchilik va amaliyot rivojlanishi qonuniyatlari va tendensiyalarini tadqiq etishdir. Tahlillarning ko‘rsatishicha, konstitutsiyaviy islohotlar amaliyoti bilan ularni ilmiy-nazariy talqin qilish o‘rtasida muayyan uzilish mavjud, boshqacha aytganda, ilmiy tadqiqotlar konstitutsiyaviy amaliyotdan ortda qolmoqda, sodir bo‘layotgan konstitutsiyaviy islohotlarni sharhlash va izohlash bilan cheklanilmoqda [11]. Shu bois bu boradagi ilmiy izlanishlarni jadallashtirish, ularning samarasini oshirish lozim.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, umumxalq referendumiga taqdim etilgan konstitutsiyaviy qonun loyihasidagi ayrim qoidalarni tahririy jihatdan yanada mukammallashtirishga oid ba’zi mulohazalarni bildirish o‘rinli bo‘lar edi, deb o‘ylaymiz:

1. Konstitutsiyaviy qonun loyihasining 98-moddasi qonunchilik tashabbusi huquqi instituti va ushbu huquqni amalga oshirish vakolatiga ega subyektlar masalasiga bag‘ish-

langan. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (oliy vakillik organi orqali), Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Bosh prokurori bu huquqni parlamentning quyi palatasiga tayyor qonun loyihasini kiritish orqali amalga oshirishi belgilangan. Moddaning uchinchi qismida O‘zbekistonning yuz ming nafardan kam bo‘lmagan fuqarolari, Senat, Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman), Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli ekanligi ko‘rsatilgan.

Demak, moddaning mazmunidan ayon bo‘ladiki, mazkur huquqning obyekti: ham “tayyor qonun loyihasi”, ham “qonunchilik taklifi”. Qonunchilik tashabbusi huquqining subyektlari ikki toifa tarzida belgilanmoqda.

Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Bosh prokuror faqat o‘z vakolati doirasiga kiruvchi masalalar bo‘yicha qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshiradilar. Amalda esa Konstitutsiyaviy sud barcha qonunlarning Konstitutsiyaga mosligini aniqlaydi; Bosh prokuror va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar barcha qonunlarning aniq ijrosini nazorat qiladi; Oliy sud va boshqa barcha sudlar qonunchilikning barcha soha hamda tarmoqlariga oid (iqtisodiy, mulkiy, tadbirkorlik, investitsiyalar, ma’muriy, fuqaroviy, oila va nikoh, mehnat, soliq va boj munosabatlari, yer, suv, ekologiya, jinoyat va boshqa) normalarni amaliyotda qo‘llaydilar. Shu bois ularning o‘z vakolatlari doirasini chegaralash imkonsiz.

Chamasi, qonunchilik tashabbusi huquqining har ikki obyektini nazarda tutgan holda ushbu huquq subyektlarini teng talqin etish ma’qul ko‘rinadi.

Fuqarolar ko‘rib chiqilayotgan huquqning yangi, maxsus subyektiga aylanadi. Ma’lumki, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning qonun ijodkorligi jarayonida keng ishtirok etayotgani qabul qilinayotgan qonunlarning sifati va ijtimoiy asosini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bois saylov huquqiga ega bo‘lgan fuqarolardan kamida yuz ming nafardan iborat bo‘lgan fuqarolarning qonunchilik tashabbusi sifatida Qonunchilik palatasiga qonunchilik taklifi kiritish huquqi to‘g‘risidagi norma kabi yangilik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu huquqning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi e’tiborli, albatta. Biroq xalq qonunchilik tashabbusining haqiqiy subyekti, qonunlar yaratuvchisiga aylanishi uchun qonun loyihasi tashabbuskorlari sonining miqdoriy malakasini kamaytirish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda davlat rahbarining 2018-yil 22-yanvardagi PF–5308-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining 2019-yil 2-fevraldagi 2310-III/PK-503-sonli qo‘shma qarori asosida “Mening fikrim” Jamoatchilik tashabbuslarining yagona platformasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Unga ovozlar bilan qo‘llab-quvvatlanadigan qonun loyihasini kiritish mumkin: kamida o‘n mingta – parlamentga, kamida besh ming – mahalliy vakillik organiga. Fikrimizcha, mazkur miqdoriy talabda (10 ming) to‘xtash mumkin, chunki bu qonunchilik faoliyatida fuqarolik tashabbusining namoyon bo‘lishiga rag‘bat beradi.

2. Loyihaning 95-moddasi 17-bandida “Senatning Qonunchilik palatasi tarqatib yuborilgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlarni qabul qilishga doir vakolatlarini bajarishi” nazarda tutilgan. Bikameralizm (ikki palatali parlament) prinsipi mohiyatiga ko‘ra, quyi palata tarqatib yuborilgan vaziyatda bir palata, ya’ni Senatning qonunlarni qabul qilishi istisno etiladi.

3. Huquqshunoslikda qonunning tili, undagi normalarning matni, mazmuni aniq, ma’nodor, lo‘nda, qisqa, barchaga bir xilda tushunarli bo‘lishiga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bois loyihaning ba’zi iboralari va tahririga aniqlik kiritish foydali bo‘lar edi.

Masalan, uning 42-moddasida "Har kim munosib mehnat qilish... huquqiga ega" deb mustahkamlangan. Bu o'rinda quyidagi tahrir ma'qul ko'rinadi:

"Har kimning mehnat qilishi uchun munosib shart-sharoitlarning yaratilishi kafolatlanadi".

Loyihaning 46-moddasida "Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamlarning miqdori rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan past bo'lishi mumkin emas" degan norma mustahkamlangan. Ushbu fikrni o'ylab ko'rish lozim va uni shaxsning iste'mol savati darajasini aks ettiruvchi yagona miqdor emas, balki xarajatlar to'plamini belgilash sifatida talqin qilish mumkin. Mazkur normaning ma'nosini to'g'ri aks ettirish uchun uni quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq: "Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamlar miqdori eng kam iste'mol xarajatlarining rasman belgilangan darajasidan past bo'lishi mumkin emas..."

Shuningdek, 76-moddada oila nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga asoslanishi ko'rsatilgan. Mazkur o'rinda nikohlanuvchilar emas, balki "erkak va ayolning ixtiyoriy roziligi asosidagi ittifoqi" deyish to'g'ri bo'lsa kerak. Bu xalqimizning milliy, diniy va axloqiy qadriyatlari hamda an'analariga ham to'liq mos keladi. Bundan tashqari, ushbu ifoda onalik va otalikni himoya qilishga bag'ishlangan va nikoh tomonlarining gender xususiyatlarini hisobga olgan holda, 78-modda normasiga ham muvofiqdir.

Yangilanayotgan Konstitutsiyamizning Muqaddimasida: "O'zbekistonning yagona xalqi" iborasi qo'llangan. Loyihaning rus tilidagi matnida "единый народ Узбекистана" deyilgan. O'zbek tilidagi matnda "единый" emas, "единственный" so'zining ma'nosi berilgan. Shu bois Muqaddimaning o'zbekcha matnida "yagona" so'zi o'rniga "mushtarak" iborasini qo'llash o'rinli. Bu ibora uyushgan, bir butun bo'lib birlashgan, jipslashgan degan ma'noni beradi.

4. Loyihaning 56-moddasida: "Inson huquqlarini himoya qilish milliy institutlari inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakl va vositalarini to'ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga, inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga hissa qo'shadi", deb belgilangan. Ushbu normadan mamlakatda mavjud inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning shakl va vositalari inson huquqlarini himoya qilish milliy institutlariga tegishli emas, degan ma'no kelib chiqadi. Aslida, inson huquqlarini ta'minlash sohasidagi milliy institutlar tarkibiga sud, prokuratura, ichki ishlar, adliya, ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz va boshqa davlat organlari kiradi. Nodavlat muassasalarga esa advokatura va faoliyati shu mavzuga oid tegishli jamoat tashkilotlari kiradi. Shundan kelib chiqib, mazkur normaning quyidagi tahriri ma'qul ko'rinadi: "Nodavlat inson huquqlarini muhofazalovchi tashkilotlar mavjud davlat institutlari, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning shakl va vositalarini to'ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va madaniyatini yuksaltirishga hissa qo'shadi".

5. Qonunchilik texnikasi nuqtayi nazaridan 61-moddada tavtologiya mavjud: "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini himoya qilishga majburdirlar. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Ushbu me'yorni uning ma'nosiga zarar yetkazmasdan quyidagicha umumlashtirish mumkin: "Fuqarolar O'zbekiston xalqining davlat tomonidan muhofaza qilinadigan tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashga majburdirlar". Bu yerda XI bob davlatning emas, balki fuqarolarning burchlariga bag'ishlanganligini ham inobatga olish kerak.

6. Loyihaning 94- va 95-moddalarida parlament palatalarining deputatlar va senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismining ko'pchiligi tomonidan o'z-o'zini tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilish huquqi berilgan. Shu bilan birga, 95-moddaning

17-bandi Senatga Qonunchilik palatasi tarqatib yuborilgan paytda umuman parlamentning qonunlarni qabul qilish vakolatlarini (Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonunlar bundan mustasno) amalga oshirish huquqini beradi. Biroq Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlariga bag‘ishlangan 94-moddada shunga o‘xshash vaziyat e’tibordan chetda qolgan. Senat o‘z-o‘zidan tarqatib yuborilgan taqdirda quyi palata tomonidan qabul qilingan qonunni tasdiqlash masalasi ochiq qolmoqda. Bu bo‘shliqni tegishli normani belgilash orqali bartaraf etish mumkin, deb hisoblaymiz.

Ushbu o‘rinda bildirilgan fikrlar mamlakat Konstitutsiyasini yangilash zarurati va ahamiyatini aslo kamaytirmaydi. Ular faqat ba’zi qoidalarni oydinlashtirishga, unda mustahkamlangan normalarning aniqligi va ravshanligini oshirishga qaratilgan. Ishonamizki, yangilangan O‘zbekiston Konstitutsiyasi nafaqat mamlakatda keyingi tub islohotlarni amalga oshirishning huquqiy kafolati, balki yangi O‘zbekistonning muvaffaqiyatli qurilishi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy Qonunning strategik yo‘nalishi va prognostik ahamiyati yangi Konstitutsiyada belgilangan g‘oyalar va tamoyillar mamlakatning kelgusi o‘n yilliklar davomida rivojlanishini belgilab berishi bilan izohlanadi.

Xulosalar

Mamlakatimizning istiqboldagi konstitutsiyaviy rivojlanishini bashorat qilib, quyidagi uchta omilni ta’kidlash zarur. Birinchisi, konstitutsiyaviy model va tuzilishini to‘xtatib qo‘yish mumkin emas. Hatto Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya kabi ilg‘or mamlakatlar tajribasi ham Konstitutsiya va qonun hujjatlarida belgilangan davlat va huquq tizimining muntazam o‘zgarishidan dalolat beradi. Ikkinchisi, konstitutsiyaviy tuzilmani qonuniy tartibga solishning to‘liqligi va tabaqalanishi mamlakatdagi mahalliy mintaqalarning yanada rivojlanishi, uning yutuqlari va ustuvorliklariga qarab o‘zgaradi. Uchinchisi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarning mazmunini ilmiy tadqiq va tahlil etishga jiddiy e’tibor qaratib, uning metodologik asoslarini ishlab chiqish, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning yo‘nalishlari va kompleks izlanishlarning mavzuiy mundarijasini belgilab olish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, O‘zbekistonning konstitutsiyaviy rivojlanish istiqbollari konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligi, Konstitutsiyada jamiyat qadriyatlarining ifodalanishi bilan bog‘liq. Aynan Konstitutsiya jamiyat va davlat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini qonuniy mustahkamlaydi va konstitutsiyaviy tartibga solish darajasiga ko‘taradi, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida demokratik qadriyatlarni amalga oshirishning yangi huquqiy mexanizmlarini belgilaydi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan bayram tabrigi [Holiday greetings of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the people of Uzbekistan on the occasion of the 29th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Available at: https://president.uz/uz/lists/view/4815

2. Kireyev V.V. Teoreticheskiye problemy reformirovaniya Konstitutsii RF [Theoretical problems of reforming the Constitution of the Russian Federation]. PhD thesis. Chelyabinsk, 2010.

3. Weiler J.H., Wind M. Introduction. European Constitutionalism Beyond the State. 2003.

4. West R. Constitutional Culture or Ordinary Politics: A Reply to Reva Siegel. Georgetown Law Faculty Publications and Other Works, 2006, p. 266. Available at: https://scholarship.law.georgetown.edu/facpub/266/.

5. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik [Constitution and social state]. Tashkent, Yuridik avlod Publ., 2022.

6. Shabo J.L. Konstitutsiya i konstitutsionalizm. Analiz ponyatiy [Constitution and constitutionalism. Concept Analysis]. *Polis*, 1998, no. 6.

7. Senat Konstitutsiya bo'yicha referendum o'tkazishni ma'qulladi [The Senate approved holding a referendum on the Constitution]. Available at: https://yuz.uz/news/senat-konstitutsiya-boyicha-referendum-otkazishni-maqulladi

8. Konstitutsiya yangilanishiga qanday zarurat bor? [What is the need to update the Constitution?]. Available at: https://meningkonstitutsiyam.uz/uzc/news/konstitutsiyani-yangilashga-qanday-zarurat-bor

9. Telegram channel. Available at: https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/28387

10. Amaldagi Konstitutsiyaga 27 ta yangi modda kiritilib, moddalar soni 155 taga oshmoqda [27 new articles have been added to the current Constitution, increasing the number of articles to 155]. Available at: https://xs.uz/uzkr/post/amaldagi-konstitutsiyaga-27-ta-yangi-modda-kiritilib-moddalar-soni-155-taga-oshmoqda

11. Tulteev I. Modernizatsiya konstitutsionnogo zakonodatelstva Uzbekistana: nekotorye itogi i perespektivy [Modernization of the constitutional legislation of Uzbekistan: some results and prospects]. *Bulletin of TSUL*, 2015, no. 3.

12. Bobrova N. A. Konstitutsionnny stroy i konstitutsionalizm v Rossii [Constitutional system and constitutionalism in Russia]. Moscow, 2003.

13. Shayo A. Samoogranicheniye vlasti [Self-limiting power]. Moscow, Yurist, 2001.

14. Strong responsibility and strong executive discipline an important factor of the effective activity of state authorities. Available at: https://antimon.gov.uz/uzb/shahsij-masuliyat-va-mustahkam-ijro-intizomi-davlatorganlari-samarali-faoliyatining-muhim-omili

15. Islomov Z.M. Konstitutsiya va huquq ustunligi [Constitution and rule of law]. Tashkent, 2013.

16. Mazzone J. The Creation of a Constitutional Culture. *Tulsa Law Review*, 2005, no. 40.

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./ZFYU8281
UDC: 342.9(045)(575.1)

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ДОПУСТИМОСТИ ЗАЯВЛЕНИЯ (ЖАЛОБЫ) В АДМИНИСТРАТИВНОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Нематов Журабек Нематиллоевич,
доктор юридических наук, и. о. профессора кафедры
«Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного
юридического университета
ORCID: 0000-0003-3406-0784
e-mail: jura0404uzb@mail.ru

Аннотация. *В данной статье сделаны попытки раскрыть некоторые правовые проблемы касательно определения допустимости заявления (жалобы) в административном судопроизводстве Республики Узбекистан. В судебной практике и законодательстве Узбекистана не используется понятие допустимости административных исков. Но из опыта Германии и ряда других стран можно узнать, что в административном судопроизводстве выделяются понятия допустимости и обоснованности административных исков. Эти понятия используются для того, чтобы в административном судопроизводстве суд имел возможность отсечь те иски, которые по формальным требованиям не могут рассматриваться по существу. Это дает возможность судам не терять время и ресурсы на рассмотрение таких дел. Также предъявление требований по условиям допустимости иска в административном судопроизводстве предотвращает подачу ненужных исков, тем самым дает возможность судам рассматривать только те споры, которые имеют правовое значение. Уменьшается количество жалоб, нагрузка судов тоже становится умеренной, что дает возможность сконцентрироваться на действительно проблемных делах с точки зрения права. Поэтому допустимость иска в административном судопроизводстве является очень важным механизмом отсечения ненужных исков и рассмотрения действительно проблемных споров. С другой стороны, если суды освобождаются от ненужных исков, то у судов появляется большая возможность качественно рассмотреть имеющиеся на рассмотрении в административном судопроизводстве дела. В данной статье освещаются вопросы касательно исчерпанности инстанционного порядка (субсидиарности), допустимых сроков предъявления заявления (жалобы) в административном судопроизводстве.*

Ключевые слова: *административное судопроизводство в Республике Узбекистан, судебная практика, административные суды, Закон об административных процедурах, Кодекс об административном судопроизводстве, определения допустимости заявления (жалобы) в административном судопроизводстве, предмет иска, исчерпанность инстанционного порядка (субсидиарность), процессуальная правоспособность, процессуальная дееспособность, право предъявления иска, допустимое основание для предъявления иска, сроки, форма.*

ARIZA (SHIKOYAT)NING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MA'MURIY ISH YURITISH TARTIBIDA KO'RIB CHIQILISHINI ANIQLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI

Nematov Jurabek Nematilloyevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasi
professor v.b, yuridik fanlar doktori

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biz O'zbekiston Respublikasining ma'muriy ish yuritish tartibida ariza (shikoyat)ning ko'rib chiqilishini aniqlashga doir ayrim huquqiy muammolarni ochib berishga harakat qilamiz. O'zbekistonning sud amaliyoti va qonunchiligida ma'muriy da'volarning maqbulligi tushunchasidan foydalanilmagan. Ammo Germaniya va boshqa bir qator mamlakatlarda ma'muriy ish yuritishda ma'muriy da'volarning maqbulligi va asosliligi tushunchalari alohida ajralib turadi. Ushbu tushunchalar ma'muriy ish yuritishda sudning rasmiy talablariga ko'ra mohiyatan ko'rib chiqilishi mumkin bo'lmagan da'volarni kesish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash uchun ishlatiladi. Bu esa sudlarga rasmiy talablar asosida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lmagan ishlarni ko'rib chiqish uchun vaqt va mablag'ni behuda sarf qilmaslikka yordam beradi. Shuningdek, ma'muriy ish yuritishda da'voning maqbulligi shartlari bo'yicha talablarning qo'yilishi keraksiz da'volar qo'zg'atilishining oldini oladi va shu bilan sudlarga faqat yuridik ahamiyatga ega bo'lgan nizolarni ko'rishga sharoit yaratiladi. Shikoyatlar kamaymoqda, sudlarning ish yuki ham mo'tadil bo'lib bormoqda. Bu esa qonun nuqtayi nazaridan, haqiqatan ham, muammoli ishlarga e'tibor qaratish imkonini beradi. Shuning uchun ma'muriy ish yuritishda da'voning qabul qilinishi keraksiz da'volarni kesish va muammoli nizolarni ko'rib chiqish uchun juda muhim mexanizmdir. Boshqa tomondan, agar sudlar keraksiz da'volardan ozod qilingan bo'lsa, ma'muriy ish yuritishda bo'lgan ishlarni sifatli ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu maqolada shikoyat qilish instansiyasi yuzasidan tartibni (subsidiarlik) tugatish, ma'muriy ish yuritishda ariza (shikoyat) berishning ruxsat etilgan muddatlari bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasida ma'muriy sud ishlarini yuritish, sud amaliyoti, ma'muriy sudlar, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun, ma'muriy ish yuritishda ariza (shikoyat) ko'rib chiqilishini aniqlash, da'vo predmeti, shikoyat qilish instansiyasi yuzasidan tartibni (subsidiarlik) tugatish, ma'muriy ish yuritishda ariza (shikoyat) berishning ruxsat etilgan muddatlari, protsessual huquq layoqati va protsessual layoqati, da'vo qo'zg'atish huquqi, da'vo qo'zg'atishning maqbul asoslari, shartlari va shakli.*

SCIENTIFIC AND PRACTICAL ANALYSIS OF DETERMINING THE ADMISSIBILITY OF AN APPLICATION (COMPLAINT) IN THE ADMINISTRATIVE PROCEEDINGS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Nematov Jurabek Nematiloevich,
Acting Professor, Department of Administrative
and Financial Law, Tashkent State University of Law,
Doctor of Law

Abstract. *In this article, we will try to reveal some legal problems regarding the determination of the admissibility of an application (complaint) in the administrative proceedings of the Republic of Uzbekistan. The judicial practice and legislation of Uzbekistan do not use the concept of admissibility of administrative claims. But based on the experience of Germany and a number of other countries, one can learn that in administrative proceedings the concepts of the admissibility and validity of administrative claims stand out. These concepts are used to ensure that in administrative proceedings the court has the opportunity to cut off those claims that, according to formal requirements, cannot be considered on*

the merits. This makes it possible for the courts not to waste time and resources on cases that cannot be considered according to formal requirements. Also, the presentation of requirements under the conditions of the admissibility of a claim in administrative proceedings prevents the filing of unnecessary claims, thereby enabling the courts to consider only those disputes that are of legal significance. Complaints are decreasing, and the workload of the courts is also becoming moderate, which makes it possible to concentrate on really problematic cases from the point of view of the law. Therefore, the admissibility of a claim in administrative proceedings is a very important mechanism for cutting off unnecessary claims and considering really problematic disputes. On the other hand, if the courts are exempted from unnecessary claims, then the courts have a greater opportunity to qualitatively consider the cases that are pending in administrative proceedings. This article will highlight issues regarding the exhaustion of the instance order (subsidiarity), and the permissible time limits for submitting an application (complaint) in administrative proceedings.

Keywords: *administrative proceedings in the Republic of Uzbekistan, judicial practice, administrative courts, the Law on Administrative Procedures, the Code on Administrative Procedures, determinations of the admissibility of an application (complaint) in administrative proceedings, the subject of the claim, the exhaustion of the instance order (subsidiarity), procedural legal capacity and procedural capacity , right to bring a claim, admissible grounds for bringing a claim, terms and form.*

Введение

Внедрение впервые в истории Республики Узбекистана административных судов отдельно от гражданских, уголовных и экономических судов с 1 июня 2017 года, принятие Закона Республики Узбекистан «Об административных процедурах» (далее – ЗАП) 8 января 2018 года, а также принятие 25 января 2018 года Кодекса об административном судопроизводстве (далее – КоАС), можно сказать без преувеличения, ознаменовало начало новой эры в сфере административного права в стране, поскольку данные основополагающие законы дали новый импульс развитию административного права.

В данной статье попытаемся раскрыть некоторые правовые проблемы касательно определения допустимости заявления (жалобы) или так называемой допустимости административных исков в административном судопроизводстве Республики Узбекистан.

Материалы и методы

Статистика рассмотренных дел административных судов [1] показывает, что в 2020 году из 9 530 дел прекращено 368 дел, оставлено без рассмотрения 572 дела, в 2021 году из 9 236 дел прекращено 536 дел, оставлено без рассмотрения 369 дел, в 2022 году из 9 215 дел прекращено 656 дел, оставлено без рассмотрения 398 дел.

Odob-axloq qoidalari davlat xizmatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo‘lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda davlat xizmatchilarining axloq qoidalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarining oldini olishga qaratilgan.

Odob-axloq qoidalarining tartibga solish yo‘nalishlari:

a) davlat fuqarolik xizmatchilari mehnat faoliyati davomida va ishdan tashqari vaqtdagi faoliyat – davlat xizmatining obro‘siga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan tiyilish, axloq normalariga doimiy rioya qilish, mas’uliyat, kasbiga sadoqat va halollik, oilasida sog‘lom muhitni ta’minlash hamda jamiyatda axloqning umume’tirof etilgan qoidalariga rioya etish;

b) davlat fuqarolik xizmatchilari kasbiy madaniyatiga oid soha faoliyati – halol, adolatli va kamtar bo‘lishi, fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala, vazmin va samimiy munosabatni namoyish qilishi va b.;

d) davlat fuqarolik xizmatchilari xizmat faoliyati – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga so‘zsiz rioya etish, mamlakat sha’nini e’zozlash, davlat siyosatiga sodiq bo‘lish hamda har qanday qonunbuzilish, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish, jamoada sog‘lom ma’naviy muhitni saqlash choralarini ko‘rish va boshqa qonunchilikda belgilangan talablarni bajarish;

e) davlat fuqarolik xizmatchilari xizmatdan tashqari faoliyatida – umumqabul qilingan axloq normalariga rioya qilishlari va ularga zid bo‘lgan xulq-atvor va xatti-harakatlardan o‘zlarini tiyishlari shart (milliy urf-odat, qadriyat va an’analarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; dabdababozlik, shuhratparastlik, guruhbozlik, maishatbozlik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy illatlarga yo‘l qo‘ymasligi lozim);

f) davlat fuqarolik xizmatchilarining xizmat faoliyatidagi tashqi ko‘rinishi va kiyinish uslubi, birinchidan, fuqarolarning davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga hurmati oshishi, ikkinchidan, davlat xizmati nufuzi yuksalishiga xizmat qilishi belgilangan.

Bunda davlat xizmatchisi tashqi ko‘rinishini belgilangan me’yorlar doirasida saqlashi, kamtarona kiyinishi, atrofdagilarning e’tiborini o‘ziga ortiqcha jalb qiladigan tarzda kiyinmasligi kerak [5].

Mavzu doirasida xulosa qiladigan bo‘lsak, davlat fuqarolik xizmatchilarining ma’naviy qiyofasi, uning axloqiy va huquqiy madaniyat darajasi ko‘p jihatdan shaxsning ma’naviy kamolotiga bog‘liq. Mamlakatda davlat xizmatchilariga nisbatan jamoatchilikning talabchanligi, OAV va jurnalistlarning ijobiy faoliyati hamda tizimli ravishda davlat organlarining tiyib turish va nazorat qilish faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi davlat xizmatchisida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo‘lgan hurmat va ishonch oshishi hamda davlat xizmatchilari axloq qoidalariga zid xatti-harakatlarining oldini olishga xizmat qiladi, deb baholash mumkin.

REFERENCES

1. Azizov X. O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the state civil service in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Shafoat Nur Fayz Publ., 2020, p. 170.

2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri [City of virtuous people]. Trans. A. Irisov, M. Makhmudov, U. Otazhon. Resp. eds. M. Khairullaev, M. Jakbarov. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2016, 320 p.

3. Averina O.P. Etika i kultura upravleniya [Ethics and Culture of Management]. Khabarovsk, DAGS, 2004, 132 p.

4. Botavina R.N. Etika menedzhmenta [Ethics in management]. Moscow, Financial and statistics Publ., 2004, 136 p.

5. Vasilev D. Kodeks povedeniya gosudarstvennykh sluzhashhikh: yevropeyskiy opyt i rossiyskaya deystvitelnost [Code of Conduct for Civil Servants: European Experience and Russian Reality]. 2002. Available at: http://www.carnegie.ru/ru/pubs/briefings/issue07-02.pdf

6. Abramova L.P., Varbenkova T.M. Etika i kultura upravleniya [Ethics and management culture]. St. Petersburg, 2010, 265 p.

7. Shuvalova N.N. Sluzhebnoye povedeniye gosudarstvennogo grazhdanskogo sluzhashhego: moralnyye osnovy [Service behavior of a public civil servant: Moral foundations]. Rostov-on-Don, Feniks Publ., 2012, 360 p.

8. Thompson D. Paradoxes of Government Ethics. *Public Administration Review*, Washington, 1992, vol. 52, pp. 52–60.

9. ASPA’s code of ethics. Applying professional standards and ethics in the eighties: a workbook and study guide for public administrators. Eds. H. Mertins, P. Hennigan. Washington, DC, 1995, 246 p.

10. Building Public Trust: Ethics Measures in OECD Countries. PUMA Policy Brief, 2000, no. 7, p. 6.

11. Code of ethics for government service. Combating corruption. Encouraging ethics. A sourcebook for public service ethics. Eds. W. Richter, F. Burke, J. Doing. Washington, DC, American society for public administration, 1990, 158 p.

12. Code de déontologie de la police national, 1986. Available at: http://www.oecd.org/document/12/0,3343, en2649341353553210 8llll00.html.

13. Dyens S. Elements de reflexion sur le droit de la déontologie administrative. *Revue Administrative*, 1999, no. 308, 168 p.

14. Gilman S. Ethics Codes and Codes of Conduct as Tools for Promoting an Ethical Professional Public Service: Comparative Successes and Lessons. Washington, DC, 2005, p. 76.

15. Lewis C., Gilman S.C. The ethics challenge in public service. A problem-solving guide. San Francisco, Jossey-Bass Publ., 1991, 234 p.

16. Principles for managing ethics in the public service. OECD recommendation, 1998. Available at: http://www.oecd.org/dataoecd/60/13/1899138.pdf

17. The Civil Service Code (United Kingdom). 2006, June. Available at: http://www.civilservice.gov.uk/iam/codes/cscode/index. asp

18. Trust in Government. Ethics measures in OECD countries. OECD, 2000, 314 p.

19. Values and Ethics Code for the Public Service. Canada. 2003, September 1. Available at: http://www.oecd.org/dataoecd/60/61/35528015.pdf

20. Palidauskaite J. Codes of Conduct for Public Servants in Eastern and Central European Countries: Comparative Perspective. *Palidauskaite*. Available at: http://www.oecd.org/dataoecd/17/32/35521438.pdf

21. Whitton H. Implementing Effective Ethics Standards in Government and the Civil Service. *Transparency International*, 2001. Available at: http://www.oecd.org /dataoecd/62/57/35521740.pdf

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./NXDV8243
UDC: 347:336.74(045)(575.1)

RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR KO‘RSATISH SOHASIDA KRIPTOVALYUTA MUOMALASINING FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI

Hazratqulov Odilbek Tursunovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro xususiy huquq kafedrasi mudiri,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent
ORSID: 0000-0003-0644-0122
e-mail: odilbekhazratqulov123@gmail.com

Annotatsiya. *Jahon hamjamiyatining globallashuvi natijasida tadbirkorlik subyektlarining huquq va majburiyatlari xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, milliy qonunchilikda mavjud kollizion normalar orqali himoya qilinishi kafolatlangan. Bugungi kunda zamonaviy texnologik vositalar ta’minoti hamda dasturlash faoliyatining rivojlanishi mazkur munosabat ishtirokchilarining huquqlari bilan bog‘liq masala yechimi ustida tadqiqotlar olib borishni kun tartibiga qo‘ymoqda. O‘z navbatida, raqamli moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish sohasida ilgarilab ketgan rivojlangan mamlakatlarning ushbu sohani tartibga solishga qaratilgan qonunlari hamda qonunosti hujjatlarini ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada raqamli moliyaviy aktivlarning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda obyekt sifatida e’tirof etilishi haqidagi an’anaviy yondashuvlardan biroz chekingan holda tahlil etish masalalari yoritib berilgan. Raqamli moliyaviy xizmatlar sohasida kriptovalyutalar bilan bo‘lgan muomala bugungi kunda mavjudligi, mazkur amaliyot tobora moliyaviy munosabatlarni qamrab olayotganligi bu masala ustida tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etmoqda. Xususan, kriptovalyutalar internet orqali foydalanuvchilar o‘rtasida savdo aylanmasi yoki pul almashinuvini amalga oshirish oqibatida kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarni qanday tartibga solishi mumkin, degan savol barchani qiziqtirib kelmoqda. Mazkur holat kriptovalyutalarning moliyaviy operatsiyalardagi harakatlanishi hamda undan shaxslarning foydalanishini huquqiy jihatdan ta’minlashni talab etadi. Kriptovalyutalar huquqiy masalalar bo‘yicha ko‘plab savollarni kun tartibiga qo‘yadi. Jumladan, mazkur valyutalar qonunlar yuzasidan qanday qabul qilinadi yoki ularni qo‘llash sifati hamda kriptovalyutalar bilan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar qonun tomonidan qanday nazorat qilinishi zarurati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.*

Kalit so‘zlar: *integratsiya, texnologik inqilob, moliyaviy texnologiyalar, kriptovalyuta, fintex, kripto-aktivlar, moddiy ne’matlar, shaxsiy pul, bitkoin, tokenlar, foydali tokenlar va investitsiya tokenlar.*

ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ОБРАЩЕНИЯ КРИПТОВАЛЮТ В СФЕРЕ ЦИФРОВЫХ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ

Хазраткулов Одилбек Турсунович,
кандидат юридических наук, доцент, заведующий
кафедрой «Международное частное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. *В результате глобализации мирового сообщества права и обязанности хозяйствующих субъектов гарантированно регулируются международными договорами,*

конвенциями, а также коллизионными нормами, существующими в национальном законодательстве. На сегодняшний день предоставление современных технологических средств и молниеносное развитие цифровой деятельности ставит на повестку дня проведение исследований по решению вопроса, связанного с правами участников отношений в этой области. В свою очередь важно учитывать законы и нормативные акты, направленные на регулирование этой сферы, ряда развитых стран, которые продвинулись в области цифровых финансовых услуг. В данной статье рассматриваются вопросы отчуждения цифровых финансовых активов как объектов гражданских правоотношений, выходя за рамки общепринятых традиционных подходов. В частности, мир интересует вопрос о том, как регулировать права и обязанности, возникающие при торговле или обмене криптовалют между пользователями через Интернет. Данная ситуация требует правового обеспечения движения и использования криптовалют в финансовых операциях между физическими лицами. Криптовалюты вызывают много юридических вопросов. Актуальность исследования определяют такие вопросы, как: насколько эти валюты регламентированы с точки зрения законодательства или качества их использования, а также необходимость контроля финансовых операций с криптовалютами с точки зрения права.

Ключевые слова: *интеграция, технологическая революция, финансовые технологии, криптовалюта, финтех, криптоактивы, материальные блага, личные деньги, биткоин, токены, прибыльные токены, инвестиционные токены.*

CIVIL LAW ISSUES OF CRYPTOCURRENCY CIRCULATION IN THE FIELD OF DIGITAL FINANCIAL SERVICES

Khazratkulov Odilbek Tursunovich,
Head of the Department of “Private International Law”,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

Abstract. *As a result of the globalization of the world community, the rights and obligations of economic entities are guaranteed to be regulated by international treaties, conventions, as well as conflict of law rules that exist in national legislation. Today, the provision of modern technological tools and the rapid development of program activities are on the agenda for research to address the issue related to the rights of participants in these relations. In turn, it is important to take into account the laws and regulations of developed countries that have advanced in the field of digital financial services aimed at regulating this area. This article discusses the issues of alienation of digital financial assets as objects of civil legal relations, going beyond the generally accepted traditional approaches. In particular, the world is interested in the question of how to regulate the rights and obligations arising from trading or money exchange between users of cryptocurrencies via the Internet. This situation requires legal support for the movement of cryptocurrencies in financial transactions and their use by individuals. Cryptocurrencies raise many questions about these legal issues. In particular, how these currencies are accepted in terms of laws or the quality of their use, and the need to control financial transactions with cryptocurrencies from legal accounts determines the relevance of the research.*

Keywords: *integration, technological revolution, financial technologies, cryptocurrency, fintech, crypto assets, material goods, personal money, bitcoin, tokens, profitable tokens and investment tokens.*

Kirish

Jahon iqtisodiyoti yillar davomida bir necha bor rivojlanib, bir necha bor inqiroziy holatlarni o‘z boshidan o‘tkazdi. Bu uning yetarli tajribaga ega bo‘lishi va globallashuv jarayonida tez sur’atlarda o‘sishiga katta turtki bo‘ldi. Olib borilgan izlanishlar mahsuli sifatida yangi yondashuvlar paydo bo‘ldi hamda

bir necha yillar davomida ushbu munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan norma va qonunlar bazasini tashkil qiluvchi konsepsiyalar shakllandi. O‘tgan yillar davomida iqtisodiyotni tartibga soluvchi mavjud qoidalar o‘zining oldiga qo‘ygan vazifasini yetarli darajada bajarishga ulgurdi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga “raqamli xizmatlar” atamasi kirib kelganligi, ushbu atama raqamli xizmatlar bozorining fuqarolik muomalasida ishtirok etib kelayotganligi, uning mavjudligi mazkur munosabatning huquqiy tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini kun tartibiga qo‘ydi. Tan olib aytish lozimki, turli davlatlar va xalqaro moliyaviy kompaniyalar tomonidan barcha uchun majburiy bo‘lmagan dasturlar, raqamli xizmatlar ko‘rsatish modellari ishlab chiqildi. Bu borada Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiruvchi moliyaviy qudratga ega bo‘lgan davlatlar, Yaponiya va Xitoy raqamli moliyaviy aktivlarni joriy qilish bo‘yicha birmuncha oldinlab ketdi hamda yetarli tajribaga ega bo‘ldi.

Amalda mavjud raqamli moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishga doir modellar u yoki bu davlatlarning iqtisodiy holati hamda imkoniyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilganligi sababli bu amaliyotning barcha davlatlar uchun birday tatbiq etilishi yoki undan bir xilda andoza olinishi, fikrimizcha, o‘zini oqlamaydi. Shu sababli mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli moliyaviy iqtisodiyotni joriy qilish bo‘yicha har bir mamlakatning aniq harakatlar rejasini ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyotni amalda joriy qilishning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi har taraflama maqbul bo‘lgan milliy modellarini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Raqamli xizmatlar, kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasi bugungi kunda mavjud bo‘lgan ko‘p masalalardan tashkil topgan ahamiyatli yechimini kutayotgan muammolardan biridir.

Kriptovalyuta o‘zining xususiyatidan kelib chiqqan holda fuqarolik-huquqiy jihatdan tartibga solinishida ko‘pgina masalalarni qamrab olish zarurati mavjud. Kriptovalyutalar elektronik va desentralizatsiyalangan valyutalardir. Bu esa ularni turli huquqiy masalalarda o‘zining huquqiy maqomini ta’minlashni qiyinlashtiradi. Shu sababli har bir mamlakat kriptovalyutalar uchun qonuniy rejimni belgilashga harakat qilishi lozim.

Kriptovalyutalarga oid kelajakda o‘z yechimini kutayotgan quyidagi huquqiy masalalarni sanab o‘tish mumkin, jumladan:

– huquqiy jihatlarini tartibga solish, ya’ni kriptovalyuta xarid qilish va xarajat qilish huquqiy tizimi qanday bo‘lishi lozim;

– moliyaviy huquqlarni ta’minlash, ya’ni kriptovalyuta operatsiyalari to‘g‘risida moliyaviy hisob-kitoblarni kim tuzishi lozim va shu hisob-kitoblar uchun solishtirishni kim o‘z zimmasiga olishi;

– bu borada sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan moliyaviy jinoyatlar, ya’ni kriptovalyutalarni yuborish va qabul qilish jarayonida jinoyatlar, masalan, pul oqimini yashirish, jinoyatchilik va boshqalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yuritish;

– bu borada islom moliyasi bilan bog‘liq masalalar va islomiy huquqlarining mazkur tizimga nisbatan qo‘llanish doirasi, ya’ni kriptovalyutalarning diniy sharoitlarga mos ravishda ishlatilishi va ularni huquqiy qabul qilish masalalari;

– shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish va uning anonimligini ta’minlash vazifasining mavjudligi, ya’ni raqamli moliyaviy xizmatlarda shaxsiy ma’lumotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri saqlash va himoyalash talablari yuqori darajada e’tiborga sazovor. Bunday muammolar mavjud bo‘lishi mumkin, ammo, birinchi navbatda, shaxsiy ma’lumotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri saqlash va himoyalashda duch kelishi mumkin bo‘lgan jihatlarga e’tibor qaratish lozim.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotda asosiy metod sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy sharhlash hamda tizimlashtirish usuli tanlab olingan

bo‘lib, mazkur tadqiqot asosida raqamli moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi jahonda ilgari surilayotgan doktrinalar, qarashlar va bu boradagi olimlarning fikrlari nuqtayi nazaridan kriptovalyuta bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalar hamda normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo‘yicha tahlil amalga oshirish va xorijiy mamlakatlar qonunchiligi bilan taqqoslagan holda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan fikrlar ilgari suriladi.

Mazkur ilmiy maqolada sohada yuz berayotgan voqea va hodisalarni o‘rganish, tizimli tahlil, mantiqiylik, umumlashtirish, deduksiya, qiyosiy-huquqiy va statistik ma’lumotlarni o‘rganish kabi usullardan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Raqamli fuqarolik muomalasi va raqamli huquqlarni tartibga solish uchun fuqarolik-huquqiy modelining imkoniyatlarini aniqlash, raqamli huquqlarning huquqiy mohiyati va mazmunini tizimli tahlil qilish, ularni ichki va tashqi qonunchilik normalarini qiyosiy tahlil qilgan holda huquqni qo‘llash amaliyotiga joriy qilish, shu jumladan, raqamli texnologiyalardan foydalanishda fuqarolik-huquqiy tartibga solishni yanada rivojlantirish istiqbollarini baholash lozim. Shu sababli fuqarolik huquqi institutlarini rivojlantirish istiqbollari mulk munosabatlarini samarali huquqiy tartibga solishni shakllantirish uchun raqamli huquqlar va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish bilan bog‘liq.

Shu bilan bir qatorda, raqamli moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishni huquqiy tartibga solishda bir necha muammoli holatlar mavjudki, ulardan biri raqamli moliyaviy xizmatlar xavfsizligi bilan bog‘liq. Raqamli moliyaviy tizimlar xorijiy hakerlar va boshqa xavfli faoliyatlar tomonidan tashvish uyg‘otadi. Raqamli moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishning bir necha turlari mavjud bo‘lib, ularni huquqiy tartibga solishda tabiatini birma-bir o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq. Ulardan biri – blokcheyndir.

Blokcheyn texnologiyasiga asoslangan kriptovalyutalar bilan moliyaviy amaliyotning paydo bo‘lishi va jadal rivojlanishi xalqaro moliyaviy-huquqiy tartib uchun aniq muammoga aylandi [1].

Bir tomondan, buni yangi raqamli texnologiya bilan iqtisodiyotga foydali ta’sir ko‘rsatish salohiyati, moliya tizimiga sarmoya jalb qilishning jozibali imkoniyati, hisobkitoblarda keraksiz vositalardan vos kechish yo‘li borligi bilan baholash mumkin.

Ikkinchi tomondan esa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar xulosalari shuni ko‘rsatadiki, yangi deb e’tirof etilgan mazkur moliyaviy amaliyot yordamida kripto-aktivlardan jinoiy faoliyatda foydalanish [2] moliyaviy piramidalarni yaratish va tashkil qilish, moliya tizimida davlat ta’sirining zaiflashishi va bu orqali ochiq-oydin salbiy ta’sirga ega bo‘lgan xavf-xatarni keltirib chiqarishi mumkin [3]. Biroq o‘tgan yillar davomida oldinda turgan aniq xavf-xatarning mavjudligiga qaramay, xalqaro moliyaviy institutlar kriptovalyuta moliyaviy qurilmasini birlashtirish, uni qanday bo‘lmasin qabul qilish hamda ularga nisbatan mavjud tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishga harakat qilmoqda.

Bu harakatlar turli integratsiyalashgan tuzilmalar va ularni qo‘llab-quvvatlovchi davlatlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Mazkur amaliyotni qo‘llab-quvvatlovchilar juda ehtiyotkorlik bilan kripto-aktivlarni huquqiy tartibga soluvchi tizimni yaratish borasida ba’zi davlatlar qonunchiligiga normalar kiritishni o‘z oldilariga maqsad qilib olgan. Bu maqsadni amalga oshirishda tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lgan hujjatlarni qabul qilish, virtual moliyaviy amaliyot natijalarini umumlashtirish, shu asosda bosqichma-bosqich tartibga solish tizimini ishlab chiqish hamda buning huquqiy asoslari, ya’ni qonun va qonun normalarini ishlab chiqish istagi mavjud.

Bu yo‘lda muayyan moliyaviy aktivlar bilan amaliyotni mavhum tarzda amalga oshirish uni huquqiy tartibga solish hamda o‘ziga xos ta’rifini ishlab chiqish muammolarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun tadqiqot sifatida o‘rganilayotgan obyekt bilan bog‘liq imlo lug‘atini nashr etish FATF tomonidan 2014-yilda amalga oshirilgan birinchi vazifa edi. Buning muhim jihati shundaki, kriptovalyutalar bilan bog‘liq tushunchalarning xalqaro institutlar darajasida ishlab chiqilgan ta’rifi birinchi bo‘lib maqsadi pul yuvishga qarshi kurashish organi tomonidan berilgan.

Bugungi kunda virtual valyuta xalqaro doirada tan olingan qiymatning raqamli ko‘rinishidir. U o‘z xususiyatiga ko‘ra raqamli ravishda sotilishi, ayirboshlash vositasi bo‘lishi, qiymat birligi yoki qiymatni saqlashi mumkin bo‘lgan virtual amaliyotda mavjud bo‘lsa-da, qonuniy to‘lov vositasi sifatida har qanday davlat yurisdiksiyasida tan olinmagan.

Berilgan mazkur ta’rif obyektning raqamli xususiyatlari va valyuta sifatida uning odatiy belgilarini hisobga olsa-da, uning davlat tomonidan tasdiqlanmaganligi sababli to‘lov vositasi sifatida tan olinmaydi. Kriptovalyuta FATF tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, “matematik aldoritmga asoslangan, kriptografiya bilan himoyalangan, markazlashtirilmagan konvertatsiya qilinadigan virtual valyuta” deb tan olinadi [4].

Shuningdek, raqamli aktiv deganda “yaratilishi va ishlatilishi raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan elektron shakldagi mulk” tushuniladi. Raqamli belgi (token) “raqamli aktivlarning bir turi bo‘lib, u transaksiya bloklari (blokcheyn) ro‘yxatidagi yozuv bo‘lib, boshqa taqsimlangan ma’lumotlar bazasi yordamida ma’lum bir hisob birligi yoki o‘z qiymatini saqlagan holda, ayirboshlash vositasi sifatida qabul qilinadi” [5].

Kembrij muqobil moliya markazi tomonidan olib borilgan tadqiqot maulliflarining ta’kidlashicha, hozirda kriptovalyuta bilan bog‘liq munosabatlarda unga nisbatan yagona tan olingan atama mavjud emas. Kriptovalyuta bilan bog‘liq amaliyotda “virtual valyuta” yoki “raqamli valyuta” atamalari uni tartibga soluvchilar tomonidan sinonim sifatida foydalanib kelinadi [6]. FATF tomonidan 2019-yil iyun oyida “Virtual aktivlar va tavakkalchilikka asoslangan yondashuv bo‘yicha yo‘riqnoma” ishlab chiqildi. Bundan tashqari, 2018-yilning oktabr oyida ushbu tashkilot tomonidan o‘zining asosiy hujjatlaridan biri bo‘lgan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha tavsiyalar chop etilgan.

Mazkur qoidalarda ko‘rsatilgan tavsiyalarning 15-bandiga asosan, mamlakatlar FA xizmat ko‘rsatuvchi provayderlari FATF tomonidan ko‘rilgan choralarga rioya qilish uchun ML/SFTni tartibga solish, litsenziyalar yoki ro‘yxatdan o‘tkazishni ta’minlashi lozim [7].

Tegishli o‘zgartirish BMT xavfsizlik kengashi rezolyutsiyasida mustahkamlangan bo‘lib, u barcha davlatlarni qayta ko‘rib chiqilgan 40 ta tavsiyada mustahkamlangan keng qamrovli xalqaro standartlarga rioya qilishga chaqirdi. Fukioko G-20 doirasiga kiruvchi davlatlarning Moliya vazirligi va Markaziy bank rahbarlari o‘zaro uchrashuvlarida virtual aktivlar tegishli provayderlar bo‘yicha FATF tavsiyalarini qo‘llashini ta’kidladi [8].

Virtual aktivlar “mulk”, “daromad”, “mablag‘lar”, “mablag‘lar va boshqa aktivlar” yoki boshqa “tegishli qiymat” sifatida ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lib, ulardan jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish maqsadida foydalanmaslik kerak. Bundan tashqari, tavsiyalar xizmat ko‘rsatuvchi provayderlardan virtual valyuta hisob-kitoblarida ishtirokchilarni shaxssizlantirishni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, kriptovalyuta operatsiyalarini asosiy afzalliklaridan mahrum qiladi.

2018-yilda Moliyaviy barqarorlik kengashi (FSB) kriptovalyutaning global moli-

yaviy barqarorlikka ta’sirini o‘rganib chiqdi [9]. Mazkur kengashda ta’kidlanishicha, bozorning kichik hajmi tufayli kripto-aktivlar global moliyaviy barqarorlikka tahdid solmaydi. Lekin tartibga soluvchilardan muayyan choralarni talab qiladi. Hisobotning asosiy xulosasi shundan iboratki, mustaqil valyutaning asosiy belgilaridan mahrum bo‘lgan bunday aktivlar umumiy to‘lov vositasi, qiymat ombori va hisob birligi emas. Moliyaviy barqarorlik kengashi (FSB)ning boshqa maqolalarida 25 ta davlat va 7 ta xalqaro moliya instituti tomonidan kripto-aktivlarni tartibga solish yondashuvlarini ko‘rib chiqish [10] ta’kidlangan.

Qimmatli qog‘ozlar bozori xalqaro tashkiloti (IOSCO) kripto-aktivlar bilan savdo qilish platformalariga aloqador uslubiy hujjatlarni ishlab chiqishni ta’minlaydi [11]. Qizig‘i shundaki, ushbu tashkilot fondi tartibga solish sohasida global standartlar yaratuvchisi bo‘lib, virtual aktivlar muomalasi jarayonining eng muhim elementi – kriptovalyutaning dastlabki taklifi (Initial Coin Offering) bo‘yicha umumiy qo‘llanmasini hanuzgacha e’lon qilmagan. Bunday takliflarning bir qismi sifatida emitent ko‘plab investorlardan joylashtirilgan kripto-aktivlar uchun katta miqdorda mablag‘ to‘playdi. IOSCO veb-saytining tegishli bo‘limi atigi bir necha o‘nlab hujjatlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, turli yurisdiksiyalarning regulyatorlari tomonidan (BAA, Argentina, Avstraliya, Kanada, Xitoy, Fransiya, Germaniya, Italiya, AQSh va boshqa davlatlar) bir necha hujjatlar qabul qilib kelinmoqda [12].

Tadqiqotchi P. Valentening ta’kidlashicha, virtual valyutalar muammosini rasmiy darajada hal qilgan Yevropa Markaziy banki 2012-yilgi hisobotida bunday valyutalar muomalasining o‘ziga xos xususiyatlari sifatida huquqiy tartibga solishning yo‘qligiga ishora qilgan edi [13]. 2014-yilda Yevropa bank idorasi noqonuniy faoliyati uchun virtual valyutadan foydalanishning oldini olish, tranzaksiyalarni deanonimizatsiyalashtirish (ma’lumotlarni anonimlashtirish), shuningdek, kriptovalyutalar orqali operatsiyalarni provayderlar bilan bir xil tarzda tartibga solishni ta’minlash uchun bir qator chora-tadbirlarni taklif qilgan. Jumladan, moliyaviy xizmatlar, ya’ni bozorni manipulatsiya qilishni taqiqlash, kapitalning minimal talablarini joriy etish va boshqalar [14].

Yevropa banki 2019-yildagi hisobotida kriptovalyutalarni “asosan kriptografiya va taqsimlangan daftar texnologiyasiga o‘zining nazarda tutilgan yoki o‘ziga xos qiymatining bir qismiga tayanadigan xususiy aktiv” sifatida belgiladi hamda mahsulot yoki xizmatga kirishini ta’minlaydigan kripto-aktivlar to‘lov almashtirish tokenlari, investitsiya darajasidagi tokenlar va boshqa tokenlarni o‘z ichiga oladi [15].

Yevropa Markaziy banki 2019-yilda bergan hisobotida kripto-aktivlarga ta’rif berar ekan, bunday aktiv biron-bir tashkilotning moliyaviy da’vosi yoki javobgarligini anglatmaydi, degan xulosaga keldi.

Yevropa bank boshqarmasi o‘z hisobotida kripto-aktivlar Yevropa Ittifoqida moliyaviy xizmatlarni tartibga solish parametridan tashqarida ekanligini ta’kidlaydi. Bu esa a’zo davlatlarda bunday aktivlar bilan operatsiyalarning huquqiy tartibiga turlicha yondashuvlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday farqlar har bir ishtirokchida teng huquqlarga ega bo‘lgan Yevropa Ittifoqi yagona bozorining ishlashiga to‘sqinlik qilishi mumkin [16].

Yevropa Markaziy banki joriy tartibga solish infratuzilmasi bilan kriptovalyutalarni hisob-kitob tizimiga kiritish mumkin emasligini ta’kidlaydi. Chunki ular qimmatli qog‘oz sifatida tasniflanmagan, banklar va investitsiya kompaniyalari uchun mavjud kapital talablari tizimi kripto-aktivlari uchun moslashtirilmagan. Biroq tegishli bitimlarning kichik taqsimlanishi tufayli moliyaviy barqarorlikka tavakkalchilik hali ham ahamiyatsiz hisoblanadi.

Yevropa qimmatli qog‘ozlar va bozorlar organining tavsiyasida ko‘rsatilishicha,

kripto-aktivlarni huquqiy tartibga solish Yevropa Ittifoqining umumiy yondashuvini talab qilish va kripto-aktivlar ba'zi hollarda moliyaviy vositalar sifatida tasniflashi va ularning aylanishiga tegishli tartib qo'llanishini ko'rsatadi, shu jumladan, ICO qoidalariga nisbatan ham. Biroq Yevropa Ittifoqi huquqiy hujjatlari kripto-aktivlar uchun yaratilmaganligi sababli milliy tartibga soluvchilar bunday aktivlarni talqin qilish va qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Kripto-aktivlarning ayrim turlari moliyaviy vositalar bozorini tartibga solish doirasiga kirmaydi va bu aktivlarga investitsiyalar investorlar uchun katta xavf tug'diradi [17].

Ushbu moliyaviy aktivlar bilan bog'liq munosabatlarni yana bir tartibga solish muammosi kriptovalyutalar bilan amalga oshirilgan moliyaviy amaliyotlarni soliqqa tortish masalasidir. 2015-yilda Hedkvist ishi bo'yicha Yevropa Ittifoqi sudi birja amaliyotiga nisbatan eng mashhur kriptovalyuta bitkoinlarining soliq rejimini ko'rib chiqdi [18]. Mazkur sud ishi mazmunan quyidagilarni, ya'ni Devid Hedkvist o'z firmasi orqali an'anaviy valyutani "Bitkoin" virtual valyutasiga almashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish maqsadida Shvetsiya soliq komissiyasiga tushuntirish berishni so'rab murojaat qilgan hamda qo'shimcha qiymat solig'idan kriptovalyuta amaliyotini ozod qilish haqidagi dastlabki qarorni olgan. Shvetsiya soliq organi mazkur dastlabki qarorni Shvetsiya Oliy ma'muriy sudiga shikoyat arizasi bilan murojaat qilib, shu orqali Yevropa Ittifoqi adliya sudiga umumiy qo'shilgan qiymat solig'i tizimi bo'yicha Yevropa Ittifoqi direktivasini sharhlash uchun dastlabki so'rov yubordi. So'rovni yuborgan sud virtual valyutaning huquqiy tavsifini ochib berishda Yevropa Markaziy banki hisobotiga tayangan holda "uning yurituvchilari tomonidan chiqarilgan, nazorat qiladigan va ma'lum bir virtual hamjamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinsa-da, tartibga solinmagan raqamli valyuta turi" deb tushuntirish berdi.

Virtual valyutalar jahonda qo'llanishi bo'yicha boshqa konvertatsiya qilinadigan valyutalarga o'xshasa-da, biroq ular tegishli Yevropa Ittifoqi direktivasida ko'rsatilganidek, elektron pullardan o'zining amalda mavjud pul nominal qiymati orqali almashtirish (denominatsiya) xususiyatiga ega emasligi bilan farq qiladi. Shu bilan birga, virtual valyuta moddiy obyekt emas, shunga ko'ra u bilan amalga oshiriladigan amaliyot qo'shimcha qiymat solig'i maqsadlari uchun to'lovlarni yetkazib berish tartibiga emas, balki xizmatlarni taqdim etish tartibiga bo'ysunadi.

Shunday qilib, kriptovalyutalarni to'lov uchun fiat pulga almashtirish bilan bog'liq amaliyotlar qo'shimcha qiymat solig'i to'g'risidagi direktivaning maqsadlari uchun xizmatlarni yetkazib berishni tashkil etadi. Biroq bunday xizmatlar qonuniy to'lov vositasi sifatida foydalaniladigan valyuta, banknotlar va tangalar bilan bog'liq amaliyot bo'lib, QQSdan ozod qiladi.

Sud bitkoin amaliyotini depozitlar, joriy hisobvaraqlar, to'lovlar, o'tkazmalar, qarzlar, cheklar, qimmatli qog'ozlar va boshqa muomala hujjatlari bilan amalga oshirilishi mumkinligini inobatga oladi va shu asoslarga ko'ra QQSdan ozod qilishni qat'iyan rad etadi [19].

Sudning mazkur qarori orqali barcha qiymati uchun u pul belgisi – bitkoin bilan birja operatsiyalarini soliqqa tortishning juda tor masalasini hal qiladi. Ko'pchilik moliyaviy amaliyotni soliqqa tortish tartibining asosiy muammolari, soliqqa tortiladigan tovarlar va xizmatlar uchun kriptovalyutada hisob-kitoblar, boshqa turdagi tokenlar, jumladan, mulk va investitsiya tokenlari bilan moliyaviy amaliyotlarni soliqqa tortish masalalari sudning qarorida nazarda tutilmagan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu qaror faqat kripto-aktivlar bilan bog'liq amaliyotlarni soliqqa tortish haqidagi munozarali holatlarni yuzaga keltiradi [20].

Tadqiqot natijalari tahlili

Bugungi kunga kelib, Yevropa Ittifoqida virtual valyutalarning huquqiy tartibi faqat pul yuvishga qarshi kurashish maqsadida o‘rnatiladi. Shunday qilib, FATF tavsiyalariga tayangan holda, 2018-yilning may oyida Yevropa parlamenti va Moliya tizimi tomonidan pul yuvishga qarshi kurash bo‘yicha Kengashning direktivasiga o‘zgartirishlar kiritildi. Bu virtual valyuta va elektron hamyonni saqlash bo‘yicha xizmatlar provayderi hamda uning majburiyatlarini belgilaydi. Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar virtual va fiat valyutalarni almashtirish korxonalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, ularning menejerlari va benefitsiar egalarini aniqlashni ta’minlash haqida kelishib oldi [21].

Bizni mazkur holat Yevropa Ittifoqining ushbu huquqiy hujjati barcha davlatlarning (integratsiya birlashmalarini, agar ular tegishli vakolatlarga ega bo‘lsa) o‘z milliy qonunchiligiga virtual aktivlar bo‘yicha qoidalarni kiritishga majbur qiladigan FATF qoidalari ekanligining ajoyib tasdig‘idir, degan xulosaga olib keladi.

Jinoiy faoliyatdan olinadigan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini o‘zgartirish esa qonun hujjatlarining boshqa sohalarida ham bunday moliyaviy aktivlarni tartibga solish tartibini o‘rnatishga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, xalqaro moliya tashkilotlari o‘z ixtisoslashuviga ko‘ra so‘nggi 5 yil ichida virtual aktivlarini tartibga solishga yondashuvlarini ishlab chiqishga kirishdilar. Birinchi o‘rinda zudlik bilan aralashuvni talab qiluvchi asosiy muammoli nuqtalar, jumladan, jinoiy moliyaviy aktivlarni qonuniylashtirish uchun kritovalyutalardan foydalanish, kripto-aktivlar qiymatining oshib ketishi, moliyaviy piramidalarni qurish imkoniyalari, birja amaliyoti va moliyaviy barqarorlik xavfini aniqlash lozim. Ko‘rinib turibdiki, davlatlar va integratsiya birlashmalari kriptovalyutalarni tartibga solish bo‘yicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqish uchun xalqaro moliya tashkilotlari bilan faol hamkorlik qilmoqda. Bu esa yangi texnologiyalar xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shunday qilib, 2019-yilning oxirida Yevropa Ittifoqida FinTech (moliyaviy texnologiyalar)ni tartibga solish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqan Yevropa komissiyasining ekspert qo‘mitasi Yevropa regulyatori (Yevropa nazorat organlari va Yevropa Markaziy banklar tizimi) standartlar ishlab chiqaruvchi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan [22]. Virtual valyutalar bilan operatsiyalar ko‘rinishida noma’lum hodisaning paydo bo‘lishiga duch kelgan Yevropa integratsiya subyekti tegishli operatsiyalarni huquqiy tartibga solish tizimini ishlab chiqarish maqsadi sari bosqichma-bosqich harakat qilmoqda.

Yaponiya raqamli virtual valyuta bilan bog‘liq munosabatlarni dastlab taqiqlagan bo‘lsa-da, keyinchalik sezilarli darajada boshqacha yondashuvni qo‘llagan. Yaponiyaning mazkur masalada tutgan o‘rni shundan iborat ediki, 2014-yilda mamlakatda Bitkoin birjasi Mt.Gox qulashi natijasida yaqin kelajakda kriptovalyutalarni tartibga solishga harakat qilmaydi, degan fikr vujudga kelgan. Biroq 2016-yilda yapon qonun ijodkorlari “Virtual valyuta ayirboshlash xizmatlarini yetkazib beruvchilarga nisbatan qoidalarni qo‘shish uchun to‘lov xizmatlari to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirish kiritishdi. Mazkur qonun “virtual valyuta ayirboshlash xizmatlarini yetkazib beruvchilar”ni:

– virtual valyutalarni sotib oladigan yoki sotadigan yoki bitta virtual valyutani boshqasiga almashtiradigan;

– virtual valyutalarni sotib olish, sotish yoki almashtirish uchun vositachi, agentlik yoki vakolatli xizmat ko‘rsatuvchi provayder sifatida harakat qilish;

– yuqorida ko‘rsatilgan har qanday faoliyat bilan bog‘liq holda, mijozlarning pullari yoki ularning virtual valyutasini boshqarishda ishtirok etsa, qo‘llanilishi belgilab qo‘yilgan.

Buning keng tabiati nafaqat odatiy onlayn kriptovalyuta birjalari va platformalari, balki birjadan tashqari bozorlarda ishlaydigan jismoniy shaxslar mavjudligi bo‘lgan brokerlar, marketing va savdo platformalarini ham qamrab oladi.

Bundan tashqari, “Jinoiy daromadlarni o‘tkazishning oldini olish to‘g‘risida”gi Qonunga virtual valyuta ayirboshlash xizmatlarini yetkazib beruvchilar huquqlarini tartibga soluvchi o‘zgartirishlar kiritildi.

Biroq 2018-yilning yanvar oyida Yaponiyadagi eng yirik virtual valyuta birjalaridan biri bo‘lgan “Coincheck Inc” o‘z tizimiga hakerlik hujumi natijasida taxminan 530 million dollarlik virtual valyutani yo‘qotganini e’lon qildi [23]. Keyinchalik “Coincheck Inc” o‘z faoliyati Yaponiyaning “Monex Group Inc” internet-brokeri tomonidan sotib olinganidan so‘ng va Yaponiya Moliyaviy xizmatlar agentligidan biznesni yaxshilash buyrug‘ini qabul qilgach, birja boshqaruv tizimiga “qat’iy” islohotlar o‘tkazish talabini qo‘ydi [24]. Bo‘lajak virtual valyuta birjalariga litsenziya berish yoki bermaslik to‘g‘risida qaror qabul qilishda Yaponiya Moliyaviy xizmatlar agentligi biznes-rejalar, hakerliklarga qarshi choralar va boshqa qonunbuzarliklarga qarshi qo‘yilgan himoya vositalari to‘g‘risidagi arizachilarning savollariga javob berishlari kerak.

Xulosalar

Mazkur sohada tadqiqotlar olib borgan olimlarning ta’kidlashicha, markazlashtirilmagan moliyaviy aktiv, ya’ni kriptovalyutani to‘g‘ridan to‘g‘ri markazlashtirilgan tartibga solish yengib bo‘lmaydigan qiyinchilikga duch kelishi mumkin [25]. Xalqaro standartlarni yaratuvchilar va Yevropa Ittifoqi organlari kriptovalyuta operatsiyalariga juda ham ehtiyotkorlik bilan yondashadi. O‘z xususiyatiga ko‘ra, mazkur amaliyot jarayoniga taraflar o‘rtasida ishonchsizlik mavjud bo‘lsa-da, bu holat bitimlarning yetarli darajada taqsimlanmaganligi sababli hozircha salbiy jihatlari sezilmayapti. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, blokcheyn texnologiyasiga asoslangan operatsiyalarning afzalliklari ortiqcha baholanganday ko‘rinishi tabiiy holat bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan uni qo‘llash sohasida shov-shuvli holatlar kamayadi va undan haqiqiy foyda olish aniqroq ko‘rinadi [26].

Zamonaviy mulk munosabatlarining asosiy xususiyati raqamli texnologiyalardan keng foydalanishdir. Ularning ta’siri ostida yangilik sifatida milliy fuqarolik kodeksida raqamli huquqlar fuqarolik huquqini tartibga solishning shakllanish jarayonida bo‘lib, o‘z mazmuniga ko‘ra, moddiy vositada o‘zgarishsiz takrorlashga imkon beradigan elektron va boshqa texnik vositalardan foydalangan holda bitimlar tuzish imkoniyati yaratilmoqda. Hozirgi vaqtda milliy fuqarolik huquqi fani raqamli huquqlarning mazmuni, ularni amalga oshirish, bekor bo‘lish va cheklash usullari, shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan haqiqiy raqamli obyektlar va bunday huquqiy subyektlarning moslashtirilgan subyektlari bilan bog‘liq mulkiy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq yaxlit konseptual yondashuvni ishlab chiqmagan. Raqamli texnologiyalarning barcha imkoniyatlaridan foydalanish uchun raqamli huquqlarni samarali fuqarolik-huquqiy tartibga solish, ularni fuqarolik muomalasiga kiritish zarurati fuqarolik huquqi doirasida raqamli fuqarolik muomalasi va raqamli huquqlarni tartibga solish uchun fuqarolik-huquqiy namunaviy konsepsiyasini ishlab chiqishni belgilaydi.

Olib borilgan tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda kripto-aktivlarni tartibga solishning asosiy tendensiyasi kriptovalyuta amaliyotini tartibga soluvchi organlar nazorati ostiga qo‘yish, ular bilan moliyaviy amaliyotlarni olib borishda anonim shaxslarni ochiqlash (deanonizm), litsenziyalash, hisobot berish, kapital miqdorining yetarli ekanligi va likvidlik standartlarini ishlab chiqqan holda uni bozorning professional ishtirokchilari uchun joriy etish lozim. Maz-

kur qarashlar hanuzgacha o‘zining huquqiy yechimini kutmoqda. Ularning amalga oshirilishi, albatta, tinimsiz ilmiy izlanishlar mahsuli hisoblanadi.

REFERENCES

1. Lifshits I. Cryptocurrencies in the Regulatory Field of International Organizations. Eds. S. Ashmarina, V. Mantulenko. Current Achievements, Challenges and Digital Chances of Knowledge Based Economy. *Lecture Notes in Networks and Systems*, 2021, vol. 133. Springer, Cham.

2. Foley S., Karlsen J.R., Putnins T.J. Bitcoin: How Much Illegal Activity Is Financed Through Cryptocurrencies? *Review of Financial Studies*, 2018, Forthcoming. Available at: https://ssrn.com

3. Katarzyna S. Cryptocurrencies: Opportunities, Risks And Challenges For Anti-Corruption Compliance Systems. Warsaw School Of Economics, p. 12.

4. FATF Report Virtual Currencies Key Definitions and Potential AML/CFT Risks, 2014, p. 4.

5. Kriptovalyuty i blokcheyn kak atributy novoy ekonomiki [Cryptocurrencies and Blockchain as Attributes of the New Economy]. Eurasian Economic Commission, Moscow, 2019, pp. 69–71. Available at: http://www.eurasiancommission.org/ru/nae/news/Pages/22-07-2019-1.aspx

6. Blandin A, et al. Cloud Global Cryptoasset Regulatory Landscape Study, , Cambridge Center for Alternative Finance, University of Cambridge, Judge Bisiness School, 2019. Available at: https://www.jbs.cam.ac.uk/fileadmin/user_upload/research/centres/alternative-finance/downloads/2019-04-ccafglobal-cryptoasset-regulatory-landscape-study.pdf

7. FATF (2012–2019), International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation, FATF, Paris, France, p. 15. Available at:: www.fatf-gafi.org/recommendations.html

8. Communiqué G20 Finance Ministers and Central Bank Governors Meeting Fukuoka, Japan, June 9, 2019. Para. 13. Available at: http://www.g20.utoronto.ca/2019/2019-g20-finance-fukuoka.html

9. Crypto-asset markets. Potential channels for future financial stability implications. Available at: https://www.fsb.org/wp-content/uploads/P101018.pdf

10. Financial Stability Board, Crypto-assets regulators directory, 2019, April 5. Available at: https://www.fsb.org/2019/04/fsb-publishes-directory-of-crypto-assets-regulators

11. International Organization of Securities Commissions, Issues, Risks and Regulatory Considerations Relating to Crypto-Asset Trading Platforms, Consultation Report, CR02/2019, 2019, May. Available at: https://www.iosco.org/library/pubdocs/pdf/IOSCOPD627.pdf

12. Valente P. Bitcoin and Virtual Currencies Are Real: Are the Regulators Still Virtual? INTERTAX, 2018, vol. 46, iss. 6-7, p. 544. Available at: https://www.iosco.org/publications/?subsection=ico-statements

13. EBA Opinion of virtual currencies, EBA/Op/2014/08, 4 July 2014. Available at: https://eba.europa.eu/sites/default/documents

14. European Banking Authority Report, 9 January 2019. Report with advice for the European Commission on cryproassets. P. 4. Available at: https://eba.europa.eu/eba-reports-on-crypto-assets

15. European Central Bank, Crypto-Assets: Implications for financial stability, monetary policy, and payments and market infrastructures, 2019, May, no. 223, p. 3. Available at: https://www.ecb.europa.eu/pub/pdf/scpops/ecb.op223~3ce14e986c.en.pdf

16. ESMA Advice, Initial Coin Offerings and Crypto-Assets, 9 Junuary 2019, ESMA50-157-1391. Available at: https://www.esma.europa.eu

17. Judgment of the Court of 22 October 2015 Skatteverket v David Hedqvist, Case C-264/14, Published in the electronic Reports of Cases, ECLI:EU:C:2015:718.

18. Council Directive 2006/112/EC of 28 November 2006 on the common system of value added tax , OJ L 347, 2006, p. 118.

19. Kollmann J. The VAT Treatment of Cryptocurrencies. *EC Tax Review* 2019, no. 3, p. 170.

20. Directive (EU) 2018/843 of the European Parliament and of the Council of 30 May 2018 amending Directive (EU) 2015/849 on the prevention of the use of the financial system for the purposes of money laundering or terrorist financing, and amending Directives 2009/138/EC and 2013/36/EU, Art. 3 (18) (19). OJ L 156, 2018, pp. 43–74.

21. Expert Group on Regulatory Obstacles to Financial Innovation (ROFIEG), 30 Recommendations On Regulation, Innovation And Finance, Final Report to the European Commission December 2019, p. 23.

22. Reuters, Japan‘s ruling party says won‘t regulate Bitcoin for now, 19 June 2014. Available at: http:// www.reuters.com/article/2014/06/19/japan-bitcoin-id

23. Reuters, The Coincheck cryptocurrency hack: everything you need to know, 29 January 2018. Available at: http://fortune.com/2018/01/29/coincheck-japan-nem-hack

24. Minami T., Sekiguchi K. Japan‘s Coincheck to gain license after $500m hack. *Nikkei Asian Review, 2018,* December 19. Available at: https://asia.nikkei.com/Spotlight/Bitcoin-evolution/Japan-s-Coincheck-to-gain-license-after-500m-hack

25. Nabilou H. How to regulate bitcoin? Decentralized regulation for a decentralized crypto currency. *International Journal of Law and Information Technology*, 2019, p. 290.

26. Tredinnick L. Cryptocurrencies and the blockchain. *Business Information Review*. 2019, vol. 36 (I), p. 43

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./QFXG5673
UDC: 347.77(045)(575.1)

O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI VA XALQARO SHARTNOMALARDA MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH HUQUQLARNI RAQAMLI MUHITDA MUHOFAZA QILISHGA DOIR HUQUQIY NORMALAR

Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Intellektual mulk huquqi kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-2940-8718
e-mail: abdumuminyuldashev@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada XX asrning oxirgi choragidan boshlab mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarining axborot-kommunikatsiya tarmoqlarida huquqiy muhofazasini ta’minlashga doir muammolarning yuzaga kelishi va o‘z navbatida, muallif (huquq ega)lar va foydalanuvchilar o‘rtasidagi tenglik (balans) masalasini doimiy ushlab turish bilan bog‘liq jihatlar xususida so‘z boradi. Ma’lumki, 1996-yilda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan aynan mualliflik va turdosh huquqlar obyektlarining Internet tarmog‘ida huquqiy muhofazasini ta’minlashga doir ikkita muhim hujjat – internet shartnomalari qabul qilingan. Aynan ushbu hujjatlarning qabul qilinishi dunyo mamlakatlarining mualliflik huquqi sohasidagi milliy qonunchiliklariga zarur o‘zgartirishlar kiritishlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, oxirgi 20-30 yillikda sohaga doir boshqa xalqaro va mintaqaviy hujjatlardan ham raqamli muhitda mualliflik va turdosh huquqlar muhofazasini ta’minlashga doir normalar o‘rin egalladi. Ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonning mualliflik huquqiga doir milliy qonunchiligida ham asarlarning Internet va telekommunikatsiya tarmoqlarida huquqiy muhofazasini ta’minlashga doir normalar o‘z aksini topgan. Maqolada aynan ushbu jihatlar hamda mavjud normalarni amaliyotda qo‘llashga doir muammolar haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, xalqaro konvensiya (Bern konvensiyasi, Rim konvensiyasi) va shartnomalar (BIMT internet shartnomalari, TRIPS kelishuvi) normalari hamda doktrinal manbalar asosidagi nazariy-qiyosiy qarashlar o‘rganilgan. “Raqamli muhit”, “raqamli texnologiyalar”, “multimedia”, “kibermuhit” kabi tushunchalar tahlil qilinib ularning mohiyati muhokama etilgan. Yakunda O‘zbekistonda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning raqamli muhitdagi muhofazasini ta’minlash zarurati, huquqiy mexanizmlar, “internet shartnomalar” normalarini amaliyotda qo‘llash masalalari, bunda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o‘rni haqida xulosalar qilingan.*

Kalit so‘zlar*: mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, internet shartnomalar, raqamli muhit, kibermakon, multimedia, telekommunikatsiya tarmog‘i.*

ПРАВОВЫЕ НОРМЫ ОБ ОХРАНЕ АВТОРСКИХ И СМЕЖНЫХ ПРАВ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНЫХ ДОГОВОРАХ

Юлдашов Абдумумин Абдугопирович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
доцент кафедры «Право интеллектуальной собственности»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация*. В статье рассматриваются проблемы начиная с последней четверти XX века, связанные с обеспечением правовой охраны объектов авторского права и смежных прав в*

Yuqoridagi milliy va xorijiy davlatlarning protsessual qonun normalaridan kelib chiqib, fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari tarkibini aniqlash va ularni fuqarolik protsessual qonunchilikda aniq belgilab qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining “Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari” deb nomlangan 6-bobiga alohida quyidagi mazmundagi yangi huquqiy normani kiritish taklif etiladi:

“381-modda. Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilarining tarkibi

Sud, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilaridir”.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 39-moddasiga ko‘ra, taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, ariza beruvchilar va sudda ko‘rilayotgan alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo‘yicha boshqa manfaatdor shaxslar, prokuror, ishda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan davlat boshqaruvi or-

ganlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb tan olinadi.

Sh.Sh. Shoraxmetovning qayd etishicha, fuqarolik protsessual huquqiy munosabat subyektlari orasida ishda ishtirok etuvchi shaxslar muhim o‘rinni egallaydi. Ularning protsessual faoliyati fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning borishi va rivojlanishi, fuqarolik protsessining butunlayicha vujudga kelishi, o‘zgarishi va bekor qilinishiga ta’sir qiladi [4].

Yuridik adabiyotlarda ham ishda ishtirok etuvchi shaxslarning doirasi protsess ishtirokchilari doirasi bilan bir xil emasligi e’tirof etiladi. Masalan, huquqshunos olim M.A. Vikutning fikricha, ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi bilan bir xil emas va fuqarolik protsessi ishtirokchisi sifatida ishda ishtirok etuvchi shaxslar bo‘lmagan boshqa shaxslar ham ishtirok etishi mumkin (masalan, guvoh, ekspert, mutaxassis va boshqalar). Uning fikricha, ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida sudda ko‘rilayotgan ishning yakunidan manfaatdor bo‘lgan shaxslar e’tirof etiladi [9].

N.A. Artebyakinaning fikricha, fuqarolik ishini sud tomonidan ko‘rib chiqish va hal qilishning qonuniyligi ko‘p jihatdan har bir fuqarolik protsessi ishtirokchisining protsessual pozitsiyasini to‘g‘ri aniqlash bilan belgilanadi, chunki bu ularga ma’lum protsessual huquq va majburiyatlar bilan vakolat berilishi hamda hajmini belgilaydi. Shundan fuqarolik protsessi ishtirokchilari guruhiga qarab farqlanadi [10].

Yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, sud protsessi ishtirokchilari ishda ishtirok etuvchi shaxslardan protsessual huquqiy holati, protsessual huquq va majburiyatlari, ish yakunidan moddiy yoki protsessual manfaatdorligi bilan farq qiladi.

Huquqshunos olim L.V. Tumanovaning qayd etishicha, ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini chegaralash muammosini qonuniy manfaatlarning mohiyati va shakllari to‘g‘risidagi masalani hal qilmasdan turib hal qilib bo‘lmaydi [11].

Ushbu fikrga to‘liq qo‘shilgan holda aytish mumkinki, ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasi, tarkibi, chegarasining aniq belgilanmasligi sud amaliyotida turli xil qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki sud jarayonida muayyan ishda ishtirok etuvchi shaxslarni u yoki bu guruhga kiritish uchun aniq mezonlar ishlab chiqilishi lozim. Bizning fikrimizcha, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning doirasi, aniq chegarasini belgilash bo‘yicha mezon sifatida ish yakunidan manfaatdorlik darajasiga qarab ajratib olish muhim hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning o‘zini ham guruhlarga ajratish haqida fikrlar bildiriladi.

Xususan, Sh.Sh. Shoraxmetov, N.M. Kostrova va M.S. Shakaryan o‘z asarlarida fuqarolik protsessining muhim ishtirokchilarini ishning hal etilishidan manfaatdor bo‘lishiga qarab, quyidagi ikki guruhga ajratish lozimligini ta’kidlaydilar:

1) o‘zining subyektiv huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar. Ushbu shaxslarga taraflar va uchinchi shaxslar kiritiladi;

2) protsessda boshqa shaxslarning subyektiv huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar. Mazkur shaxslar qatoriga taraf vakillari, ariza beruvchilar va sudda ko‘rilayotgan alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo‘yicha boshqa manfaatdor shaxslar, prokuror, ishda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar kiritiladi [12].

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar qatorida taraflar asosiy o‘rin egallaydi. FPKning 43-moddasida ko‘rsatilishicha, da’vogar (ariza beruvchi) va javobgar fuqarolik sud ishlarini yuritishning taraflaridir.

Huquqshunos olim M. Mamasiddiqovning fikricha, taraflar tushunchasi va ularning huquqiy maqomini to‘g‘ri belgilash, shuning-

dek, unga aloqador bo‘lgan masalalarni to‘g‘ri hal qilish sudlarning odil sudlovni amalga oshirish bo‘yicha vazifalari muvaffaqiyatli bajarilishiga zamin yaratadi.

Y.A Popovaning fikricha, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni, ayniqsa, taraflarni to‘g‘ri belgilash barcha fuqarolik huquqiy nizo bo‘yicha qonuniylik, adolatlilik kabi protsessual kafolatlarning zaruriy sharti hisoblanadi [13].

Taraflar tushunchasiga turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, huquqshunos olim M. Mamasiddiqovning fikricha, taraflar tushunchasi da’vo tartibida yuritiladigan ishlarda ishtirok etuvchi shaxslarga nisbatan qo‘llanilsa-da, lekin taraflar tushunchasiga nisbatan boshqa yondashuvlar ham borki, unga ko‘ra, taraflar sifatida o‘zining moddiy – huquqiy va protsessual manfaatlarini himoya qilishga kirishgan va sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori ta’sir ko‘rsatadigan moddiy-huquqiy munosabat subyektlari ham e’tirof etiladi. Taraflarning tushunchasini bunday belgilash da’vo tartibida ish yuritish kabi ma’muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar, shuningdek, ayrim hollarda alohida tartibda ko‘riladigan ishlarni ham qamrab oladi. Lekin, nazarimizda, taraflar tushunchasi faqatgina da’vo tartibida yuritiladigan ishlargagina xos hisoblanadi [14].

Yuqoridagi fikrga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki taraflar deganda, faqat da’vo tartibida ko‘riladigan ishlarda ishtirok etadigan taraflarni tushunsak, fuqarolik sud ishlarini yuritishning boshqa turlarida ham taraflar ishtirok etadi. Masalan, buyruq tartibidagi ishlarda sud buyrug‘i nizosiz talablar bo‘yicha sud muhokamasi o‘tkazmasdan chiqarilsa-da, sudga ariza berilayotganda, taraflar undiruvchi va qarzdor deb rasmiylashtiriladi. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 43-moddasida da’vogar (ariza beruvchi) deb FPKning 1-moddasida belgilangan fuqarolik sud ishlarini yuritish turlaridan kelib chiqib, alohida tartibda yuritiladigan ishlar, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlar va chet davlat sudlari hamda chet davlat hakamlik sudlari (arbitrajlari)ning hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog‘liq ishlarda ishtirok etadigan taraflar ham nazarda tutilmoqda.

Bu borada huquqshunos olima Z. Esanova o‘z fikrini bildirgan: “Taraflar atamasi, asosan, da’vo tartibida yuritiladigan ishlar, hakamlik sudining hal qiluv qarori yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlar, shuningdek, fuqarolik sudlariga taalluqli korxonalar, tashkilotlar bilan bog‘liq ish yuritishda qo‘llaniladi. Alohida tartibda ko‘riladigan ishlar bo‘yicha arizachi va manfaatdor shaxs tushunchalari ishlatiladi. Buyruq tartibida ish yuritishda undiruvchi va qarzdor ishtirok etadi. Keng ma’noda taraflar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 39-moddasiga ko‘ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslardir” [15].

Fikrimizcha, fuqarolik sud ishlari yuritish turlaridan kelib chiqib, fuqarolik protsessual qonunchilikda taraflar tushunchasi va turlari aniq ko‘rsatib o‘tilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, sudga murojaat qilishda ham da’vo ariza, arizani to‘g‘ri rasmiylashtirishda fuqaro va tashkilotlarga qulaylik yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 43-moddasiga ko‘ra, da’vogar o‘zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoinki manfaatini ko‘zlab ish qo‘zg‘atilgan shaxsdir.

Mazkur ta’rif da’vogarning fuqarolik protsessidagi ishtirokining ikki shakli mavjudligini ko‘rsatadi: birinchidan, da’vogar deganda o‘zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan shaxs tushunilsa, ikkinchidan, da’vogar deb boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qiluvchi shaxslarning arizasiga

ko‘ra ish qo‘zg‘atilgan shaxs tushuniladi [20]. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, har doim ham sudga da’vo qo‘zg‘atgan shaxs da’vogar bo‘lavermaydi. Chunki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, masalan, prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar tomonidan sudda ish qo‘zg‘atilganda, kimning manfaatida sudga da’vo ariza (ariza) kiritilgan bo‘lsa, o‘sha shaxs da’vogar hisoblanadi.

Taraflarning protsessual huquqiy maqomi ularning protsessual huquq va majburiyatlardan foydalanishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Taraflar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 40-moddasida belgilangan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning umumiy protsessual huquq va majburiyatlari hamda FPKning 44-moddasida belgilangan maxsus protsessual huquq va majburiyatlardan foydalanadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, jumladan, taraflarning ham FPKning 40-moddasiga ko‘ra, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) huquqi mustahkamlangan. Lekin FPKning 24-moddasida sudya va protsessning boshqa ishtirokchilarini rad qilish talabini qabul qilish yoki qilmaslik to‘g‘risidagi ajrim ustidan shikoyat (protest) qilish huquqi ko‘rsatilmagan. Bu esa erkin huquq prinsipi buzilishiga olib kelishi mumkin. Chunki sud amaliyotida ushbu ajrim ustidan shikoyat berilgan taqdirda shikoyatni qabul qilish rad etilib, unga asos sifatida fuqarolik protsessual qonunchilikda mazkur ajrimlar ustidan shikoyat keltirish huquqi ko‘rsatilmaganligi ta’kidlanmoqda. Bu borada xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligini ko‘radigan bo‘lsak, masalan, Qozog‘iston Respublikasi FPKning 41-moddasiga ko‘ra, ushbu ajrim ustidan shikoyat protesti keltirish mumkin emasligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, mazkur normada rad qilish to‘g‘risidagi arzni ko‘rib hal etish tartibi bo‘yicha chiqarilgan ajrimdan norozi tomon o‘z vajlarini apellatsiya shikoyatiga, prokurorning apellatsiya iltimosnomasiga, sud hujjatini kassatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi iltimosnoma yoki kassatsiya protestiga kiritishi mumkinligi ko‘rsatilgan [16]. Bizningcha, ushbu holatlarni bartaraf etish maqsadida FPKning 24-moddasi 5-bandiga quyidagi: “ajrim ustidan xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirish mumkin” mazmunidagi yangi qoida kiritilsa, erkin huquq prinsipi amalda yana bir bor kafolatlangan bo‘lar edi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, FPKning 40-moddasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual majburiyatlari sifatida barcha protsessual huquqlardan insofli ravishda foydalanishi va o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi shartligi ko‘rsatilgan, xolos. Boshqa majburiyatlar ko‘rsatilmagan. Taraflarning protsessual majburiyatlari FPKning turli xil normalarida aks etgan. Bu to‘g‘rida M. Mamasiddiqov va Z. Esanovalar taraflarning majburiyatlariga sud chaqiruviga binoan o‘z vaqtida kelish, protsessual tartib-qoidaga rioya qilish, sud xarajatlarini to‘lash, isbotlash majburiyatini kiritishadi [17]. Fikrimizcha, FPKning 44-moddasida taraflarning majburiyatlari aniq belgilab berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslardan biri uchinchi shaxslar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 48-49-moddalari uchinchi shaxslarga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar ishga kirishishi mumkin. Ular da’vogarning barcha huquqlaridan foydalanadi va uning barcha majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi. Agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar ishga sud muhokamasi boshlanganidan so‘ng kirishgan bo‘lsa, ishni ko‘rish boshidan boshlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 49-moddasiga ko‘ra, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar, agar ish bo‘yicha qabul qilinadigan hal qiluv qarori

ularning taraflardan biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari yoki majburiyatlariga ta’sir etadigan bo‘lsa, sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar da’vogar yoki javobgar tarafida ishga kirishishi mumkin. Ular taraflarning, prokurorning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasi bo‘yicha yoxud sudning tashabbusi bilan ham ishda ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar taraflarning protsessual huquqlaridan foydalanadi va ularning protsessual majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi, bundan arz qilingan talablarning asosi yoki predmetini o‘zgartirish, miqdorini ko‘paytirish yoki kamaytirish, ulardan voz kechish huquqi mustasno.

Agar nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o‘z harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida da’vogarning huquqlari buzilganligi to‘g‘risida arz qilingan talablarni tan olgan taqdirda, sud majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga yuklatish to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qilishga haqli. Xuddi shunday hollarda da’vogar va mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o‘rtasida kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs ishga sud muhokamasi boshlangandan so‘ng kirishgan bo‘lsa, ishni ko‘rish boshidan boshlanadi.

Yuqoridagi protsessual qonun normalarida uchinchi shaxslar tushunchasi, ularning protsessual huquq va majburiyatlari to‘laqonli bayon qilingan degan xulosaga kelib bo‘lmaydi. Ushbu normalarda faqat uchinchi shaxslarning turlari va ularning protsessual huquq va majburiyatlari yoritilgan xolos. Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar huquqiy maqomini belgilash bir tomondan olganda, oddiy va ko‘p jihatdan odatiy hol sifatida qaralsa-da, shu bilan bir vaqtda o‘ziga xos muayyan murakkabliklarga ham ega. Chunki uchinchi shaxslar ishni sudda ko‘rishning majburiy elementi hisoblanmaydi.

Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslarning protsessual huquqiy maqomini takomillashtirish muammosi keng va o‘zida birmuncha muhim yo‘nalishlar, jumladan, fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar tushunchasi va turlari, sud protsessida ishtirok etish xususiyatlari, ularning protsessual huquq va majburiyatlari, birinchi instansiya sudida nizo predmeti bo‘yicha mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning ishga kirishish asoslari va tartibi hamda protsessual huquqiy maqomini aniqlash, mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning sudda ishtirok etish asoslari va tartibi, protsessual huquqiy maqomi, taraf sifatida uchinchi shaxslarning huquqiy maqomi, uchinchi shaxslar huquqlarining kafolatlari kabi masalalarni qamrab oladi.

Shu bois uchinchi shaxslar tushunchasi, ularning protsessual huquqiy maqomini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, fuqarolik protsessida ularning protsessual huquqlari hamda majburiyatlarini tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi.

Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslarning ishtirok etishi ish uchun muayyan ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni to‘g‘ri aniqlash, sud tomonidan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan qarorlar qabul qilinishining oldini olish, shuningdek, fuqarolik protsessi ishtirokchilari hamda sudning vaqtini tejash, ishning to‘g‘ri hal etilishiga yordam beradi. Shu boisdan fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar institutining sud amaliyoti hamda uning vositasida himoya qilinadigan shaxslar uchun muhim ahamiyatga egaligini qayd etish o‘rinlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida uchinchi shaxslar tushunchasining belgilanishi ishni ko‘rishdan manfaatdor shaxslar huquqiy maqomini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi. Bunda, avvalo, ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida uchin-

chi shaxslar huquqiy maqomini o'rganishda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari amalga oshirilishi hamda kafolatlanishi markaziy o'rinda turishi lozim.

Uchinchi shaxslar tushunchasi va turlari to'g'risida ilmiy yuridik adabiyotlarda huquqshunos olimlar o'z fikrlarini bildirib o'tganlar. Masalan, Sh.Shoraxmetovning fikricha, ba'zan shunday hollar ham bo'ladiki, nizoning hal etilishida taraflardan tashqari boshqa shaxslar ham manfaatdor bo'ladilar. Bunday shaxslarning manfaati huquqiy manfaat hisoblanadi, chunki ish yuzasidan chiqarilgan sud qarori ma'lum darajada ularning fuqarolik moddiy huquqiga ta'sir etishi, ishning sudda hal etilishi natijasida ularga nisbatan muayyan huquq yoki majburiyat vujudga keltirishi mumkin. Shu tufayli bu shaxslar o'z huquqlarini himoya qilish maqsadida boshlangan fuqarolik ishiga kirib borishlari (aralashishlari) yoki boshlangan protsessda ishtirok etish uchun sud tomonidan jalb etilishlari mumkin. Shuning uchun ular uchinchi shaxslar deb ataladi.

Huquqshunos olim M.Mamasiddiqovning fikricha, protsessda yana shunday shaxslar ham borki, ular boshqa shaxslar tomonidan boshlangan jarayonga kirib keladi va fuqarolik huquqiy nizolarning hal etilishidan taraflar kabi manfaatdor bo'ladi. Da'vogar va javobgarga nisbatan ushbu shaxslar (hisob bo'yicha) uchinchi shaxslar deb e'tirof etiladi va shuning uchun ham ushbu shaxslar fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar deb nomlanadi.

Z. Esanovaning fikricha, da'vogar va javobgar o'rtasidagi nizoli talab, mulkiy yoki nomulkiy huquqqa nisbatan mustaqil talab yoki mustaqil talab bilan arz qiluvchi shaxslarga uchinchi shaxs(lar) deb aytiladi.

Yuqoridagi huquqshunos olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, uchinchi shaxslar tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Uchinchi shaxslar – bu boshlangan protsessga kirib keladigan yoki jalb etiladigan, ishdan moddiy va protsessual manfaatdor bo'lgan, ish yuzasidan chiqarilgan sud hal qiluv qarori ma'lum darajada ularning fuqarolik moddiy huquqlariga ta'sir etib, ishning sudda hal etilishi natijasida ularga nisbatan muayyan huquq va majburiyatlar vujudga keladigan shaxslardir".

Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida huquqshunos olimlar uchinchi shaxslarning turlari bo'yicha qanday mezonlarga ko'ra ajratilishi haqida o'z fikrlarini bildirib o'tadilar. Masalan, Sh.Shoraxmetovning fikricha, uchinchi shaxs manfaatlarining mazmuni va ish yuzasidan chiqarilgan qaror bilan bog'liq bo'lgan oqibatlarga qarab bunday shaxslar mustaqil talab bilan arz qiluvchi (mustaqil da'vo qiluvchi) uchinchi shaxslar va mustaqil talab bilan arz qilmaydigan (mustaqil da'volari bo'lmagan) uchinchi shaxslarga ajratiladi.

Huquqshunos olim M. Mamasiddiqov ham Sh. Shoraxmetovning fikriga qo'shilgan holda, fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslarni ishning hal etilishidan qanday mazmunda manfaatdor ekanliklari hamda ish yuzasidan chiqariladigan hal qiluv qarori bilan qanday oqibatlar yuzaga kelishiga qarab, quyidagi ikki turga ajratadi: nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar va nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar.

Ushbu olimlarning fikriga qo'shilgan holda, aytish mumkinki, uchinchi shaxslarni nafaqat yuqoridagi mezonlar, balki sud protsessiga kirib kelishi yoki jalb etilishi nuqtayi nazaridan ham turlarga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sh.Sh. Shoraxmetovning fikricha, da'vogar bilan javobgar o'rtasidagi nizoning predmeti o'ziga tegishli bo'lishi to'g'risida arz qiluvchi shaxs mustaqil da'vo qiluvchi uchinchi shaxs deb ataladi.

M.K. Treushnikovning fikricha, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar deganda, boshlangan protsessda da'vogar hamda javob-

garga nisbatan da’vo qo‘zg‘atib kirib kelgan shaxslar tushuniladi [28].

M.S. Shakaryanning fikricha, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar da’vogar va javobgar o‘rtasida yuz bergan protsessda o‘zining nizo predmetiga nisbatan mustaqil huquqini himoya qilib, ishtirok etuvchi shaxs hisoblanadi [18].

Yuqoridagi huquqshunos olimlar tomonidan mustaqil talab bilan arz qiladigan uchinchi shaxslar tushunchasiga berilgan ta’riflar o‘zaro o‘xshash. Chunki ushbu shaxslar boshlangan sud protsessiga ariza berish yo‘li bilan kirib keladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 48-moddasida belgilanishicha, ular da’vogarning barcha huquqlaridan foydalanadi va uning barcha majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi. Shuning uchun ham mustaqil talab bilan arz qiladigan uchinchi shaxslarning protsessual huquqiy maqomi da’vogar bilan bir xil hisoblanadi.

Uchinchi shaxslarning yana bir turi mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslardir. Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar tushunchasi to‘g‘risida ham huquqshunos olimlar o‘z fikrlarini bildirib o‘tishgan. Jumladan, Sh. Shoraxmetovning fikricha, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil da’vosi bo‘lmagan uchinchi shaxs deb, muayyan ish yuzasidan chiqarilgan sud qarori, taraflardan biriga nisbatan bo‘lgan uning huquq va majburiyatlariga ta’sir etishi mumkinligi tufayli boshqa birovlarning ishida ishtirok etuvchi shaxsga aytiladi.

Z. Esanovaning fikricha, mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar deganda nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar, agar ish bo‘yicha chiqariladigan hal qiluv qarori ularning taraflaridan biriga nisbatan bo‘lgan huquq va majburiyatlariga ta’sir etadigan bo‘lsa, sud hal qiluv qarori chiqargunicha qadar da’vogar yoki javobgar tomonidan ishga kirishishlari mumkin. Shuningdek, ular taraflar, prokuror, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasi bo‘yicha yoki sudning tashabbusi bilan ishda ishtirok etishga jalb qilinishlari mumkin.

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib, aytish mumkinki, mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar deganda sudga da’vo arizasi, ariza berish yo‘li bilan kirib kelmaydigan, aksincha, sud tashabbusi yoki taraflar, prokuror, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasi bo‘yicha jalb etiladigan shaxslarni tushunishimiz kerak. Qonun chiqaruvchi bejizga ularni mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar deb ko‘rsatmagan.

Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar sud amaliyotida mehnat, uy-joy, meros, nikoh, oila, aliment undirish, yetkazilgan zararni undirish bilan bog‘liq bo‘lgan nizoli ishlarda uchrab turadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 184-moddasiga ko‘ra, mehnat shartnomasi g‘ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimlar yoki g‘ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o‘tkazilgan xodimlarni ilgarigi ishiga tiklash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud mehnat shartnomasini bekor qilish yoki boshqa ishga o‘tkazishga farmoyish bergan mansabdor shaxsni uchinchi shaxs sifatida javobgar tarafida ishda ishtirok etish uchun o‘z tashabbusi bilan jalb qilishi shart.

Sud mehnat shartnomasining bekor qilinishi yoki boshqa ishga o‘tkazish ochiqdan ochiq qonunni buzgan holda amalga oshirilganligini aniqlasa, shu protsessning o‘zidayoq aybdor mansabdor shaxs zimmasiga majburiy progul yoki kam haq to‘lanadigan ish bajarilgan vaqt uchun haq to‘lash sababli tashkilotga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash majburiyatini yuklaydi. Bunday hollarda mansabdor shaxsdan undiriladigan summalarning miqdori mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 185-moddasiga ko‘ra, er-xotinning mol-mul-

kini bo‘lish haqidagi talabi, agar bu nizoni to‘g‘ri hal etish uchun ishga uchinchi shaxslarni jalb qilish zarur bo‘lsa, nikohni bekor qilish to‘g‘risidagi ish bilan birga ko‘rilishi mumkin emas. Ushbu normadan ko‘rinib turibdiki, nikohdan ajratish va mol-mulkni bo‘lish to‘g‘risidagi nizoni sud tomonidan hal qilishda mol-mulk qismiga nisbatan uchinchi shaxslarning da’vosi (masalan bank, er yoki xotinning ota-onasi yoki boshqa shaxslar) yoki ularning moddiy huquqlari buziladigan bo‘lsa, ushbu ishlarni birga ko‘rish mumkin emasligi belgilangan. Bu esa, o‘z navbatida, nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ishlar shaxsiy munosabatlardan kelib chiqishi hamda uchinchi shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni kafolatlaydi.

Bugungi kunda yuridik adabiyotlarda sudga boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilib, ariza bilan murojaat qilgan prokurorning fuqarolik protsessidagi protsessual huquqiy holati masalasida aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Masalan, huquqshunos olim Ferens-Sorotskiyning fikriga ko‘ra, fuqarolik ishini qo‘zg‘atgan prokuror protsessda tarafning huquqiy holatini egallaydi.

Yuqoridagi masalaga M.S. Shakaryan o‘z qarashlarini quyidagicha aks ettiradi, ya’ni da’vo qo‘zg‘atgan prokuror faqat protsessual ma’nodagina da’vogar sifatida tan olinishi mumkin [19]. Ushbu fikrni to‘g‘ri deb hisoblagan boshqa huquqshunos olimlar ham sudda prokurorni moddiy-manfaatdor shaxs bo‘lmay, balki sud jarayonida ishtirok etayotganda, da’vogarning barcha protsessual huquqlaridan foydalanadi, deb hisoblaydi.

Yuridik adabiyotlarda yuqoridagi fikrlardan tashqari, protsessda prokurorga mustaqil protsessual huquqiy holatni egallashi, eng avvalo, qonuniylikni nazorat qilib borish vazifasi yuklatilganligi ta’kidlanadi. Jumladan, huquqshunos olim M.A. Vikutning fikricha, prokuror hech qachon taraf ham, protsessual ma’nodagi da’vogar ham bo‘lmaydi. Uning fikricha, prokuror protsessda ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan farqli ravishda mustaqil pozitsiyasiga ega bo‘lib, qonuniylikni ta’minlash asosiy vazifasi hisoblanadi [20].

Huquqshunos olim Sh.Sh. Shoraxmetovning fikricha, prokuror ishda qanday shaklda ishtirok etsa ham, u hamma vaqt sud faoliyatini emas, balki sudda qonunning bajarilishi ustidan o‘z vakolatini ta’minlaydi va odil sudlovni amalga oshirishda ko‘maklashuvchi shaxs bo‘lib qolaveradi [19].

Huquqshunos olim E. Egamberdiyevning fikricha, boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun prokuror da’vo taqdim etgan bo‘lsa ham, u ishda taraf hisoblanmaydi. Ishda manfaati himoya qilinayotgan shaxs sudga da’vo taqdim etmagan bo‘lsa ham, o‘sha shaxs taraf hisoblanadi.

Y.V. Sirik ham prokurorning qonun buzilishini bartaraf etish va qonuniylikni ta’minlash vakolatidan kelib chiqib, uning ishning hal etilishidan manfaatdorligi nafaqat protsessual, balki jamoat tusiga ega ekanligini ta’kidlaydi [24].

Protsessualist olim M.M. Mamasiddiqov va M. Karimovlar ham fuqarolik protsessida prokuror zimmasidagi vazifaning xususiyatidan kelib chiqib, fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan mustaqil ravishda harakat qilishi, fuqarolik protsessidagi taraf yoki protsessual ma’noda da’vogar degan nuqtayi nazarni ilgari surgan mualliflarning fikri bilan kelishib bo‘lmasligi, taraflar tushunchasi fuqarolik protsessual huquqi fanida muayyan mazmun va o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta’kidlashadi [23].

Haqiqatan ham, yuqoridagi huquqshunos olimlar E. Egamberdiyev, Sh.Sh. Shoraxmetov, M.A. Vikut, M.M. Mamasiddiqovlarning fikriga qo‘shilish mumkin. Chunki fuqarolik protsessida taraflar ish yakunidan moddiy va protsessual manfaatdor shaxslar bo‘ladi. Shuningdek, prokuror da’vogarning ayrim max-

sus huquqlaridan foydalana olmasligi, ya’ni agar da’vogar rozi bo‘lmasa, prokuror o‘zi arz qilgan talablarning asosi yoki predmetini o‘zgartirish, da’vo talablarining miqdorini ko‘paytirish yoxud kamaytirishga haqli emasligi, o‘z navbatida, protsessual ma’nodagi da’vogar bo‘lmasligini anglatadi.

Fuqarolik protsessida prokuror o‘zining protsessual huquqiy holatiga ko‘ra, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan (taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari) farq qiladi. Fuqarolik protsessida taraflar, uchinchi shaxslarning prokurordan farqi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: birinchidan, ular ish yuzasidan moddiy va protsessual manfaatdor bo‘ladi. Ishda ishtirok etuvchi prokuror esa protsessda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari, jumladan, fuqarolar, davlat, jamoat tashkilotlarining huquqlarini himoya qiladilar; ikkinchidan, taraflar, uchinchi shaxslar sudga da’vo taqdim etganlik uchun agar qonunda davlat boji to‘lashdan ozod qilinmagan bo‘lsa, davlat boji to‘laydi, prokuror esa davlat boji to‘lashdan ozod qilingan; uchinchidan, ular fuqarolik protsessual qonunchilikda ko‘rsatilgan barcha protsessual huquqlardan foydalanadilar, prokuror esa ayrim protsessual huquqlardan foydalana olmaydi (masalan, da’vogarning roziligisiz da’vo predmeti, asosini o‘zgartirish, da’vo miqdorini kamaytirish, ko‘paytirishga haqli emas); to‘rtinchidan, taraflar va uchinchi shaxslarga nisbatan qarshi da’vo qo‘zg‘atilishi mumkin, prokurorga esa qarshi da’vo qo‘zg‘atilishi mumkin emas.

Fuqarolik protsessual qonunchilikda prokuror ishda ishtirok etuvchi shaxslar qatori protsessda ishtirok etib, taraflarning manfaatlarini ko‘zlasa-da, biroq prokurorning huquq doirasi taraflarning protsessdagi huquq doirasiga nisbatan birmuncha tordir. Xususan, prokuror taraflar foydalanishi mumkin bo‘lgan ayrim protsessual huquqlardan foydalana olmasligi (masalan, prokuror kelishuv bitimini tuza olmasligi, prokurorga nisbatan qarshi da’vo qo‘zg‘atilmasligi, davlat boji to‘lamasligi) to‘g‘risida yuridik adabiyotlarda huquqshunos olimlar o‘z fikrlarini bildirib o‘tganlar [24].

E. Egamberdiyevning fikricha, prokuror boshqa shaxslarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida o‘zi sudda da’vo qo‘zg‘atgan bo‘lsa ham, u da’vogar tarafda bo‘lmaydi. Da’vogar taraf prokurorning da’vo arizasi bo‘yicha manfaati sudda himoya qilinadigan shaxs hisoblanadi [23]. Haqiqatan ham, prokurorlarning ushbu protsessual huquqlardan foydalana olmasligi ularning ish bo‘yicha taraf bo‘lib hisoblanmasligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda fuqarolik protsessida prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etishda o‘z zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifani bajaradi va fuqarolik ishini qo‘zg‘atgan shaxs hisoblanadi hamda u ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida o‘zining mustaqil protsessual huquqiy holatini saqlab qoladi hamda prokuror hech qachon fuqarolik protsessida taraf hisoblanmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 50-moddasi birinchi qismida “Agar fuqaro sog‘lig‘ining holati, yoshi yoki boshqa sabablarga ko‘ra sudda o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega” ekanligi belgilangan. Bizning fikrimizcha, mazkur moddaning birinchi qismidagi “yoki boshqa sabablarga” degan jumlani olib tashlash maqsadga muvofiq. Chunki boshqa sabablarga nimalar kirishi qonunchilikda aniq ko‘rsatilmagan. Bu esa prokurorga xohlagan bir asos bilan sudga murojaat qilish huquqini vujudga keltiradi. Qolaversa, mazkur norma sud amali-

yotida yana turli xil muammolarni keltirib chiqaradi.

Vakil. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar orasida vakillar muhim o‘rin egallaydi. Chunki fuqarolar hamda tashkilotlarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilishda, ularga malakali yuridik yordam ko‘rsatishda vakillik o‘ziga xos o‘ringa ega.

Huquqshunos olim M. Mamasiddiqovning fikricha, sudda vakillik qilish institutini fuqarolik huquqidagi vakillikdan, avvalambor, uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib farqlash mumkin. Sudda vakillik qilishning maqsadi – fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqlarini sudda himoya qilishda yordam berish hamda sudga ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni aniqlash va nizoning to‘g‘ri hal qilinishida yordam berish hisoblanadi. Shuning uchun suddagi vakil bilan ishonch bildiruvchi o‘rtasidagi moddiy – huquqiy munosabatlarning mavjudligi protsessual munosabatlarning kelib chiqishi uchun asos bo‘ladi.

K. Olimovaning fikricha esa sudda vakillik mustaqil institut hisoblanib, bir vaqtning o‘zida ikki xil huquqiy munosabat, ya’ni protsessual-huquqiy va moddiy-huquqiy munosabatni tartibga soladi [27].

Ushbu olimlarning fikriga qo‘shilgan holda, aytish mumkinki, sudda vakillik qilish – bu ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida ishonch bildiruvchining buzilgan huquq va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sudda himoya qilish, malakali yuridik yordam ko‘rsatish, sudlar tomonidan odil sudlovning amalga oshirilishiga ko‘maklashishdan iboratdir.

Fuqarolar hamda tashkilotlarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilishda, ularga malakali yuridik yordam ko‘rsatishda shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida advokat ishtiroki muhim o‘rin egallaydi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida “Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuvlik tamoyillarini ro‘yobga chiqarish, ya’ni protsessual qonunchilikda advokat vakolatlari, shu jumladan, dalillarni to‘plash va taqdim etish vakolatlarini kengaytirish, advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish, davlat hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga bepul yuridik yordamni jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma’muriy ishlar bo‘yicha ham ko‘rsatish tizimini joriy etish, advokatura faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish va to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi qonunni ishlab chiqish, advokatning protsessual maqomini kuchaytirish kabi maqsad va vazifalar belgilanishi advokatura sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab beradi”.

Darhaqiqat, ushbu davlat dasturida advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog‘ozbozlikka chek qo‘yish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish, ya’ni oliy yoki hududiy malaka komissiyasi qarori asosida advokatlik litsenziyasini “Litsenziya” axborot tizimi orqali rasmiylashtirish tartibini joriy etish, advokatlar, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari o‘rtasida hujjatlar almashinuvini ta’minlovchi “Yuridik yordam” elektron tizimini yaratish, advokatning protsessda ishtirokini ta’minlashni soddalashtiruvchi “Elektron advokat orderi”ni joriy etish kabi maqsad va vazifalar amalga oshirilishi belgilandi. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolar va tash-

kilotlarning malakali yuridik yordam olish hamda sud jarayonida buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining professional advokatlar yordamida himoya qilinishi va advokatlarning sudda ishtirok etish asoslari soddalashuviga olib keladi.

Hozirgi kunda fuqarolik protsessual qonunchiligida advokat ishtiroki bo'yicha ham bir qator muammolar ko'zga tashlanadi.

Birinchidan, sud protsessida tortishuvchilik tamoyili va taraflarning teng huquqliligi prinsipini amalda ta'minlashda advokatlar ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun tortishuvchilik tamoyilini hayotga to'laqonli kiritish uchun sud protsessiga malakali mutaxassislar, ya'ni advokatlarni jalb qilish lozim. Fuqarolik protsessual kodeksining 67-moddasiga asosan, advokatlar shartnomaviy (ixtiyoriy) vakil sifatida ishtirok etadilar. Lekin protsessning barcha ishtirokchilari ham advokat orqali ishda ishtirok eta olmaydilar. Chunki advokat xizmati pullidir.

Lekin fuqarolik ishlarida advokat ishtirok etishi shart bo'lgan ishlar ro'yxati va qaysi fuqarolik ishlarida bepul advokat xizmatlari ko'rsatilishi to'g'risida fuqarolik protsessual qonunchiligida hech qanday huquqiy norma mavjud emas. Bu borada xorijiy davlatlar tajribasini o'rganadigan bo'lsak, jumladan, Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining 50-moddasida, Ozarbayjon Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 67-moddasida advokat ishtirok etishi shart bo'lgan fuqarolik ishlari mustahkamlab qo'yilgan.

Ushbu masala bo'yicha Germaniya Federativ Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 4-bobi, 78-paragrafida protsessda advokat tarafning vakili sifatida majburiy ishtirok etishi belgilangan. Unga ko'ra, landgerixtax va boshqa yuqori turuvchi instansiya sudlarida taraflar advokat orqali ishtirok etadi, sudda faoliyat olib borish, ishni yurgizish va taraflarni tanishtirish vakolati advokat orqali amalga oshiriladi. Oilaviy ishlarda taraflar va ishda ishtirok shaxslar sudda ishda ishtirok eta oladigan advokatlar orqali tanishtiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga sud jarayonida advokat ishtirok etishi shart bo'lgan ishlar to'g'risida norma kiritish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, shartnoma bo'yicha vakil sifatida advokatlarning soni kamligi ham fuqarolar va tashkilotlarning to'laqonli malakali yuridik yordam olishiga to'sqinlik qilmoqda. Misol uchun, 35 milliondan ortiq O'zbekiston aholisiga faqatgina 4125 mingta advokat xizmat ko'rsatayotganini ijobiy baholab bo'lmaydi. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi advokatlarning 60 foizi 50 yoshdan oshgan shaxslardir. Ular orasida 30 yoshga to'lmagan yoshlar 70 nafarga ham yetmasligini qanday izohlash mumkin?! Bunday achinarli holatga barham berish uchun, avvalo, advokatlar nufuzi va maqomini oshirish, advokatura institutining mustaqilligini ta'minlashimiz shart [28].

Chunki hozir bizda bitta advokatga 8250 kishi to'g'ri kelsa, boshqa davlatlarda, jumladan, AQShda bitta advokatga 256 nafar, Fransiyada 1403 ta, Germaniyada 500 nafar, Qozog'istonda esa 3900 nafar inson to'g'ri keladi [29].

Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda umumiy hisobda 33,905 million aholi istiqomat qilgan holda, mamlakatda Advokatlar palatasi a'zolari hisoblangan 3919 nafar advokat faoliyat yuritmoqda. Ulardan 30 yoshgacha bo'lgan advokatlar soni – 62 nafar, 50 yoshgacha bo'lganlar – 1781 nafar, 50 yoshdan oshganlar esa 2076 nafarni tashkil etadi. Aholining o'rta hisobdagi ko'rsatkichi bitta advokatga 8651 nafar odam to'g'ri kelishini ko'rsatsa, ushbu ko'rsatkich Isroilda bitta advokatga – 136 nafar, Italiyada – 265 nafar, Ispaniyada – 328 nafar, Buyuk Britaniyada – 386 nafar, Germaniyada – 499 nafar, Turkiyada – 794 nafar, Gruziyada – 833 nafar,

Ukrainada – 1205 nafar, Fransiyada – 1020 nafar, Rossiyada – 1870 nafar, Qozog‘istonda esa 3932 nafar odam to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikada jami 1660 ta advokatlik tuzilmalari, shu jumladan, 71 ta advokatlik hay’atlari, 435 ta advokatlik firmalari va 1154 ta advokatlik byurolari faoliyat yuritmoqda.

So‘nggi 12 yildagi advokatlar sonining o‘zgarish dinamikasi aholi umumiy sonining ko‘payishi bilan advokatlar sonining kamayishi tendensiyasidan dalolat bermoqda. Shuningdek, advokatlarning asosiy qismi, 50 foizdan ortig‘i 50 yoshdan katta shaxslardir. Oddiy qilib aytganda, respublikamizda advokatlik kasbi hali-hanuz yetarli darajada jozibador emas [30].

Ushbu ma’lumotlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, amaldagi advokatlar soni O‘zbekiston aholisini malakali yuridik yordam olishni to‘liq qamrab olmaydi. Shuning uchun ham bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish zarurligini hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquqiy maqomining fuqarolik protsessual qonunchilikda to‘g‘ri belgilanishi kelgusida sud jarayonlarida ularning sud orqali to‘laqonli himoyalanish huquqini amalda ta’minlaydi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquqiy maqomi tahlil etilib, quyidagi nazariy xulosa, taklif va tavsiyalar bildiriladi:

1. Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari tushunchasi sud protsessi ishtirokchilari tushunchasiga nisbatan kengroq ekanligi, sud protsessi ishtirokchilari deganda, ko‘proq muayyan sud jarayonida ishtirok etadigan shaxslar doirasi tushunilishi haqida xulosaga kelindi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi, Ma’muriy sud ishlarini yuritish kodeksi hamda xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligi, xususan, Belarus Respublikasi FPK qiyosiy tahlil etilib, fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari tarkibini aniqlash va ularni fuqarolik protsessual qonunchilikda aniq belgilab qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining “Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari” deb nomlangan 6-bobiga alohida quyidagi mazmundagi yangi huquqiy normani kiritish taklif etiladi:

“38^1-modda. Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilarining tarkibi

Sud, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilaridir”.

2. Fuqarolik sud ishlari yuritish turlaridan kelib chiqib, fuqarolik protsessual qonunchilikda taraflar tushunchasi va turlari aniq ko‘rsatib o‘tilishi, bu esa, o‘z navbatida, sudga murojaat qilishda ham da’vo arizasi, arizani to‘g‘ri rasmiylashtirishda fuqaro va tashkilotlarga qulaylik yaratishi haqida xulosaga kelindi.

3. Fuqarolik protsessidagi mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar tushunchasi tahlil etilib, mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi.

4. Fuqarolik protsessida prokurorning protsessual huquqiy maqomi o‘rganib chiqilib, prokuror ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida o‘zining mustaqil protsessual huquqiy holatini saqlab qoladi hamda prokuror hech qachon fuqarolik protsessida taraf hisoblanmasligi to‘g‘risida xulosaga kelindi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 50-moddasi birinchi qismida “Agar fuqaro sog‘lig‘ining holati, yoshi yoki boshqa sabablarga ko‘ra sudda o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega” ekanligi bel-

gilangan. Fikrimizcha, mazkur moddaning birinchi qismidagi “yoki boshqa sabablarga” jumlasini olib tashlash maqsadga muvofiq. Chunki boshqa sabablarga nimalar kirishi qonunchilikda aniq ko‘rsatilmagan, bu esa sud amaliyotida yana turli xil muammolar keltirib chiqaradi.

6. Taraflarning sud protsessida to‘laqonli malakali yuridik yordam olish huquqini kafolatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga sud jarayonida advokat ishtirok etishi shart bo‘lgan ishlar to‘g‘risida norma kiritish haqida taklif ishlab chiqildi.

REFERENCES

1. Egamberdiyev E. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar [Civil procedural legal relations]. Tashkent, Adolat Publ., 2000, p. 64.

2. Mamasiddiqov M.M. Mehnatga oid yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni sudda undirishning nazariy va amaliy muammolari [Theoretical and practical problems of recovery of labor-related material and moral damage in court]. Tashkent, AQHMI, 2008, p. 102.

3. Yakubov S.A. Storony v grazhdanskom protsesse [Parties in civil proceedings]. Tashkent, Konsauditinform-nashr Publ., 2015, p. 6.

4. Shoraxmetov Sh.Sh. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2007, pp. 48–49.

5. Grazhdanskiy protsess [Civil process]. Ed. M.K. Treushnikov. Moscow, Jurisprudence, 2001, p. 37.

6. Alekhina S.A., Blazheev V.V. et al. Grazhdanskoye protsessualnoye pravo [Civil procedural law]. Ed. M.S. Shakarian. Moscow, TK Velbi, 2014, p. 46.

7. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. The team of authors. Tashkent, TSUL Publ., 2020, p. 95.

8. Grazhdanskiy protsessualniy kodeks Respubliki Belarus [Civil Procedural Code of the Republic of Belarus]. Available at: https://kodeksy-by.com/grazhdanskij_protsessualnyj_kodeks_rb.htm

9. Vlasov A.A. Grazhdanskoye protsessualnoye pravo [Civil procedure law]. Moscow, 2004, 70 p.

10. Kommentariy k grazhdanskomu protsessualnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii (postateynyy, nauchno-prakticheskiy) [Commentary on the Civil Procedural Code of the Russian Federation (article by article, scientific and practical)]. Ed. M.A. Vikut. Moscow, 2017, pp. 100–101.

11. Artebyakina N.A. Teoreticheskiye i prakticheskiye problemy instituta lits, uchastvuyushhikh v dele [Theoretical and practical problems of the institute involved in the case]. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2010, p. 3.

12. Tumanova L.V. Litsa, uchastvuyushhiye v dele v tselyakh zashhity publichno-pravovykh interesov [Persons involved in the case in purposes of protecting public law interests]. Tver, 2001, p. 88.

13. Mamasiddiqov M. Fuqarolik protsessi [Civil procedure]. Tashkent, Baktria press Publ., 2014, p. 62.

14. Popova Yu.A. Sudoproizvodstva po delam, voznikayushhim iz publichno-pravovykh otnosheniy (teoriticheskiye problemy) [Proceedings in cases arising from public law relations (theoretical problems)]. Krasnodar, 2002, 90 p.

15. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessi ishtirokchilari tarkibini takomillashtirishning amaliy masalalari [Practical issues of improving the composition of civil process participants]. *Bulletin of Legal Sciences*, 2007, pp. 36–39.

16. Esanova Z.N. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. Yuridik adabiyotlar Publ., 2022, p. 102.

17. Grazhdanskiy protsess [Civil process]. Rep. ed. V.V. Yarkov. Moscow, Volters Kluver Publ., 2004, p. 59.

18. Grazhdanskiy protsessualniy kodeks Respubliki Kazakhstan [Civil Procedural Code of the Republic of Kazakhstan]. Available at: http://www.frmp.kz/cgi-bin/index.cgi/61?pid=83&p=517

19. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar [Comments on the Civil Procedural Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2007, p. 113.

20. Grazhdanskiy protsess [Civil process]. Moscow, Yurlit Publ., 2015, p. 107.

21. Argunov V.N. Uchastiye prokurora v grazhdanskom protsesse [Participation of the prosecutor in civil proceedings]. Moscow, MSU, 1991, 114 p.

22. Vikut M.A., Zaytsev I.M. Grazhdanskiy protsess Rossii [Russian civil process]. 2012, p. 83.

23. Egamberdiyev E. Fuqarolik jarayoni huquqida da'vo muammolari [Litigation issues in civil procedural law]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2007.

24. Sirik Yu.V. Praktika primineniya zakonodatelstva, reguliruyushhego uchastiye prokurora v grazhdanskom protsesse [The practice of applying legislation regulating the participation of the prosecutor in civil proceedings]. *Legal Analytical Journal*, 2004, p. 176.

25. Mamasiddiqov M., Karimov M. Fuqarolik protsessida prokuror ishtiroki [Prosecutor's participation in civil proceedings]. Ed. S.S. Shorakhmetov. Tashkent, AQHMI, 2008, p. 32.

26. Egamberdiyev E.E. Grajdanlik protsessida prokurorning ishtiroki [Prosecutor's participation in civil proceedings]. 1997, pp. 63–64.

27. Olimova K.K. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakilning ishtirok etish muammolari [Problems of representative participation in civil court proceedings]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2011, p. 30.

28. The speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the 27th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan entitled "Constitution and the rule of law are the most important criteria of a legal democratic state and civil society". *Xalq so'zi – Folk Word*, 2019.

29. Xabibullayev D.Yu. Advokatura institutini isloh qilish davr talabi [Reform of the Bar Institute is the need of the time]. *O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi – Bulletin of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan,* 2020, p. 38.

30. Altiyev R. Yangi qonun hujjati advokatura sohasini qanchalik o'zgartiradi? [How much will the new law change the legal profession?]. 2020. Available at: http://hudud24.uz

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./PXMT2783
UDC: 349.6(045)(575.1)

ENERGETIK XAVFSIZLIKNING MILLIY TIZIMDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Xayitov Panji Buxarovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0005-9482-2260
e-mail: pxayitov7@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada energetik xavfsizlikning milliy tizimdagi o‘rni, ahamiyati tushunchasi va tizimi bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish hamda ularni tahlil qilish yuzasidan fikr va mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, energetik xavfsizlikning milliy tizimdagi o‘rni va ahamiyati tushunchasi va tizimi ekologiya huquqi nazariyasini yanada rivojlantirishga oid eng muhim masalalar tahlil qilindi. Energetik xavfsizlikning milliy tizimdagi o‘rni va ahamiyati energetika huquqining manbalarini tartibga solish muammolari, tabiat resurslari tizimida energetika huquqining ahamiyati, undan foydalanish huquqining kelib chiqishi ilmiy tadqiqot doirasida ekologiya huquqi nuqtayi nazaridan o‘rganildi. Energetika sohasida davlat boshqaruvi ma’lum bir shakl va usullarda amalga oshiriladi. Energetik xavfsizlikning milliy tizimdagi o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar, ularni tartibga solishga qaratilgan normalarning mazmuni, amaliyotda qo‘llash mohiyati va muammolari, energetikadan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv tizimi, boshqaruv organlarining vakolatlari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlik masalalari tadqiq etildi.*

Kalit so‘zlar: *energetika, muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslar, barqaror rivojlanish, olib borilayotgan islohotlar, qayta tiklanuvchi energiya, yer osti boyliklari, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari, elektr energiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, yoqilg‘i-energetika resurslari, issiqlik energiyasi, qonun.*

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Хайитов Панжи Бухарович,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. *В данной стате представлены мнения и комментарии по совершенствованию и анализу нормативно-правовых документов, касающихся понятия, места и значения национальной системы энергетической безопасности. Также были проанализированы наиболее важные вопросы, связанные с дальнейшим развитием концепции национальной системы энергетической безопасности и теорией экологического права. С точки зрения экологического права, в рамках научных исследований, государственное управление в сфере энергетики осуществляется в соответствии с определенными формами и методами. Исследованы правоотношения, связанные с местом и значением национальной системы энергетической безопасности, содержание норм, направленных на их регулирование, сущность и проблемы их применения на практике, система управления в сфере использования и охраны энергии,*

полномочия органов управления, а также вопросы ответственности в соответствии с законом.

Ключевые слова: *энергетика, охрана, экологическая безопасность, природные ресурсы, устойчивое развитие, проводимые реформы, возобновляемые источники энергии, подземные ресурсы, тенденции экономического развития, электроэнергетика, охрана окружающей среды, топливно-энергетические ресурсы, теплоэнергетика, право.*

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE ENERGY SECURITY IN THE NATIONAL SYSTEM

Khaitov Panji Bukharovich,
Independent Researcher,
Department of Ecological Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. *This article presents opinions and comments on the improvement and analysis of normative legal documents related to the concept and the role and importance of energy security in the national system. Also, the most important issues related to the further development of the concept of the role and importance of energy security in the national system and the theory of environmental law are analyzed. The role and importance of energy security in the national system, the problems of regulation of sources of energy law, the importance of energy law in the system of natural resources, the origin of the right to use it are studied from the point of view of ecological law within the framework of scientific research. State management in the energy sector is carried out in certain forms and methods. The legal relations related to the role and importance of energy security in the national system, the content of the norms aimed at their regulation, the nature and problems of their application in practice, the management system in the field of energy use and protection, the powers of management bodies, and the issues of responsibility in accordance with the law are also studied.*

Keywords: *energy, protection, environmental security, natural resources, sustainable development, ongoing reforms, renewable energy, underground resources, economic development trends, electric power, environmental protection, fuel and energy resources, heat energy, law.*

Kirish

Globallashuv va integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan XXI asrda nafaqat dunyodagi mintaqa va xalqlar, shu bilan birga, Yangi O‘zbekistonda ham energetik xavfsizlikka bo‘lgan munosabat o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda biosfera barqarorligini asrash eng muhim va dolzarb umumsayyoraviy ekologik muammolardan biridir. Chunki tabiiy resurslardan normasiz foydalanish, antropogen omillarning tabiatga keltirgan salbiy ta’siri va boshqalar ekotizimlarga kuchli ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Natijada juda ko‘p turdagi o‘simlik va hayvonot dunyosining ayrim turlari yo‘qolib ketmoqda.

Inson tabiatsiz yashay olmaydi. U barcha mahsulotlarni tabiatdan oladi. Ta’kidlash kerakki, mamlakat taraqqiyoti ko‘p jihatdan davlatning energiya (tabiiy) resurslari bilan qanchalik ta’minlanganligiga chambarchas bog‘liqdir. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, torf, o‘tin, slanets, suv, elektr va yadro energiyasi, shamol va quyosh energiyasi energetika resurs (manba)lari hisoblanadi [1].

Dunyo aholisining o‘sishi tabiiy resurslar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash, barqaror rivojlanish sharoitida ilm-fan yutuqlari, innovatsion texnologiyalarni joriy etib, normativ-huquqiy bazani shakllantirgan holda taraqqiyotga erishishni talab etadi. Barqaror rivojlanish va ekologiya, zamonaviy iqtisodiy va ko‘p jihatdan siyosiy hayot bizga dunyoning ko‘p qirrali sohalariga energiya ta’sirining yetarlicha “daliliy materiallari”, yorqin misollar-

ini taqdim etmoqda. “Energetika siyosati”, “Energetika xartiyasi”, “Energetika strategiyasi”, “Energiya xavfsizligi”, “Energetika diplomatiyasi”, “Energiya (energiya tejamkor) iqtisodiyot”, “kollayder” iboralari nafaqat kundalik gazeta va taniqli jurnallar sahifalarida, balki mustahkam monografik tadqiqotlar sarlavhalariga ham kiritilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda energiyadan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish, energiya va resurslarni tejovchi yangi texnologiyalarni jadal joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar hamda salmoqli islohotlar amalga oshirilib, ularning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. Umuman, elektr energiyasi va energiyadan foydalanish sohasidagi munosabatlar va uning huquqiy asoslarining yaratilishi yangi bosqichni boshlab berdi. 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar va standartlar ishlab chiqilib, hayotga joriy etilmoqda. Mutlaqo yangi maxsus normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Normativ-huquqiy hujjatlar borasida xorijiy tajribaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, hozirgi kunga qadar dunyodagi 50 ta davlatda “Muqobil energiya manbalari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan va hozirgi kunda muqobil energiyadan foydalanish bo‘yicha munosabatlar huquqiy tartibga solingan [2].

O‘zbekistonda ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashish davlatning ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralib, bu borada strategik vazifalar belgilangan. Bunday vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5863-sonli Farmonida o‘z aksini topgan. O‘z navbatida, ekologik qonunchilik izchillik bilan takomillashtirilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda ekologik muammolarni hal etish borasidagi chora-tadbirlar yildan-yilga yangicha sifat va mazmun kasb etmoqda. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan bir qator umummilliy loyihalar (“Yashil makon”, “Yashil yillik” va h.k.) atrof-muhitni nafaqat muhofaza qilish, balki uning tobora zaiflashib borayotgan tabiiyligini kuchaytirishga qaratilgan. Asosiy maqsad insonlarning hayotini “yashil makon”larda kechishi hamda ular yashash joylarining tabiiy jozibador bo‘lishini ta’minlashdan iborat [3].

Bundan tashqari, mazkur ilmiy tadqiqotning dolzarbligini belgilovchi boshqa holatlar ushbu organlarning shunday faoliyatni samarali amalga oshirishlari uchun huquqiy asoslarning yetarli emasligi yoki mavjudlarining tegishli darajada ijro etilmasligi bilan bog‘liq. Bunday kamchiliklar ekologik faoliyatda energetik xavfsizlik faoliyatini kuchaytirishga turtki bo‘ladigan ilmiy ishlanmalarni shakllantirish va bayon etish asosida bartaraf etilishi bashorat qilinadi. Shulardan kelib chiqib, mazkur ilmiy ishda amaliyotdagi mavjud ehtiyojlarni qanoatlantirishga xizmat qiladigan bir qator masalalar tadqiqot uchun ajratib olinib, ularni to‘liqroq yoritish vazifalari mo‘ljallangan. Ularning ichida ekologik faoliyat borasida energetik xavfsizlik mexanizmlarini kuchaytirish; ushbu organlar “yurisdiksiyasi” (hududi)da joylashgan tabiatdan foydalanuvchilarning ular oldidagi mas’uliyati va hisobotdorligini oshirish; jamoat ta’sirining zamonaviy usullarini shakllantirish; mazkur organlarning ekologik faoliyati bo‘yicha hududdagi mas’ul mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish va boshqa holatlar muhim hisoblanadi [4].

Energetika huquqi manbalari deganda, energiyani ishlab chiqarish, yetkazib berish, sotish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish hamda ekologik xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladigan qonunchilik hujjatlari tushuniladi. Energetika huquqining manbasi sifatida qaralayotgan huquqiy hujjat quyidagi talablarga javob berishi kerak: vakolatli davlat organlari tomonidan

qabul qilinganligi; belgilangan doirada majburiy ahamiyat kasb etishi; energetika va ekologik qoida-talablarni belgilashi; rasmiy shakl, tuzilish, amal qilish muddatlari va boshqa belgilar ega bo‘lishi kerak. “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunda belgilanganidek, “qonunda belgilangan shaklda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi” [5].

Material va metodlar

Maqolada umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Energetikaga oid munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy qoidalar, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining farmon va qarorlari, maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat hokimiyat organlarining me’yoriy hujjatlari yig‘indisi qonunchilik hujjatlari tizimini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida respublikada energetikaga oid munosabatlarni tartibga soladigan bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi.

Energetika huquqining manbalari keng qamrovli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi uchun ham ularni quyidagicha tasniflash mumkin: 1) yuridik kuchi bo‘yicha: konstitutsiyaviy normalar, qonunlar va qonunosti me’yoriy hujjatlar; 2) tartibga solish yo‘nalishlari bo‘yicha: energetika sohasida boshqaruv, energiyadan oqilona foydalanish qonunchiligi; energetik xavfsizlikni ta’minlash qonunchiligi; 3) tartibga solish predmeti bo‘yicha: umumiy va maxsus energetika qonunchilik hujjatlari; 4) tartibga solish holati bo‘yicha: moddiy va protsessual ahamiyatidagi qonunchilik hujjatlari; 5) qo‘llanilish doirasi bo‘yicha: hududiy-mintaqaviy; respublika miqyosida; xalqaro miqyosdagi manbalar va hokazo [6].

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng energetika sohasida quyidagi qonunlar qabul qilindi: O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”, “Chiqindilar to‘g‘risida”, “Elektr energetikasi to‘g‘risida”, “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”, “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”, “Standartlashtirish to‘g‘risida”, “Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”, “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqalar [7].

Ushbu qonunlarda ekologik muhitni muhofaza qilish, energiyadan oqilona foydalanish va energetik xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarning maqsadi, vazifasi, obyekt va subyektlari, tabiiy resurslarning huquqiy holati, mazkur sohada yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va majburiyatlari, erkinliklari, kafolatlari va vakolatlari, qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik chora-tadbirlari belgilangan.

Energiyadan oqilona foydalanishni ta’minlashda turli huquq sohalarining normalari ham yordamga keladi: O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Fuqarolik, Soliq, Mehnat, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslari va boshqalar. Qonunosti me’yoriy hujjatlarimizning asosiy maqsadi va vazifasi konstitutsiyaviy tamoyillar, qonunlarda belgilangan maxsus qoida-talablarning amalda qo‘llanilishini osonlashtirish, ma’muriy hududlarning tabiiy holati asosida me’yoriy qoida-talablarni belgilash, ularning hayo-

tiyligini ta’minlash va asosiy qoida talablarini barcha yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazishdan iborat [8].

Energetika huquqining qonunosti me’yoriy hujjatlari ham murakkab tizimga ega bo‘lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi mumkin: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari; maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlarining me’yoriy hujjatlari (qaror, nizom, yo‘riqnoma, normativ va standartlar); mahalliy davlat hokimiyat organlarining me’yoriy hujjatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari amaldagi qonun hujjatlari asosida qabul qilinib, energiyadan oqilona foydalanish, energetik xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq qoida-talablarni belgilaydi va begilangan doirada umummajburiy ahamiyat kasb etadi. Energetika sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi organlari o‘z vakolatlari doirasida me’yoriy hujjatlarni qabul qilib, qoida-talablarni belgilaydi.

Energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida “2020–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiya bilan ta’minlash konsepsiyasi” ishlab chiqilgan.

Ilg‘or xalqaro tajriba va jahon elektr energetikasi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasida o‘sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish va elektr energetika tarmog‘ining yanada mutanosib rivojlanishini ta’minlash alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakatning elektr energetika tarmog‘ini o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish maqsadlari va yo‘nalishlari, ko‘rsatmalari hamda elektr energetika tarmog‘ida davlat siyosatini amaliy ro‘yobga chiqarishning ma’lum bosqichlarida uning samaradorligini ta’minlash mexanizmlari va maqsadlariga erishishni kafolatlaydi.

Energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosati haqida so‘z ketganda, ta’kidlash lozimki, har bir davlat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun o‘ziga xos va o‘ziga mos islohotlarni amalga oshiradi. Bu o‘rinda mamlakatimizda elektr energetikasi sohasida olib borilayotgan islohotlar jamiyat hayotida dolzarb ahamiyatga ega. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi energetikasini isloh qilishning asosiy maqsadlari iqtisodiyotning barqaror faoliyati va rivojlanishini ta’minlash, elektr energiyasini hosil qilish va uning tejamkorligini oshirish, iste’molchilarga sifatli va uzluksiz elektr energiyasi yetkazib berishdir. Elektr energetika tizimining barqaror rivojlanishiga erishish, aholini elektr va issiqlik energiyasi bilan ta’minlash davlat organlarining muhim vazifalaridandir. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi iqtisodiy va huquqiy o‘sishda o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Albatta, soha rivoji uchun davlat tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishi, shu jumladan, bu boradagi islohotlarning huquqiy asosini yaratishi lozim. Boshqacha aytganda, davlat tomonidan nafaqat elektr energiyasi bilan ta’minlovchilar, balki uni iste’mol qiluvchilarning huquq va manfaatlarini ham himoya qilishga qaratilgan huquqiy normalar tizimini qabul qilish dolzarbdir [9].

Energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ta’kidlab o‘tish lozim. Jumladan: 1) atrof-muhitni muhofaza qilish; 2) chora-tadbirlarni amalga oshirish; 3) davlat dasturlarini amalga oshirish; 4) ishlab chiqarishni kengaytirishni rag‘batlantirish; 5) qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish; 6) xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, energetika sohasidagi qonunchilikda bir qancha

yo‘nalishlarda davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilangan. Chunonchi, elektr energetikasi, qayta tiklanuvchi energiya, atom energiyasidan foydalanish sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari kabi.

O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 30-sentyabrdagi “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi Qonuni (4-moddasi)ga ko‘ra, elektr energetikasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: O‘zbekiston Respublikasining elektr energetika xavfsizligini ta’minlash; yagona elektr energetikasi tizimining xavfsiz va ishonchli ishlab turishini ta’minlash; iste’molchilarning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish; iste’molchilarning hududiy elektr tarmoqlaridan teng foydalanishini ta’minlash; energiya hosil qiluvchi quvvatlar va elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, rivojlantirish jarayonlariga investitsiyalar jalb qilish; elektr energiyasini hosil qilish, uzatish va sotish bo‘yicha boshqaruv hamda xo‘jalik aloqalari tizimiga bozor prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish; elektr energetikasining mutanosib rivojlanishini ta’minlash; elektr energiyasi va yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni (4-moddasi)ga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash va chora-tadbirlarni amalga oshirish; qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish; mamlakatning energetika xavfsizligini mustahkamlash; yoqilg‘i energetika balansining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda, elektr, issiqlik energiyasi va biogaz ishlab chiqarishga doir qismini diversifikatsiyalash; qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasiga innovatsion texnologiyalar, ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni joriy etish; qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining energiya jihatdan samaradorligini oshirish, ularning ishlab chiqarilishini kengaytirish va mahalliylashtirishni rag‘batlantirish; qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning sinab ko‘rilgan texnologiyalari asosida energiya ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga tadbirkorlik subyektlarini jalb etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish; qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish; qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Energetika sohasida davlat boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, energetika manbalaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va ma’muriy boshqaruv bilan bir qatorda boshqaruvning boshqa tizimlari ham amal qiladi;

ikkinchidan, energetika manbalaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi bir organ qo‘lida mujassamlashgan (Energetika vazirligi);

uchinchidan, energetika manbalaridan foydalanishda davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi Energetika vazirligi qayta tiklanuvchi energiya manbalari va yadroviy energetika sohasida vakolatli organ hisoblanadi. Energiya turlari, issiqlik energiyasi manbalaridan foydalanishni alohida organ amalga oshiradi [10].

Energetika manbalaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi organlarining ijroiya etish va farmoyish berish faoliyati energetika to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini ta’minlashga qaratilgan. Energetika sohasida davlat boshqaruvi ma’lum bir shakl

va usullarda amalga oshiriladi. Huquq ijod qilish, ijro etish va huquqni muhofaza qilish faoliyati ushbu boshqaruvning shakllari hisoblanadi. Energetika sohasida davlat boshqaruvi shakli sifatida huquq ijod qilish – bu atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, energiya resurslaridan foydalanish va energetik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquq normalari orqali tartibga solishga qaratilgan faoliyatdir.

Huquqni ijod qilishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qo'mitalari o'z tashabbusi bilan yoki Qonunchilik palatasining topshirig'iga binoan, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda o'z vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan Qonunchilik palatasi boshqa qarorlarining loyihalarini ishlab chiqadi; qonun loyihalarining dastlabki tarzda ko'rib chiqilishi va ularni Qonunchilik palatasida ko'rib chiqishga tayyorlashni amalga oshiradi; qonunlar loyihalari yuzasidan xulosalar beradi; qonun loyihasini Qonunchilik palatasining majlisi kun tartibiga kiritish, uning ustida ishlashni davom ettirish yoki asoslantirilgan holda uni rad etish to'g'risida Kengashga takliflar kiritadi; xulosalar va takliflar beradi; kiritilgan qonun loyihalarini ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhlari tuzadi; ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, xo'jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlarini jalb etadi; qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari vakillarining ular tomonidan kiritilgan qonun loyihasiga taalluqli masalalar yuzasidan fikrlarini eshitadi; kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek, Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa qonun hujjatlari hamda qo'mitalar qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayotgani haqidagi axborotlarini eshitadi.

Shu bilan birga, xavfsizlik turg'unlik bilan bog'liq bo'lmasligi kerak. Xavfsizlik tashqi omillardan himoyalanishni anglatadi, ammo, shu bilan birga, ichki tuzilmalarning saqlanishiga olib kelishi shart emas. Aksincha, xavfsizlik ko'pincha iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari, atrof-muhitni muhofaza qilish va hokazolarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan.

Shu nuqtayi nazardan, energiya xavfsizligining zarur elementi uning barqaror rivojlanishi ekanligini tasavvur qilish mumkin. Barqaror rivojlanish mexanizmlarini izchil tatbiq etish energiya jihatidan xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim kafolatidir: milliy jihatdan ham, global miqyosda ham. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi o'z mohiyatida mavjud global paradigma doirasida jamiyatning xavfsiz rivojlanishini anglatadi.

Dastlab "energiya xavfsizligi" atamasi mamlakatning o'zini o'zi ta'minlashi bilan izohlandi. Biroq keyinchalik ular "energiya mustaqilligi" va "energiya xavfsizligi" tushunchalarini ajrata boshladilar.

Bugungi kunda energiya xavfsizligining asosiy ekologik va huquqiy muammolari mavjud. Jumladan:

– o'rganilayotgan yoqilg'i zaxiralarining ishlab chiqarish hajmidan ortishi va mineral-xomashyo bazasini takror ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyojining oshishi natijasida yuzaga keladigan tabiiy resurslarning kamayishi muammosi;

– yoqilg'i-energetika kompleksi obyektlarining sanoat, kimyoviy va yadro xavfsizligi talablarini ta'minlash, energiya manbalarini tashish vositalari va usullari va bunday obyektlarda avariya oqibatlarini himoya qilish va oldini olish;

– neft va neft mahsulotlari to'kilishining oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish, shu jumladan, transchegaraviy jihatdan, shuningdek, xalqaro faoliyatni muvofiqlashtirish va yetkazilgan zararni qoplash muammosi;

– yadro chiqindilari va radioaktiv materiallarni atrofdan ajratilishini kafolatlay-

digan sharoitlarda ko‘mish va uzoq muddatli saqlash muammosi;

– tog‘ jinslari chiqindilari va boshqa foydali qazilmalarni qayta ishlash hamda qayta ishlash chiqindilarini yo‘q qilish muammosi;

– ifloslantiruvchi moddalarning havoga chiqarilishini kamaytirish zarurati muammosi;

– global iqlim o‘zgarishiga energiyaning ta’siri muammosi;

– energiya resurslaridan oqilona foydalanish muammosi, energiya samaradorligini oshirish va energiyani tejash;

– qazib chiqarishning mantiqsiz usullari, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari, iqtisodiy faoliyatni saqlab qolish tartibini buzish, shuningdek, energiya foydali qazilmalari va ularni qayta ishlash mahsulotlarini tashish paytida avariyalar natijasida kelib chiqadigan atrof-muhitning buzilishi muammosi;

– atom energetikasi obyektlarining radiatsion xavfsizligini ta’minlash muammosi;

– yoqilg‘i-energetika inshootlarini qurish paytida atrof-muhitga ta’sir qilish muammosi va uning o‘zgarishi (masalan, gidroelektr stansiyalarini qurish paytida ulkan hududlarni suv bosishi zarurligi, natijada tabiiy o‘rmon va yer resurslarini yo‘qotish kabi daryolarning tabiiy rejimi o‘zgarishi va hayvonot dunyosining suv va suvga yaqin obyektlardagi yashash joyi).

Energiya xavfsizligini ta’minlashni tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun sharoit yaratmasdan (eng avvalo, qonuniy) tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, tabiatning resurs zichligi ekologik va energetik xavfsizlikning muhim tarkibiy qismidir [11].

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi 1992-yilda Rio-de-Janeyroda (Braziliya) o‘tkazilgan BMTning Atrof-muhit va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasida batafsil ishlab chiqilgan bo‘lib, unda barqaror rivojlanish jamiyatning strategik prinsipi deb e’lon qilinib, ular 21-kun tartibi bilan tasdiqlangan. Mazkur “kun tartibi” rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tarkibiy qismlarini birlashtirish bo‘yicha kelishilgan harakatlarni amalga oshirishni nazarda tutadi [13]. Ushbu tezis, shuningdek, “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy tamoyillaridan biri sifatida o‘z ifodasini topgan.

Barqaror rivojlanish atrof-muhit va taraqqiyot masalalari birlashtirilgan, o‘zaro bog‘liq holda hal qilish kerakligini aniq tushunishni anglatadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining uchta tarkibiy qismi mavjud: atrof-muhit farovonligi, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy muammolarni hal qilish. Ekologik jihat tabiiy tizimlarning yaxlitligi, ularning o‘zini davolash va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Barqaror rivojlanishni tushunishda ekotizim yondashuvi barcha tirik organizmlar, shu jumladan, insonlar faoliyati o‘rtasidagi ajralmas aloqaga asoslanadi. Ushbu nazariyaning asosi ekologik muammolarga tegishli e’tibor bermasdan insoniyatni yanada rivojlantirish (va hatto uning tirik qolishi) mumkin emasligini anglashdir.

E.F. Nurmuhamedovning fikricha, barqaror rivojlanish xalqaro huquq va tartib ta’minlangan taqdirdagina mumkin. Hozirgi va kelajak avlodlar hayoti uchun qulay muhit barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biridir [14].

Bizningcha esa barqaror rivojlanish O‘zbekistonda energiya xavfsizligini ta’minlashning muhim elementlaridan biridir. Ushbu konsepsiyaga rioya qilish uning iqtisodiyoti, shu jumladan, yoqilg‘i-energetika kompleksini rivojlantirishda fuqarolar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishdan iboratdir.

Konchilik huquqi sohasida taniqli mutaxassis A.I. Perchik mustaqil muammo sifatida mamlakatning xomashyo xavfsizligi bilan bog‘liq masalalarni faol ravishda ko‘tarib chiqdi. Qayta tiklanmaydigan energiya manbalaridan foydalanish ko‘lami va imkoniyatlari obyektiv ravishda cheklanganligi sababli ulardan oqilona foydalanish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda [15].

Xomashyo xavfsizligi – bu xomashyo bazasining holati sifatida belgilanishi mumkin. Bunda milliy iqtisodiyot ehtiyojlari va mamlakatlarning iqtisodiy mustaqilligi talablari, hajmlari va qazib olinishi davlat iqtisodiyotining normal izchil rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan butun minerallar majmuasi zaxiralarining o‘sish sur’atlaridir [16].

Dastlab “Energiya xavfsizligi” atamasi mamlakatning o‘zini o‘zi ta’minlashi bilan izohlandi. Biroq keyinchalik ular “energiya mustaqilligi” va “energiya xavfsizligi” tushunchalarini ajrata boshladilar [8]. Agar davlat energiya manbalarini chet eldan barqaror narxlarda sotib olsa hamda ishonchli uzoq muddatli shartnomalar va mustaqil yetkazib beruvchilar sonining ko‘payishi orqali sotib olish barqarorligini ta’minlasa, ham qaram, ham zaif bo‘lmasligi mumkin. Agar mamlakat o‘zi eskirgan texnologiyalardan foydalangan holda, energiya manbalarini ishlab chiqaradigan bo‘lsa va energiya qimmat bo‘lsa, demak, mamlakat tashqi yetkazib beruvchilarga bog‘liq emasligiga qaramay, zaifdir.

Energiya xavfsizligi, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy xavfsizlik va boshqa milliy xavfsizlikning elementlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Qishloq xo‘jaligi iste’molchilarini kerakli vaqtda va sifatli raqobatbardosh narxda kerakli energiya bilan ta’minlamaslik rejalashtirilgan hosilning uzilishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida, oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soladi.

Xulosalar

Demak, energiya xavfsizligi O‘zbekiston ekologik xavfsizligining mustaqil elementidir. Energiya xavfsizligi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik, sanoat va xomashyo xavfsizligi bilan ham chambarchas bog‘liq. Yoqilg‘i-energetika kompleksining infratuzilmasi tabiiy va texnogen faktorlarning asosiy manbayi hisoblanadi. Ekologik muammolar ta’sirini hisobga olmasdan turib, milliy energiya xavfsizligini ta’minlaydigan tizimni yaratish mumkin emas.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, respublikamizning barqaror rivojlanishi yangi energiya texnologiyalari va energetika huquqining rivojlanishi, tadqiq etilishi, innovatsion texnologiyalar, uning huquqiy asoslarini ishlab chiqish va joriy qilish ishlarini yuqori darajaga ko‘tardi. Energiya bilan barqaror ta’minlash, undan foydalanish va ushbu yo‘nalishlarga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

REFERENCES

1. Narzullaev O. Energy law. Tashkent, TSUL Publ., 2021, pp. 1-200.
2. Abulkasimov Kh.P. Economic security of the state. Academy of State and Society Building under the President of the Republic of Uzbekistan, Science and Technology Development Coordination Committee under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Academy, 2012, pp. 1–15.
3. Ergashev A. et al. Fundamentals of sustainable development and natural science: a textbook for all educational areas of higher educational institutions. Tashkent, Baktria press Publ., 2016, 296 p.
4. Economics and Innovative Technologies. Available at: http://iqtisodiyot.tsue.uz
5. Shepansky I.S. Ecological and legal problems of ensuring the energy security of Russia. PhD thesis. Moscow, 2013, p. 25.
6. Brinchuk M.M. Ensuring environmental safety as a legal category. *State and Law*, 2008, no. 9.
7. Sustainable development. Report on the development of the UN and regional environment. Rio de Janeiro, 1992, June 3-14. New York, 1993, vol. 1.

9. Nurmukhamedova E.F. International ecological law and human rights. Moscow, 2004, p. 96.

10. Petrov V.V. Ecological Code of Russia (to the adoption by the Verkhnovny Council of the Russian Federation of the Law "On the protection of the surrounding environment"). *Moscow University Bulletin, Series 11. Law*, 1992, no. 3, p. 6.

11. Perchik A.I. Theoretical aspects of the formation of power security as a basic component of energy security. *Energy Law*, 2006, no. 2.

12. Perchik A.I. Legal support of cybersecurity (Academic readings). Moscow, Russian State University of Oil and Gas (NRU) named after I.M. Gubkin Publ., 2003, iss. 26.

13. Ivanova A.B. The problems of European security. *Mir i politika – Peace and politics*, 2008, June,vol. 6 (21), p. 9.

14. Reimers N.F. Ecology. Theory, law, rule, principle and hypothesis. Moscow, 1994.

15. Narzullaev O. Socio-Economic Importance of Biological Resources and its Role in the Field of Law. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, vol. 3 (03), pp, 16–24. Available at: https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume03Issue03-03

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./WGNQ4075
UDC: 343.988(045)(575.1)

ZO‘RAVONLIK VA TAZYIQQA UCHRAGAN AYOLLAR VIKTIMLIGI PROFILAKTIKASI HAMDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Niyozova Salomat Saparovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrasi
professori, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-3970-2985
e-mail: salomat.niyozova@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligi profilaktikasi hamda xorijiy davlatlar tajribasiga doir masalalar bayon etilgan. Shuningdek, zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollarning viktim xulq-atvori natijasida nomusga tajovuz qilganlar bir necha guruhga ajratib o‘rganilgan. Jumladan: 1) jabrlanuvchilarning mast holda bo‘lganligi; 2) pala-partish tanishuv, yengiltak, ba’zan erkak bilan muloqotda chechan bo‘lgan ayollar va h.k. Maqolada xorijiy davlatlar tahlili natijasida mazkur davlatlarda ayollarga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonliklar aksariyat holatlarda ularning ruhiy jarohat olishiga (nochorlikni his qilishi, tushkunlik va o‘zini o‘zi o‘ldirish holatlarini yuzaga keltirishi, turli darajadagi jarohatlar olishi, turli yuqumli kasalliklarga chalinishi) sabab bo‘lishi kabi fikrlar ham tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligining umumiy, maxsus hamda yakka tartibdagi oldini olish choralari ham o‘rganilib, mazkur masala yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan. Jumladan, zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligining yakka tartibdagi profilaktikasiga doir choralarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari orqali berilgan axborotni idrok etish va o‘zlashtirish osonroq hamda qulayroq ekanligini hisobga olish lozimligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *zo‘ravonlik, tazyiq, ayollar, viktimlik, oldini olish, profilaktika, jabrlanuvchi, jinoyat, jazo, viktim xulq.*

ПРОФИЛАКТИКА ВИКТИМИЗАЦИИ ЖЕНЩИН КАК ЖЕРТВ НАСИЛИЯ И ПРИТЕСНЕНИЯ И ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Ниёзова Саломат Сапаровна,
доктор юридических наук, профессор
кафедры «Уголовное право, криминология
и противодействие коррупции»
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. *В данной статье рассмотрены вопросы, связанные с профилактикой виктимизации женщин в жертв насилия и притеснения и опыт зарубежных стран. Также былои разделено на несколько групп и изучено поведение женщин, в результате виктимного поведения подвергшихся насилию и домогательству, нарушившими их честь. В*

их числе: 1) состояние алкогольного опьянения потерпевших; 2) небрежность в знакомствах, легкомысленность, иногда болтливость в общении с мужчинами и т. д. В статье в результате анализа опыта зарубежных стран выявлено, что в этих странах насилие, совершаемое в отношении женщин, в большинстве случаев приводит к их психологической травме (чувству беспомощности, вызыванию депрессии и суицида, получению травм различной степени, заражению различными инфекционными заболеваниями). Также анализируются аспекты причин преступлений. Кроме того, в статье рассматриваются общие, специальные и индивидуальные меры по предотвращению виктимизации женщин, ставших жертвами насилия и домогательств, а также предложения и рекомендации по данному вопросу. В частности, при разработке и реализации мер индивидуальной профилактики виктимизации женщин, являющихся жертвами насилия и притеснения, обоснована необходимость учитывать тот факт, что легче и удобнее понимать и усваивать информацию, подаваемую через средства массовой информации.

Ключевые слова: *насилие, притеснение, женщины, виктимность, профилактика, предупреждение, потерпевшая, преступление, наказание, виктимное поведение.*

PREVENTION OF VICTIMS AND HARASSMENT OF WOMEN AND FOREIGN EXPERIENCE

Niyozova Salomat Saparovna,
Acting Professor,
Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Law

Abstract. *This article describes the prevention of victims of violence and harassment of women and the experience of foreign countries. Also, in the article, women who have been subjected to violence and harassment are studied by dividing into several groups of those who have violated their honor as a result of victim behavior. Including: 1) crime victims were drunk; 2) flirtatious dating, like women who are hare-brained, eloquent in communication with a man. In the article, as a result of the analysis of foreign countries it was analysed that the violence committed against women in these countries in most cases causes them to suffer mental injuries (feeling helplessness, causing depression and suicide, receiving various degrees of injuries, various infectious diseases). In addition, the article analyzes the general, special, and individual measures to prevent the victimization of women who are victims of violence and harassment, and offers recommendations on this issue. In particular, it is justified that it is easier and more convenient to perceive and assimilate the information given through the mass media in the development and implementation of measures for the individual prevention of the victimization of women who are victims of violence and harassment.*

Keywords: *violence, harassment, women, victimization, prevention, victim, crime, punishment, victim behavior.*

Kirish

Ma’lumki, dunyoda jinoyatchilikka qarshi kurashish, ayniqsa, ayollarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonliklar, zo‘ravon shaxsining xususiyatlari, zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, mazkur jinoyatlarning kriminologik, viktimologik tavsifi, aholi viktimligi darajasini aniqlash, shaxsni zo‘ravonlikdan himoya qilishning samarali choralarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Demak, shulardan kelib chiqib, zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligi-

ning oldini olish hamda uning salbiy oqibatlarini tahlil qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o‘rnini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlar tizimida oiladagi zo‘ravonlik holatlariga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan va qilinishi kerak bo‘lgan masalalar ancha ekanligini e’tirof etish zarur.

Darhaqiqat, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini kafolatlaydigan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi buning yorqin misolidir. Jumladan, yurtboshimiz tomonidan 2018-yil 2-fevralda imzolangan “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon, 2021-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror va O‘zbekiston Respublikasining 2014-yildagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi, 2019-yildagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni ayollarga nisbatan ishlatiladigan zo‘ravonlik va tazyiqning oldini olishga qaratilgan muhim huquqiy asos hisoblanadi.

Bundan tashqari, jabrlangan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish, ularga psixologik, ijtimoiy, huquqiy va moddiy ko‘mak ko‘rsatish, shu holatdan chiqishi uchun kasb-hunar o‘rgatish, mehnatga jalb qilish maqsadida barcha hududlarda Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Xotin-qizlarni himoya qilishda ichki ishlar organlari ayollar masalalari bo‘yicha inspektorlari lavozimi joriy etildi. Shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan huquqbuzarliklarning oldini olishda ularning muammolari haqida o‘z vaqtida xabar topish va tegishli idoralar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ishlari ham amalga oshirilmoqda.

Ammo bugungi kunda ayrim kimsalar ojiza qatlam vakilalariga o‘z zo‘ravonligini ko‘rsatishga urinishmoqda. Bu kabi holatlar nafaqat xotin-qizlar ruhiyati, balki tazyiq va zo‘ravonlik holatlari mavjud bo‘lgan oilada ulg‘ayayotgan farzandlar ruhiyatiga ham, tarbiyasiga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatishi, shubhasiz. Bunday oilada o‘sib-ulg‘ayayotgan bolalar o‘ziga ishonchsiz, qat’iyatsiz bo‘lib qolishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Mazkur mavzu jabrlangan xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish hamda uning profilaktikasini amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini hal etishga qaratilgan.

Material va metodlar

Ayollarga nisbatan ishlatiladigan zo‘ravonlik va tazyiqning oldini olishga doir masalalarni tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish, huquqni qo‘llash amaliyoti usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligi profilaktikasiga doir masalalar tahlilida ijtimoiy so‘rov metodidan kengroq foydalanib, bu borada so‘rov natijalari tahlil etildi.

Tadqiqot natijalari

Viktimologiyaning asosiy vazifasi jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, ularning ma’naviy, ruhiy va moddiy zararlarini qoplash hamda qonuniy hal etishdir.

Jinoiy qilmishning vujudga kelishida jinoyatchi va jabrlanuvchi munosabatlarining viktimlashuvi va buning natijasida bu faqat jinoyat sodir etilishiga olib keladimi yoki rag‘batlantiradimi, kabi masalalar ham viktimologiya fani tomonidan o‘rganiladi.

Shuningdek, vaqt va makon, muayyan vaziyatda jinoyat hodisasi, masalan, qasddan odam o‘ldirish, tan jarohati yetkazish, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilish kabi harakatlar yuz berishida potensial jabrlanuvchilarni aniqlab, ana shunday vaziyatda shaxsga qarshi tajovuzlar sodir bo‘lmasligi uchun muayyan harakatlar qilish yoki choralar ko‘rish vazifalarini ham viktimologiya belgilab beradi.

Jinoyatchilikka qarshi viktimologik kurash esa – bu jinoyatchilik bilan kurashishning alohida mustaqil shakli bo‘lib, jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi doirasida jinoyatchilik ustidan nazorat o‘rnatish siyosatiga asoslangan, fuqarolar, jamiyat va davlatning huquq va qonuniy manfaatlari muhofazasini ta’minlashga qaratilgan davlat va ijtimoiy choralar majmuyidan iboratdir [1, 51-57-b.].

Shaxsning jinoiy xulq-atvorini chuqur tahlil qilish va jinoyat sodir etishda asosiy sababchi bo‘lgan jabrlanuvchi shaxslarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Insonning ongida xuddi jabrlanuvchining ongida bo‘lgani singari o‘zining ijtimoiy mavqeyini jabrlanuvchining xulq-atvoriga o‘xshatish jarayoni ro‘y beradi. Biz ushbu ijtimoiy jarayonda takroriy viktimizatsiyaning asoslari ham mavjud deb hisoblaymiz.

Masalan, jinsiy jinoyatlardan jabr ko‘rgan ayol jabrlanuvchilarning o‘ziga xos tipi hisoblanadi. Ularning aniq soni statistik ko‘rsatkichlardan ancha ko‘p. Bunda ayollar mutlaq ko‘pchilikni tashkil etadi. Afsuski, bugungi kunda kriminologiya fanida alohida ijtimoiy tabaqalar viktimligini aniqlash usuli ishlab chiqilganligiga (mazkur muammo favqulodda dolzarb ahamiyatga ega ekanligiga) qaramay, jinoyatlardan jabr ko‘rgan shaxslar salmog‘i haqida to‘g‘ri va to‘liq ma’lumotlarga ega emasmiz [2, 97-b.].

Buning asosiy sababi zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollarni statistik hisobga olish va to‘la tavsiflash uchun bazaning mavjud emasligidir. Shunga qaramay, O‘zbekistondagi shaxslarning viktimlik darajasi (koeffitsiyenti)ni rasmiy statistika ma’lumotlari asosida aniqlash lozim. Masalan, buni zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollarga nisbatan sodir etilgan jinoyat turi va alohida mintaqalarga tatbiq etish natijasida aniqlashtirish mumkin.

Ko‘p hollarda zo‘rlikdan jabr ko‘rgan ayol jabrlanuvchilarning viktim xulqi jinoyat sodir etishga asos qilib olingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, oilada zo‘ravonlik ro‘y berganda, ayollar aksariyat hollarda jinoyat haqida xabar berishdan qo‘rqishi, xabar bergan taqdirda ham huquqni qo‘llovchi idoralar ko‘pincha jinoiy yoki ma’muriy ish qo‘zg‘atmay, yarashtirishga harakat qilishi zo‘ravonlikning qayta-qayta sodir etilishiga sabab bo‘lmoqda. Respondentlar bergan javoblardan ko‘rinadiki, tazyiq va zo‘ravonliklarga uchragan ayollarning 20 foizida qo‘rquv, 32 foizida nafrat, 35 foizida g‘azab, 6 foizida tushkunlik hamda 7 foizida rahm-shafqat hissi shakllangan [3, 34-b.].

Biz sud tergov amaliyotini o‘rganar ekanmiz, 19–25 yoshdagi jabrlanuvchilarning 85%i qarshilik ko‘rsatganliklari, 18 yoshdan kichik va 50 yoshdan katta bo‘lgan jabrlanuvchilar orasida juda kam shaxs qarshilik ko‘rsatganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning tajribasizligi, qariyalarning qarshilik ko‘rsatishga kuchi yetmasligidir.

Bu esa jinsiy jinoyat sodir etiladigan joydagi vaziyatning o‘zi jinoyatchi tomonidan jabrlanuvchining potensial xulq-atvori (masalan, jismoniy qarshilik ko‘rsatishi)ni hisobga olishini nazarda tutadi va faollik darajasi past bo‘lgan jabrlanuvchilarning tanlash imkoniyatini beradi.

Nomusiga tajovuz qilingan jabrlanuvchilarning viktim xulq-atvorini bir necha guruhga ajratish mumkin. Jumladan, birinchi guruhga – mast holdagi jabrlanuvchilar kiradi; ikkinchi guruhga – pala-partish tanishuvi, yengiltak, ba’zan erkak bilan muloqotda chechan bo‘lgan ayollar kiradi (bunday ayol-

lar o‘z xatti-harakati bilan o‘z nomusiga tajovuz qilinishiga moyillik bildirishadi); uchinchi guruhga – noto‘g‘ri jinsiy tarbiya olganlar kiradi (ular shahvoniy shilqimlik qilinganda, o‘zini qanday tutishni biladi, ammo nomusiga tajovuz qilayotgan shaxsdan o‘zini himoya qila olmaydi); to‘rtinchi guruhga – erkaklar e’tiborini noto‘g‘ri tushunadigan, shahvoniy xatti-harakatli, jinoyat yuz berishi mumkinligini o‘ylamaganligi sababli jabrlangan ayollar kiradi [4, 65-b.].

Bunday guruhlarga bo‘lib o‘rganishdan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, jabrlanuvchilarning viktim xulq-atvori jinoyat sodir etishda asosiy rol o‘ynaydi.

Zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarda jinoyat sodir etilishiga u yoki bu tarzda ko‘maklashganlar jabrlanuvchilarning 62 foizini tashkil etgan. 38 foizida buning aksi bo‘lib, bunday zo‘ravonlik yoki tazyiq ishlatishga ko‘maklashmagan. Ya’ni ularning harakatlarida aybdorda nojo‘ya xulqning vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan qandaydir omillar mavjud bo‘lgan.

Jabrlanuvchilarning xulq-atvoridagi viktimlikning ko‘rinishi turlicha bo‘lishi mumkin. Ularning jinoyat sodir etilishiga ta’siri bevosita jinoyatdan avval yuzaga kelgan vaziyat yoki jinoyatchining shaxsi orqali, agar ular o‘tmishida unga shakllantirishga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, namoyon bo‘lishi mumkin. Kriminogen sabablar sifatida bajaradigan vazifasiga qarab, ularni ikki guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh – jinoyat sodir etilishi uchun kriminogen vaziyatni vujudga keltiruvchi xulq ko‘rinishlari; ikkinchi guruh – jinoyatchi shaxsida g‘ayriaxloqiy xulq-atvorni shakllantiruvchi kriminogen ijtimoiy-ruhiy xulq shakllari.

Bundan tashqari, jabrlanuvchining jinoyatga ko‘maklashmaydigan xulq-atvori obyektiv ravishda kriminogen – viktimogen xususiyatga ega emas. Bu esa jinoiy xatti-harakatlarga turtki bo‘lmaydi va jinoyatning sodir etilishiga ko‘maklashadigan shart-sharoitlarni vujudga keltirmaydi. Ular betaraf xususiyatga ega bo‘ladi yoki jinoiy tajovuzga aks ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni bunda jabrlanuvchining xulq-atvori jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lmay, balki shart-sharoit yaratib beradi.

Ulardan 57,7 foiziga nisbatan oxirgi jinoiy tajovuzga qadar aybdor shaxs tomonidan jismoniy zo‘rlik ishlatilgan. Jabrlangan shaxslarning 22,1 foizi o‘ldirish, sog‘lig‘iga og‘ir shikast yetkazish bilan qo‘rqitilgan. Biroq jabr ko‘rganlarning atigi 15,4 foizi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yordam so‘rab murojaat etganligini amaliyot materiallarining tahlilidan ham ko‘rish mumkin.

Bunday tahlildan shu narsa ko‘rinib turibdiki, jabrlanuvchining faol emasligi jinoyatchida g‘ayriqonuniy xulq jazolanmaydi, hamma narsani qilish mumkin, degan fikrni shakllantiradi. Natijada aybdor zo‘ravonlik harakatlarining tobora xavfliroq ko‘rinishlariga osonroq o‘tadi va avvalgisiga o‘xshash janjalli vaziyatda bo‘laturib, jamiyat manfaatlariga zid harakatni sodir etadi.

Oila doirasida zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning asosiy qismi nomusga tegish jinoyatlari bo‘lib, ularni vujudga keltiruvchi sabablardan biri ichkilikka berilish hisoblanadi. Bunday vaziyatda dastlabki vazifa alkogolizm va giyohvandlikdan davolanishni tashkil qilish va psixiatr hamda psixologga murojaat etishdir.

Zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligining yakka tartibdagi profilaktikasiga doir choralarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari orqali berilgan axborotni idrok etish va o‘zlashtirish osonroq va qulayroq ekanligini hisobga olib, eslab qolish oson bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqildi. Bunda odamning hayot tarziga xos bo‘lgan turli vaziyatlar va sharoitlarda unga hujum qilinishining ehtimol tutilgan variantlarini tahlil qilish uchun samarali va maqbul bo‘lgan himoya usullarini ishlab chiqish taklif etiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, davlat zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar

viktimologik profilaktikasida jamoatchilik ishtirokining mazkur shakllaridan manfaatdor va shu bois bunday tashabbuslarni fuqarolarga zarur axborot berish, maxsus dasturlarni moliyalashtirish, ijobiy tajribani ommaviy axborot vositalari orqali keng yoyish va hokazo yo‘llar bilan har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi.

Darhaqiqat, jinoyatchilikning rasmiy statistikasidan tashqari, aholi o‘rtasida anonim tarzida o‘tkaziladigan so‘rovlar jinoyatchilikning miqyosi, taqsimlanishi va rivojlanishini aniqlash imkonini beradi; turli jinoyatlar bo‘yicha viktimlashuv darajasini namoyish etadi; jinoyatchi bilan jabrlanuvchi o‘rtasidagi munosabatlar va ularning ijtimoiy-demografik belgilarini ko‘rsatadi; viktimlashuv amalda yetkazgan ziyonga baho berish; uning xavflilik darajasini aniqlash; ayrim jabrlanuvchilar o‘zlariga nisbatan sodir etilgan jinoyat haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga arz qilishdan bosh tortganining sabablarini tushuntirish; jinoiy adliya organlarining ishiga baho berishga ko‘maklashadi. Albatta, bunday sotsiologik tadqiqotlarni o‘tkazish muayyan kuch-g‘ayrat talab qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligini profilaktika qilishda bir-birini qo‘llab-quvvatlash shaxslarning birlashuvidan tashqari, amaliy viktimologiyaga oid ta’lim kurslarini tashkil qilishda o‘z samarasini berishi mumkin. Bu mavzudagi ma’ruzalar bugungi kunda dunyoning deyarli barcha o‘quv yurtlarida o‘qitiladi. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalarida ham bolalar sodda, o‘zlari tushunadigan darajada turli-tuman xavf-xatarlardan qutulib qolish haqida foydali axborotlar oladilar.

Shuningdek, maktab o‘quvchilari va talabalarda maxsus treninglar o‘tkazish, o‘zini o‘zi himoya qilish usullarini o‘zlashtirish, turli himoya vositalarini qo‘llash usulini maromiga yetkazish imkoniyati mavjud. Jinoyatlar viktimligining maxsus profilaktikasi jamoatchilik ishtirokining zarurligini taqozo etadi.

Ko‘pgina mamlakatlar tajribasidan ko‘rish mumkinki, hamma uchun muhim bo‘lgan umumiy maqsadlar va vazifalarni aniq belgilash va hatto turli rag‘batlantirish choralaridan foydalanish bunday jamoatchilik harakatiga butunlay o‘zgacha tus beradi.

Masalan, AQShda huquqiy tartibotni qo‘riqlash va jinoyatlar viktimligi profilaktikasi borasidagi faoliyatda aholi ishtirokini rag‘batlantirish uchun turli-tuman usullardan foydalanilgan. Masalan, mukofot tariqasida esdalik nishonlari topshiriladi; bepul ovqatlanish, xayriya kechalari tashkil etiladi; ommaviy axborot vositalarida davlatning oliy mansabdor shaxslari bunday tashkilotlarning a’zolariga nomma-nom minnatdorchilik bildiradi. Bularning barchasi faoliyat ishtirokchilariga o‘zining muhimligini his qilish va o‘z faoliyatining zarurligini tushunish imkonini beradi.

Shuningdek, viktimologik profilaktikaning axborot bazasini yaratish ham eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda so‘z, eng avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlardan jabrlanganlar hisobini to‘liq va yagona yuritish tizimini yaratish haqida boradi. Xususan, ichki ishlar organlari hisobotlarida statistik hisob yuritishning ayrim shakllariga aniqlik kiritish, ulardan jabrlanuvchilar haqida yanada keng va differensiatsiyalashgan ma’lumotlar olishga erishish zarur.

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 16-moddasida “tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilar, shuningdek, zo‘ravonlik sodir etgan yoki zo‘ravonlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar haqidagi ma’lumotlar vakolatli organlar va tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining yagona elektron ma’lumotlar bazasiga kiritilishi” belgilangan.

Bugungi kunda qo‘llaniladigan statistik hisobotlar shakli jabrlanuvchilar haqida yetarli ma’lumotlarni aks ettirmaydi. U har xil xususiyatga ega bo‘lgan, kriminologik tahlil jara-

yonida o‘zaro bog‘lanmaydigan ikki ko‘rsatkichni birlashtiradi.

Jabrlanuvchilarning toifalarini farqlaydigan tasniflash mezoni bu yerda (kriminologik ma’noda) deyarli mavjud emas. Ularni motivatsion belgilariga ko‘ra taqsimlash esa informativ va profilaktik ahamiyat kasb etmaydi.

Zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar statistikasining to‘liq emasligi sabablari ham har xil bo‘lib, ular obyektiv va subyektiv omillarni o‘zida birlashtiradi. Umuman olganda, ular jumlasiga jinoyatlarni ro‘yxatga olish siyosati va amaliyoti, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atishni rad etish amaliyoti va bundan kelib chiqadigan zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar latentlik darajasi o‘sishini kiritish odat tusini olgan.

Omillarning bu to‘liq bo‘lmagan ro‘yxati pirovard natijada fuqarolarning huquqni muhofaza qilish organlariga bo‘lgan ishonchi yo‘qolishiga olib keladi. Natijada ularning ko‘pchiligi o‘zlariga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar haqida arz qilishdan voz kechadilar.

Shunday qilib, zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar statistikasining to‘liq bo‘lmay, bu jinoyatlardan jabrlanganlar haqida axborotning yo‘qligi bunday jinoyatlarning oldini olish vazifalari, mazkur faoliyatning yo‘nalishlari va shakllarini belgilashni qiyinlashtiradi. Bunday vaziyatda statistik hisobotni takomillashtirish bilan bir qatorda, jabrlanuvchilarning shaxsi, xulq-atvori, huquqbuzarlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan ularning o‘zaro munosabatlari xususiyati, zararli oqibatlar ko‘lami va hokazolarga doir yanada mufassal va maqsadli viktimologik tadqiqotlar o‘tkazish zarurati yanada kuchayadi.

Zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimologik profilaktikasining maxsus oldini olishning yana bir muhim vazifasi viktimologik profilaktikaga doir keng ko‘lamli maqsadli dasturlar ishlab chiqish bo‘lib, bu dasturlar jinoiy tajovuzlarning aniq va ehtimoli bo‘lgan jabrlanuvchilarni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturining jinoyatchilikka qarshi kurash dasturi bilan uzviy bog‘langandir.

Ayniqsa, zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar jabrlanishining aksariyati dam olish va maishiy joylarda shaxslar o‘rtasidagi ziddiyatlar (shu jumladan, oiladagi ziddiyatlar) negizida sodir etilishi aniqlangan. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, bugungi kunda, birinchi navbatda, oila va maishiy hayotni sog‘lomlashtirish va ixtisoslashtirilgan ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi. Ichkilikbozlik va alkogolizmning oldini olish hamda mazkur ijtimoiy illatlarga qarshi kurashish bunday dasturlarning muhim qismiga aylanishi lozim.

Darhaqiqat, alkogolizm va giyohvandlik kasallik ekanligi bugungi kunda hech kimda shak-shubha uyg‘otmaydi va ularni u yoki bu tarzda davolashga harakat qilish masalalari dasturlarda o‘z ifodasini topgan [5, 95-b.].

Ayni vaqtda yoshlar va o‘smirlarning kriminogen holatiga to‘siq qo‘yish, talabalar va o‘quvchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘z muammolarini g‘ayriqonuniy yo‘llar bilan hal etmasliklariga erishish, maishiy hayoti va bo‘sh vaqtini o‘tkazish usullarini sog‘lomlashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar alohida ahamiyat kasb etadi [6, 39–40, 51–52-b.].

Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishda ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish, huquqiy targ‘ibot shakllari va usullarini takomillashtirish ham zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar viktimligining maxsus profilaktikasida muhim rol o‘ynaydi. Bu aniq va ehtimoli bo‘lgan jabrlanuvchilarni himoya qilishda tarbiyaviy va profilaktik tadbir sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda ayollarga nisbatan zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda davlat tomonidan amalga oshiriladigan umumiy chora-tadbirlar belgi-

langan. Ular qatoriga iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish va modernizatsiyalash; jamiyatdagi ma’naviy muhitni yaxshilash; fuqarolarning moddiy turmushini oshirish; muhtoj oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish va ijtimoiy nazorat sohasini takomillashtirish kabi chora-tadbirlarni kiritish mumkin.

Viktimologik profilaktika jamiyatdagi zo‘ravonlikka bo‘lgan munosabat va xulq-atvorni o‘zgartirishga qaratilishi lozim. Ayollarga nisbatan sodir etiladigan zo‘ravonlikka qarshi olib boriladigan viktimologik profilaktika choralari asosida quyidagilar bo‘lishi zarur: erkaklar va ayollar zo‘ravonlik borasida turli “tajribaga” ega; profilaktika choralari ayollarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishining sabab va sharoitlari hamda uni sodir etadigan subyektlarni aniqlash bilan boshlanadi; profilaktik choralarning samarasi nafaqat ayollarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonlik jinoyatlari haqida aholini xabardor qilib borish va tarbiyaviy ishlar, balki jamiyatdagi ushbu muammoga bo‘lgan qarashlar, munosabatlar, xulq-atvor va ijtimoiy normalarni yakka tartibda, mahalliy va yaxlit jamiyat miqyosida o‘zgartirishga ham bog‘liqdir.

Qonunda ayollarga nisbatan amalga oshiriladigan zo‘ravonlikning viktimologik profilaktikasiga aloqador organ va mansabdor shaxslar doirasi hamda ularning vakolatlari tartibga solingan. Unga muvofiq, zo‘ravonlik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda ishtirok etadigan subyektlarning vakolatlari doirasida xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishga yo‘naltirilgan profilaktika, shuningdek viktimologik profilaktika choralari ko‘riladi. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish va ushbu holatlarning oldini olishga mas’ul subyektlarning hamkorlikda amalga oshiradigan chora-tadbirlari ham muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 14-moddasi hamkorlikning asos va uning muhim yo‘nalishlarini belgilab bergan bo‘lib, vakolatli organlar va tashkilotlar xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishda quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlik qiladilar: aniqlangan tazyiq va zo‘ravonlik faktlari to‘g‘risida o‘zaro bir-birini xabardor qilish; bunday holatlarga munosabat bildirish choralarini kelishish hamda jabrlanuvchilarga amaliy yordam ko‘rsatish; tazyiq va zo‘ravonlikni bartaraf etish hamda ularga qarshi kurashish va tajriba almashish sohasidagi chora-tadbirlarni birgalikda amalga oshirish; bunday holatlarni bartaraf etish hamda ularga qarshi kurashish sohasidagi tadbirlarni amalga oshiradigan mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo‘yishning umumiy chora-tadbirlari ham o‘ziga xos jihatlarga ega. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 15-moddasida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo‘yishning umumiy chora-tadbirlari belgilangan. Ular quyidagi yo‘nalishlardan iborat: xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish sohasidagi davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish; tazyiq va zo‘ravonlikning sabablari hamda shart-sharoitlari bo‘lgan omillarni tahlil qilish, o‘rganish va baholash; aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot olib borish; bunday hollarning statistik hisobi va hisobotini yuritish hamda ularni davlat statistika organlariga taqdim etish; fuqarolar, ayniqsa, xotin-qizlarni o‘z huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari, shuningdek, himoya qilish kafolatlari haqidagi axborot bilan ta’minlash maqsadida axborot-ma’rifiy faoliyatni amalga oshirish; xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va

zo‘ravonlik holatlarini aniqlashning samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish.

Zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimligining oldini olish borasida xorijiy davlatlar tajribasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, xorijiy davlatlarda ayollarga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonliklar aksariyat holatlarda ularning ruhiy jarohat olishiga (nochorlikni his qilishi, tushkunlik va o‘zini o‘zi o‘ldirish holatlarini yuzaga keltirishi, turli darajadagi jarohatlar olishi, turli yuqumli kasalliklarga chalinishi kabi) sabab bo‘ladi.

AQShda oiladagi zo‘ravonlikka qarshi qaratilgan qonunlar ham jabrlanishning oldini olishda muhim yo‘nalishlardan biri sanaladi. Mazkur mamlakatda har 18 sekundda oiladagi zo‘ravonlik sodir etilishi va 6 mln ayol o‘z erlari tomonidan do‘pposlanishi va 1 mln 4 mingga yaqin shaxs olgan jarohatlardan vafot etishi aniqlangan. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida AQShda 1991-yilda “Ayollarga qarshi zo‘ravonlik ishlatishga qarshi kurash” to‘g‘risidagi, AQSh Kongressi tomonidan esa 1994-yilda “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash haqida”gi (the Violence Against Women Act), (ushbu qonun ayollarga qarshi ishlatiladigan zo‘ravonlik AKTga asosan qabul qilingan bo‘lib, davlat tomonidan oiladagi jinsiy va boshqa zo‘ravonliklarga qarshi kurash masalalariga bag‘ishlangan), 1999-yilda AQSh Federal qonunchiligida qurol savdosi to‘g‘risidagi Bill (the Brady Bill and an Extension of Brady into Law), shuningdek “Bolalarga nisbatan ishlatiladigan jinoyatlarga qarshi kurash to‘g‘risida”gi (Megan’s Law and the Jacob Wetterling Crimes Against Children and Sexually Violent Offender Registration Act) (Bu qonun orqali jinoyatchining o‘z yashash hududini ham o‘zgartirishi asosiy shartlardan biri sifatida belgilangan) qonunlar qabul qilingan. 1991-yildagi “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik ishlatishga qarshi kurash” to‘g‘risidagi qonunning maqsadi ushbu toifada huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘lib, ushbu qonun orqali nomusga tegish jinoyati uchun jazo choralari og‘irlashtirilgan.

Bundan tashqari, zo‘rlik qurbonlari uchun mo‘ljallangan alohida turar joylar ochishni moliyalashtirish 3 baravarga oshirilgan. Oilada ayollarga nisbatan zo‘ravonlik ishlatgan shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan yuzlab dasturlar ishlab chiqilgan. Oiladagi zo‘ravonlik qurbonlari uchun 1,5 mingta markaz, alohida uylar tashkil qilingan.

Masalan, 1994-yilda AQSh Kongressi tomonidan qabul qilingan “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash haqida”gi Qonun (the Violence Against Women Act)ga asosan, milliy “murojaatlar liniyasi” tashkil qilinib, ushbu jarayonlarga 1,6 mlrd pul ajratilgan. Mazkur mablag‘lar maxsus politsiya, prokuratura va sud tizimi xodimlarini tayyorlashga sarflangan.

Shuningdek, AQShda oilada sodir etilayotgan zo‘ravonliklar ushbu davlatning jinoyat qonunchiligiga asosan qarindoshlar o‘rtasidagi jinoyatlar toifasiga kiritilgan [7].

Bugungi kunda oilada zo‘rlik ishlatishning oldini olishga qaratilgan choralar natijasida oiladagi zo‘ravonlik jinoyatlari soni 21 %, o‘z turmush o‘rtog‘i tomonidan o‘ldirilish holatlari esa 60 %ga kamaygan.

Jahon jinsiy jinoyat statistika bo‘limi va Jorj Meyson universiteti ma’lumotlariga ko‘ra, har uchtadan bitta amerikalik xotin-qizlar jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan. 19,3 ayol va 2 foiz erkak umrlari davomida hech bo‘lmaganda bir marta bo‘lsa ham jinsiy zo‘ravonlik qurboniga aylangan. AQShda 12 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan qizlarning 83 foizi turli zo‘ravonliklarga duchor bo‘lishadi [8].

2017-yil 22-fevralda Buyuk Britaniyada oiladagi zo‘ravonlikning oldini olishga doir “Oiladagi zo‘ravonlik: Britaniya ko‘zgusida” nomli qonun qabul qilindi. Ushbu qonun qabul qilinishidan oldin Britaniyada oiladagi zo‘ravonlik masalalari tahlil etildi. Bunda zo‘ravonlikdan birinchi marta jabr ko‘rgan ko‘pgina ayollar kamdan-kam holatlarda politsiyaga borib murojaat qilishi aniqlangan.

Bu esa uni oylar va yillar davomida jabrdiyda bo‘lib yashashiga olib kelgan. Bu masalada (Women’s Aid England) “Oiladagi zo‘ravonlikka qarshi kurashishda homiylik qiladigan milliy tashkiloti” tomonidan 2014-yilda tadqiqot olib borilib, so‘rov o‘tkazilgan. 510 ta ayoldan unga nisbatan oilada zo‘ravonlik bo‘lganda, politsiyaga murojaat qilgan yoki qilmaganligi so‘ralganda, ularning 48,2 % (246 ta ayol) zo‘ravonlik haqida ikki yildan ortiq muddat o‘tgandan so‘ng murojaat etganini ta’kidlagan. 9,4 % (48 ta ayol) esa 10 yildan ortiq muddatdan keyin, 32,3 % (164 ta ayol) bir yildan kam, ya’ni 11 oy ichida murojaat etgani, 19,2 % (98 ta ayol) o‘zlariga nisbatan ishlatilgan xatti-harakat zo‘rlik ekanligini bilishmagan. 0,4 % (2 ta ayol) bu masalada javob bera olmagan [9].

Buyuk Britaniyada har hafta ikkita ayol o‘z turmush o‘rtog‘i harakatlari sababli vafot etgan. Mamlakatda qabul qilingan qonunchilikka ko‘ra, eri tomonidan oiladagi zo‘ravonlikdan jabrlangan ayol eri bilan ajrashishni talab qilgan. Agarda u eri bilan ajrashmasa, undan bolani homiylik va vasiylik organlari olib qo‘yishi mumkin bo‘lgan. Ushbu qonunlar esa mavjud vaziyatni yanada og‘irlashtirgan va ko‘pgina jinoyatlar latentligicha qolgan.

Ko‘pgina holatlarda vaziyat juda chigal bo‘lib, ayol sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazilgandagina murojaat qilish holatlari kuzatilgan. Ushbu jinoyatlardan javbrlanganlarga jamoat va boshqa fondlar yaqindan yordam bergan. Britaniyada ishonch telefonlari mavjud bo‘lib, ular nafaqat ayollar va bolalar, balki zarar ko‘rgan erkaklar uchun ham faoliyat yuritgan.

Jinoyatlardan jabrlanganlarga nisbatan jamiyat munosabatini o‘zgartirish doirasida huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining ularga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirish, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etib, bu muhim yo‘nalish jabrlanuvchilarga o‘ta ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, o‘zaro hurmat va sheriklik munosabatlari, ularni har tomonlama himoya qilish, yordam ko‘rsatish va ularni zaruriy (masalan, jabrlanuvchilarning huquqlari, ishni tergov qilish jarayoni, zararning qoplanishiga erishish imkoniyatlari to‘g‘risida) axborotlar bilan ta’minlashni nazarda tutishi lozim.

Bu, ayniqsa, oilada zo‘rlik ishlatish va nomusga tegishdan jabrlanganlarga tegishlidir. Jamiyat, hokimiyat idoralari, huquqni muhofaza qilish organlari ham hali-hanuz jabrlanuvchilar, shu jumladan, nomusga tegishlardan jabrlanganlarga nisbatan tegishli munosabatda bo‘lishni o‘zining dolzarb vazifasi deb hisoblamaydi. Shu tufayli ham psixologlar va tibbiyot mutaxassislari, jamoat tashkilotlarining vakillari, jabrlanuvchilarning ota-onasi va qarindoshlari yuzaga kelgan vaziyatdan qattiq tashvishda ekanliklarini bildiradilar. Ayni shu sababli bugungi kunda barcha darajadagi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari bilan tushuntirish ishlari olib borish muhimdir.

Afsuski, rivojlangan davlatlardagi zo‘rlik ishlatish, shu jumladan, nomusga tegishga qarshi kurash tajribasi hali-hanuz o‘zlashtirilgani yo‘q. Vaholanki, mazkur tajriba huquqni muhofaza qilish organlarining yordami, zo‘rlik ishlatuvchilar bilan profilaktika ishini olib borish, jabrlanganlarni har tomonlama (tibbiy, ruhiy va h.k.) reabilitatsiya qilish, ommaviy axborot vositalarida zo‘rlik ishlatish va shafqatsizlikni targ‘ib qilishni cheklash va sog‘lom jinsiy munosabatlar targ‘ibotini ham o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, ko‘pgina rivojlangan davlatlarda nizoli oilalarni yarashtirish institutlari, yarashtiruv komissiyalari va yarashtiruv sudlari mavjud bo‘lib, bu o‘z nomi bilan “Oilaviy mediatsiya” deb yuritiladi.

Masalan, Fransiyada 1980-yillarda Oilaviy mediatsiya instituti shakllanib, bu institutda oilaviy nizolar hal etila boshlangan [10, 200-b.]. Bunda mediatsiyada nikoh va ajralish, mulkni bo‘lish masalalari hal etilgan [11]. Shuningdek, Fransiyaning № 95-125-sonli qonuniga asosan, 1996-yil 22-iyulda oilaviy nizolarni mediatsiya yo‘li bilan hal etish belgilab berilgan.

2002-yil 4-martda qabul qilingan № 2002-305-sonli qonunning 373-2-10-moddalariga asosan, oiladagi kelishmovchiliklarni hal etishda ota-onalar bilan kelishilgan holda, sudya sudda mediatorni chaqirishi mumkinligi nazarda tutiladi [12].

Xulosalar

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ayollarga nisbatan ishlatiladigan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish hamda viktimologik profilaktikani samarali tashkil etish maqsadida quyidagi choralarni amalga oshirish lozim: 1) huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini jinoyatlarning jabrlanuvchilari huquqlari va manfaatlarini, birinchi navbatda, himoya qilishga qaratish; 2) viktimologik profilaktika axborot bazasini yaratish zarur**.** Bunda, eng avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xotin-qizlarni tazyiq, zo‘ravonlik va jinoyatlardan jabrlanganlar hisobini yuritishning to‘liq hamda yagona tizimini yaratish lozim. Xususan, ichki ishlar organlari hisobotlarida statistik hisob yuritishning ayrim shakllariga aniqlik kiritish, ulardan jabrlanuvchilar haqida yanada keng va differensiatsiya qilingan ma’lumotlar o‘rin olishiga erishish zarur; 3) keng ko‘lamli maqsadli dasturlarni ishlab chiqish lozim**.** Viktimologik profilaktikaga, jinoiy tajovuzlar jabrlanuvchilari hamda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar jinoyatchilikka qarshi kurash dasturi bilan uzviy bog‘langan mustaqil maqsadli dastur bilan bog‘liq bo‘lishi darkor; 4) ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish, huquqiy targ‘ibot shakllari va usullarini takomillashtirish ham xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish ishida katta tarbiyaviy va profilaktika ishlarini olib borish; 5) profilaktika xizmati bo‘linmalari funksiyalarini kengaytirish, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlik, shuningdek, zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlardan jabrlanganlarning viktimologik profilaktikasi bilan shug‘ullanadigan maxsus bo‘linmalar tashkil etish lozim.

Hozirgi vaqtda viktim xulq-atvor profilaktikasi uchun javob beradigan mustaqil ixtisoslashtirilgan xizmat mavjud emas. Mazkur faoliyat qonun hujjatlari bilan mufassal tartibga solinmagan. Bizning nazarimizda, mavjud profilaktika xizmatlarining funksiyalari kengaytirilishi yoki viktimologik profilaktika uchun javob beradigan yangi ixtisoslashtirilgan bo‘linmalar tashkil etish yo‘lidan borilishi va O‘zbekiston Respublikasining 2014-yildagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunida ushbu profilaktika qilish subyektlari faoliyatida jabrlanishning oldini olishga doir vazifalar ham yuklanishi o‘z aksini topishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, Oilaviy mediatsiya instituti rivojlangan boshqa davlatlarda ham mavjud bo‘lib, xorijiy davlatlar tajribasini o‘rgangan holda, bizning fikrimizcha, respublikamizda oilaviy nizoli masalalarni hal etishda xorijiy davlatlar singari *“Oilaviy mediatsiya”* institutlaridan foydalanish lozim. Mazkur institut oilaviy hayotga oid ko‘plab masalalarni qamrab oladi, uning yordami bilan oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan aksariyat nizolarni hal qilishga erishish mumkin. Jumladan: er-xotin o‘rtasidagi nizolar (nikoh shartnomasini tuzish, nikohni bekor qilish, dunyoqarashlar to‘qnashuvi, otalikni aniqlash, farzand asrab olish, vasiylik, aliment to‘lash, ota-ona, keksa qarindoshlariga g‘amxo‘rlik qilish, meros huquqi va h.); ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi nizolar (ota-onalik huquqidan mahrum qilish); yaqin qarindoshlar (aka-uka, opa-singillar, qarindoshlar o‘rtasidagi nizolar).

Tadqiqotchilar oilaviy nizolarda tomonlar xotirjamlik va ratsional yondashuvga tayyor emasliklari, kuchli ehtiroslarga berilgani, chuqur tushkunlik va psixologik inqiroz holatida bo‘lishlari bois mediatordan tegishli tajriba, malaka talab etilishini ta’kidlaydilar. Bunda mediatorning maxsus bilim va kompetensiyalarga ega bo‘lishi, kommunikativ metodlarni bilishi va professionalizmi katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ishlarning taalluqliligini belgilashda o‘z-o‘zini boshqarish organlari qoshida tuzilgan yarashtiruv komissiyalari faoliyatini ham yuqori baholash, shuningdek, yarashtiruv komissiyasi faoliyatini qonuniylashtirish maqsadida alohida O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga norma kiritish yoki *“Yarashtiruv komissiyalari faoliyati to‘g‘risida”gi* qonun qabul qilish lozim. Chunki aynan shunday toifadagi ishlar bo‘yicha yarashtiruv harakatlari, xususan, oilani saqlab qolish lozimligi yoki saqlab qolishning iloji yo‘qligi haqidagi xulosani aynan shu organlar beradi.

REFERENCES

1. Mayorov A.V. O kontseptsii viktimologicheskogo protivodeystviya prestupnosti [On the concept of victimological counteraction to crime]. *Legal Science and Law Enforcement Practice*, 2015, no. 4, pp. 51–57.

2. Kotova N.K. Viktimologicheskiye problemy kriminal’noy agressii [Victimological problems of criminal aggression]. Astana, 2001, p. 97.

3. Jamolidinova O.R. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi kurashish masalalari [Issues of combating oppression and violence against women]. *Proceedings of the International Scientific-Practical Conference of Actual Issues of Strengthening the Institution of the Family: National and Foreign Experience*. Tashkent, Neighbourhood and Family Scientific-research Institute, 2021, p. 34.

4. Criminology. Dictionary. St. Petersburg, Lan Publ., 1999, p. 166.

5. Krupnov I. On the phenomenon of crime. *Criminal Law*, 2001, no. 4, p. 95.

6. Criminological characteristics of murders. Moscow, 1997, pp. 39–40.

7. VAWA. Violence Against Women Act.

8. Wonders Lists. Available at: http://www.info.islom.uz/jamiyat/item/2017-zhinsij-zoravonlik-avzh-olgan-mamlakatlar-10-taligi.html

9. How to create a crisis center for women. Moscow, 1995, pp. 107–114.

10. Circular No. DGAS/4A/2002/376, Available at: www.unaf.fr/article.php3?id_article.=819

11. Kvashis V.E., Vavilova L.V. Foreign legislation and practice of protection of crime victims. Moscow, 1996, pp. 22–37.

12. Niyozova S.S. Strong Emotional Arousal (Effect) as a Criminal Law Norm. *The American Journal of Political Science Law and Criminology,* 2021, March 31, pp. 96–102. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume03 Issue p.03-15. ISSN: 2693-0803.

13. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology,* 2020, vol. 29, no. 3, p. 3962.

14. Niyozova S.S. Reasons for Suicide and the Issue of Responsibility. *International Journal of Pharmaceutical Research,* 2020, December, vol. 12, iss. 3, p. 528.

15. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Special part. Crimes against the person. Crimes against peace and security. 2nd ed., supplem. and revised. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, vol. 3, pp. 30, 412.

16. Avkhia Z. Bor’ba s prestupleniyami protiv zhizni [Combating crimes against life]. Moscow, Legal Literature Publ., 1997, p. 16.

17. Zagorodnikov N.I. Prestupleniya protiv zhizni po sovetskomu ugolovnomu pravu [Crimes against life according to Soviet criminal law]. Moscow, Gosyurizdat, 1991, p. 22.

18. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari [Criminal legal and criminological problems of women’s crime]. Tashkent, TSUL Publ., 2005, p. 65.

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./MELD2183
UDC: 343.1(045)(575.1)

JINOYAT QONUNIDA INSONPARVARLIK PRINSIPI

Toshpulatov Akrom Ikromovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0000-0002-3029-2767
e-mail: a.toshpulatov4@gmail.com

Annotatsiya. *Insonparvarlik prinsipi jinoyat qonunchiligidagi eng markaziy prinsiplardan biri bo‘lib, u jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan insonparvar munosabatda bo‘lishni kafolatlaydi. Jinoyat qonuni huquqbuzarlikning eng xavfli turi bo‘lgan jinoyatni sodir qilgan shaxslarga nisbatan majburlov choralarini qo‘llash masalalarini tartibga soladi. Bu jarayonda insonparvarlik muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat qonunida insonparvarlik prinsipining mohiyati nima? U jinoyat qonuni muayyan normalarida qanday amalga amalga oshirilishi kerak? Jinoyat qonunchiligida insonparvarlik – bu jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan achinish yoki unga rahm-shafqat qilish emas, balki shaxs, jamiyat va davlatni qo‘riqlash orqali uning rivojlanishi va xavfsiz mavjud bo‘lishini ta’minlashda ifodalanishi kerak. Jinoiy jazo shaxsdan u biror-bir normada belgilangan taqiqlarni buzganligi uchun o‘ch olish emas. Bu O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 42-moddasida belgilangan uch maqsad, ya’ni mahkumni axloqan tuzatish, jinoiy faoliyatni davom ettirishga to‘sqinlik qilish, yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga erishish uchun qo‘llaniladigan kompleks chora-tadbirlardir. Muallif fikricha, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida insonparvarlik prinsipi mazmuni to‘liq ochib berilmagan bo‘lib, u asosan jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan munosabatni tartibga solish bilan cheklanib qolgan. Muallif, xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qilgan holda insonparvarlik prinsipi nafaqat jinoyat sodir qilgan shaxs, balki shaxs, jamiyat va davlat manfatlarini himoya qilish masalalarini ham qamrab olishi kerak, deb hisoblaydi. Maqolada sud amaliyoti materiallari, surishtiruvchilar, tergovchilar va sudyalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalaridan kelib chiqan holda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida insonparvarlik prinsipining aks ettirilishini takomillashtirishga oid takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *jinoyat qonunchiligi, prinsiplar, insonparvarlik, jinoiy jazo, sud amaliyoti, odillik.*

ПРИНЦИП ГУМАНИЗМА В УГОЛОВНОМ ЗАКОНЕ

Тошпулатов Акром Икромович,
кандидат юридических наук,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. *Принцип гуманности является одним из центральных принципов уголовного права, который гарантирует гуманное обращение с лицом, совершившим преступление. Уголовное право регулирует вопросы применения мер принуждения к преступникам – самым опасным из правонарушителей. Что означает гуманизм в уголовном законе? Какова должна быть его реализация в конкретных нормах уголовного права? Гуманизм в уголовном законодательстве – это не «жалость» к преступнику, а обеспечение оптимального развития и безопасного существования общества посредством защиты его интересов, а также интересов личности и государства. Уголовное наказание – это не месть преступнику за*

нарушение какой-то нормы права. Это комплекс мер, направленный на достижение трех целей (статья 42 Уголовного кодекса Республики Узбекистан): исправления осужденного; воспрепятствования продолжению преступной деятельности; предупреждения совершения новых преступлений. Вместе с этим, по мнению автора, в уголовном законодательстве Республики Узбекистан сущность принципа гуманизма не раскрыта полностью. Она ориентирована только на защиту лица, совершившего преступления. Проанализировав законодательство зарубежных стран, автор считает, что принцип гуманизма должен охватывать защиту интересов личности, общества и государства. На основе анализа материалов судебной практики, опроса дознавателей, следователей и судей внесены предложения по отражению принципа гуманизма в Уголовном кодексе Республики Узбекистан.

Ключевые слова: *уголовное законодательство, принципы, гуманизм, уголовное наказание, судебная практика, справедливость.*

THE PRINCIPLE OF HUMANISM IN THE CRIMINAL LAW

Toshpulatov Akrom Ikromovich,
Independent Researcher,
Tashkent State University of Law,
Candidate of Law

Abstract. *The principle of humanity is one of the central principles of criminal law, which guarantees the humane treatment of a person who has committed a crime. Criminal law regulates the application of coercive measures to criminals - the most dangerous of offenders. What does humanism mean in criminal law? What should be its implementation in specific norms of criminal law? Humanism in criminal law is not "pity" for the criminal, but ensuring the optimal development and safe existence of society by protecting its interests, as well as the interests of the individual and the state. Criminal punishment is not revenge on a criminal for violating some rule of law. This is a set of measures aimed at achieving three goals (Article 42 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan): correction of the convict; preventing the continuation of criminal activity, and preventing the commission of new crimes. At the same time, according to the author, the essence of the principle of humanism is not fully disclosed in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan. It is focused only on the protection of the person who committed the crime. Analyzing the legislation of foreign countries, the author believes that the principle of humanism should cover the protection of the interests of the individual, society, and the state. Based on the analysis of materials of judicial practice, a survey of interrogators, investigators, and a judge, proposals were concluded to reflect the principle of humanity in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *criminal law, principles, humanism, criminal punishment, judicial practice, justice.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasining ikkinchi qismida hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi, uchinchi qismida hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emasligi belgilangan bo‘lib, jinoyat qonunida insonparvarlik prinsipi aynan ushbu konstitutsiyaviy normadan kelib chiqadi.

Ushbu konstitutsiyaviy norma talabidan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi

Jinoyat kodeksining 7-moddasida insonparvarlik prinsipi belgilangan bo‘lib, u uch qismdan iborat:

“Jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamaydi.

Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo‘ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishi kerak.

Jazolashdan ko‘zlangan maqsadga ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddalarida nazarda tutilgan yengilroq choralarni qo‘llash orqali erishib bo‘lmaydigan taqdirdagina og‘irroq jazo choralari tayinlanishi mumkin”.

Jinoyat qonunida aks ettirilgan insonparvarlik prinsipi jinoyat qonuni vazifalarini amalga oshirishda qanday ahamiyatga ega, ushbu prinsip jinoyat sodir qilgan shaxs va uning jinoiy qilmishidan jabrlangan shaxsga nisbatan bir xil munosabatni ta’minlay oladimi? insonparvarlik prinsipi jinoiy jazoning haddan tashqari yengillashtirib yuborilishiga olib kelmaydimi? degan qarashlar soha olimlari tomonidan doimiy diqqat markazida bo‘lib keladigan masalalardan hisoblanadi.

Shu sababdan ham insonparvarlik prinsipining jinoyat qonunchiligida aks ettirilishi va uni amalda qo‘llanilishini tadqiq qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Material va metodlar

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligi, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi, sud amaliyoti materiallari tahlili, amaliyot xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari, soha olimlarining mazkur masala yuzasidan ilmiy ishlari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodlari sifatida qiyosiy-huquqiy, empirik tadqiqot, stastik ma’lumotlar tahlili, so‘rov o‘tkazish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Masalaning tavsifi. Insonparvarlik prinsipi inson huquqiga oid barcha xalqaro hujjatlar mazmunidan kelib chiqadi. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 5-moddasida hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerakligi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakt [1] (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Xalqaro paktga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 127-I-sonli “1966-yil 16-dekabrdagi fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga qo‘shilish haqida”gi qaroriga asosan qo‘shilgan) 7-moddasida ham aynan shunday norma mavjudligi, ushbu masalaga bag‘ishlangan alohida Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiyaning (O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 130-I-sonli “1984-yil 10-dekabrdagi Qiynoqlarga solishga va muomalada bo‘lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi konvetsiyaga qo‘shilish haqida”gi qaroriga muvofiq qo‘shilgan) qabul qilinganligi ham mazkur masalaga xalqaro miqyosda qanchalik e’tibor qaratilganligini ko‘rsatadi.

Jinoiy jazo jinoyat sodir qilgan shaxsning qilmishi uchun davlatning javob ta’sir chorasi hisoblanar ekan, ushbu choraning haddan tashqari qattiq bo‘lib ketmasligi, jinoyat sodir qilgan shaxsga jismoniy yoki boshqacha azob bermasligi, jazo jinoyatga va jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan mos (adekvat) bo‘lishi kerakligi haqidagi qarashlar doim nafaqat jinoyat huquqi sohasi olimlari, balki barcha ijtimoiy fanlar bilan shug‘ullangan olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Bunday qarashlar o‘z navbatida davlatning jinoyat-huquqiy siyosatini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etgan.

So‘nggi yillarda deyarli barcha mamlakatlarda jinoyat qonunchiligi liberallashtirish yo‘lidan bormoqda, liberallashtirish esa insonparvarliksiz bo‘lmaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “... ayrim jinoyatlarni liberallashtirish va ularni jinoyatlar toifasidan chiqarish, jinoiy jazoni insonparvarlik nuqtayi nazaridan yengillashtirishga alohida e’tibor qaratish. ... shu munosabat bilan 2018–2021-yillarda jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish zarur” [2] ligini ta’kidlagan edilar.

Jinoyat qonunini liberallashtirishda insonparvarlik masalalari M.X. Rustambayev [3], Q.R. Abdurasulova [4], A.S. Yakubov [5], R. Kabulov [6] kabi olimlarning ishlarida keng yoritilgan. Ushbu olimlar insonparvarlik prinsipi jinoyat qonunining repressiv xususiyatga ega bo‘lishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatishgan.

Jinoiy jazo tayinlayotganda davlat insonlarning eng muhim huquqlariga rioya etilishini ta’minlashi kerak. Chunki yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, jazo shaxsga jismoniy azob berish maqsadini ko‘zlamasligi, shaxsdan jinoyat qilganligi uchun o‘ch olish vositasiga aylantirilmasligi kerak.

Albatta, insonparvarlik prinsipini jinoyat qonunida qo‘llanishiga oid qarashlarda jinoiy jazolarning haddan tashqari yengillashtirib yuborilishi, og‘ir jinoyatlar soni ko‘payishiga, retsidiv jinoyatlar soni oshishiga olib kelishi mumkin, degan hadik ham mavjud.

Insonparvarlik prinsipini amalga oshirishning asosiy muammosi jazo va boshqa choralarning sodir etilgan qilmishga nisbatan muvofiqligini aniqlashga oid biron-bir mezonning mavjud emasligidadir [7].

Fikrimizcha, Jinoyat qonunini insonparvarlashtirish masalasida bir tomondan bu kerakli yo‘nalish bo‘lib, turli sabablarga ko‘ra jinoyat sodir qilib qo‘ygan shaxslarga axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olishga yetarli bo‘lgan jazo tayinlashni kafolatlaydi, ikkinchi tomonidan bu holat jinoyat tufayli jabr ko‘rganlar bir chetda qolib ketib, jinoyat sodir qilgan shaxslarning asossiz yengil jazo bilan qutulib qolishlariga imkon beradigan vositaga aylanib qolmasligi kerak.

Xorijiy tajriba. Insonparvarlik prinsipini xorijiy davlatlar qonunchiligida aks ettirilishi, mamlakatimizda ushbu masalaning qonunda aks ettirilishi bilan bir muncha farq borligini ko‘rsatdi.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga a’zo davlatlar uchun Namunaviy jinoyat kodeksining 10-moddasida insonparvarlik prinsipi “Jinoyat kodeksi shaxsning jismoniy, ruhiy, moddiy, ekologik va boshqa xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo‘ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishi kerak.

Jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamaydi” [8], deb bayon qilingan.

Rossiya Jinoyat kodeksining insonparvarlik prinsipi belgilangan 7-moddasi birinchi qismida RF jinoyat qonunchiligi shaxsning xavfsizligini ta’minlaydi, ikkinchi qismida esa jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamaydi [9], deb belgilangan.

Belarus Jinoyat kodeksining 3-moddasida insonparvarlik prinsipi aynan Namunaviy jinoyat kodeksi bilan bir xilda belgilangan [10].

Armaniston Jinoyat kodeksining 11-moddasida ham, insonparvarlik prinsipi dastlab Jinoyat kodeksi shaxsning jismoniy, ruhiy, moddiy, ekologik va boshqa xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilishi haqidagi norma bilan boshlangan [11].

Ozarbayjon Jinoyat kodeksining 9-moddasida insonparvarlik prinsipi Rossiya JKdagi norma bilan bir xil matnga ega [12].

Qirg‘iziston Jinoyat kodeksining 9-moddasida insonparvarlik prinsipi quyidagi tarzda bayon etilgan:

“1. Ushbu Kodeks eng oliy qadriyat sifatida shaxs, uning hayoti va salomatligi, sha’ni va qadr-qimmati, daxlsizligi va xavfsizligini himoya qilishni ta’minlaydi.

2. Sud jinoyat sodir qilgan shaxsni tuzatish, qayta ijtimoiylashtirish va yangi jinoyatlar sodir qilishining oldini olish, shuningdek, ijtimoiy adolatni tiklash maqsadida unga zarur va yetarli bo‘lgan darajada jazo tayinlaydi. Jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralari jismoniy azob uqubatlarga olib kelmasligi yoki inson qadr-qimmatini kamsitmasligi kerak.

3. Ushbu Kodeksga qilmishning jazoga sazovorligini va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini asossiz ravishda kuchaytiradigan o‘zgatirishlar kiritilishi mumkin emas” [13].

Turkmaniston Jinoyat kodeksining 3-moddasida insonparvarlik prinsipi “Jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamaydi” deb belgilangan [14].

Tojikiston Jinoyat kodeksining insonparvarlik prinsipi aynan O‘zbekiston Jinoyat kodeksi bilan bir xilda belgilangan [15].

Moldova Jinoyat kodeksining insonparvarlik prinsipi mazmuni ochib berilgan 4-moddasi birinchi qismida umumiy huquqiy tartibga solishning maqsadi, eng avvalo, jamiyatning oliy qadriyati sifatida shaxsni, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdir [16], deb belgilangan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turganidek, aksariyat MDH davlatlarining Jinoyat kodekslarida insonparvarlik prinsipi nafaqat jinoyat sodir qilgan shaxs, balki shaxs, jamiyat va davlat manfaati ham himoya qilinishi kerakligini nazarda tutadi.

Mamlakatimiz Jinoyat kodeksida esa insonparvarlik faqat jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan bo‘lib qolgani to‘g‘ri emas, deb hisoblaymiz.

So‘rov natijalari. Biz, surishtiruvchilar, tergovchilar va sudyalar o‘rtasida o‘tkazgan so‘rovimizda, Jinoyat kodeksining 4–10-moddalarida asosiy e’tibor jinoyat sodir etgan shaxslarga qaratilib jabrlanuvchi huquqlari chetda qolgan. Bu Jinoyat kodeksining 2-moddasida belgilangan “shaxsni ... jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash” vazifasiga mos emas. Ushbu fikr bo‘yicha munosabatingiz degan savolimizga quyidagicha javob oldik:

surishtiruvchi va tergovchilarning 61 %i to‘g‘ri, jabrlanuvchi huquqlarini ta’minlashga oid norma prinsiplarda ham aks ettirilishi kerak;

39 %i noto‘g‘ri, jabrlanuvchi huquqlarini ta’minlash boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi, deb javob berishgan.

Aynan shu savolga sud xodimlarining (Sudyalar oliy maktabi magistrantlari, amaldagi sudyalar) 87 %i to‘g‘ri, jabrlanuvchi huquqlarini ta’minlashga oid norma prinsiplarda ham aks ettirilishi kerak;

13 %i noto‘g‘ri, jabrlanuvchi huquqlarini ta’minlash boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi, deb javob berishgan.

Ko‘rinib turibdiki, amaliyot xodimlari ham jinoyat qonuni prinsiplarida jabrlanuvchi (nafaqat jismoniy shaxs, balki jamiyat va davlat)ni ham himoya qiladigan norma prinsiplar mazmunida bo‘lishi kerakligini ko‘rsatishgan.

Shu sababdan ham, insonparvarlik prinsipi belgilangan moddada jabrlanuvchi huquqi ham himoya qilinishi haqidagi norma bo‘lishi kerak deb hisoblaymiz.

Bu yerda, jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektlar, jumladan, shaxs, jamiyat va davlatni qo‘riqlash Jinoyat kodeksining 2-moddasida belgilangan asosiy vazifalarda borku, deb e’tiroz bildirilishi ham mumkin. Ammo, birinchidan, yuqorida biz

sanab o‘tgan davlatlar Jinoyat kodekslarining vazifalarida ham aynan shunday masalalar o‘rin olgan, ikkinchidan, prinsiplar jinoyat-huquqiy siyosatni yo‘naltiruvchi, jinoyat qonuni normalari uchun asos bo‘ladigan rahbariy qoidalar, g‘oyalar ekanligini hisobga olgan holda, o‘z-o‘zidan rahbariy, yo‘naltiruvchi g‘oyalarda jinoyat sodir etgan shaxs ham, jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxs ham birdek himoya qilinishi aks ettirilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Endi, insonparvarlik g‘oyasining, unda jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan azob bermaslik, kamsitishni qo‘llamaslikning bir qancha ijtimoiy asoslariga ham e’tibor qaratishimiz kerak.

Fikrimizcha, birinchidan, shaxs nima uchun jinoyat qiladi, degan ijtimoiy-siyosiy qarashlarda jinoyat sodir etilganligi uchun nafaqat uni sodir qilgan shaxs, balki jamiyat ham qandaydir ma’noda aybdor, degan qarash mavjud. Shaxslar odatda jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi, ular atrofdagilarning ta’siri oqibatida jinoyat sodir etishadi. Ya’ni shaxs jinoyatchi bo‘lishida jamiyatning ma’lum ma’noda hissasi mavjud, shuning uchun ham u shaxs tarbiyasidagi kamchiliklar, uning rivojidagi noqulay sharoitlar hamda uning g‘ayriijtimoiy xulqi rivojlanishidagi boshqa holatlar uchun aybdor.

Ikkinchidan, shaxs jamiyat uchun katta ahamiyatga ega. Jamiyat o‘z a’zosini qadrlashi, uning qilmishiga nisbatan haddan ortiq og‘ir javob chorasi qo‘llamasligi orqali, har bir shaxs jamiyat uchun qimmatli ekanligini namoyon qilishi kerak.

Uchinchidan, jinoyat sodir qilgan shaxsni ijtimoiy foydali ijtimoiy munosabatlarga qaytarish masalasi. Bunda shaxs, atrofdagilarning yaxshi munosabatini ko‘rganida jamiyat va davlatga nisbatan nafrat hissini tuymaydi.

Insonparvarlik prinsipi amaliy prinsip bo‘lib, Jinoyat kodeksining maxsus qismi moddalarida sanksiyalarning belgilanishida o‘ziga xos ahamiyatga ega. Insonparvarlik prinsipiga amal qilgan holda Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddalari sanksiyalari nisbiy muayyan va muqobil sanksiyalar tarzida shakllantirilgan. Shu yerda Jinoyat kodeksining Maxsus qismi sanksiyalarida nazarda tutilgan jazolarning quyi va yuqori chegarasi o‘rtasidagi farq, bir-biridan mutlaqo farq qiladigan jazo turlarining bir jinoyat uchun nazarda tutilishi haqiqatdan ham to‘g‘rimi?, degan savol yuzaga kelishi tabiiy hol.

Masalan, Jinoyat kodeksining 50-moddasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bir oydan yigirma yilgacha muddatga belgilanishi mustahkamlangan. Maxsus qismning ayrim moddalarida ozodlikdan mahrum qilishning minimal chegarasi belgilanmagan holda maksimal chegarasi 5 yil qilib belgilangan (masalan, 98-modda, 103[1]-modda birinchi qismi, 147-modda, 159-modda birinchi qismi) bo‘lib, bunda jazoning minimal va maksimal muddati o‘rtasidagi farq 60 baravarni tashkil qiladi. Yoki muqobil jazo turlari haddan tashqari keng holatlar – masalan, JK 167-moddasi ikkinchi qismida bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazolari nazarda tutilgan.

Bunday holatlar, jinoiy jazolarning samaradorligiga qanday ta’sir qiladi, aholida shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda nima uchun bunchalik keng imkoniyatlar yaratilgan, bu korrupsiyaga olib kelmaydimi?, degan savollarni keltirib chiqaradi.

Insonparvarlik prinsipining bunday qo‘llanilishi javobgarlikni differensiatsiya qilishning talablariga qanchalik mos keladi? Ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida odatda jazolar aniq (Fransiya), yoki muqobil jazolar ancha kam (odatda ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima Germaniya, Shveysariya) nazarda tutilganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, insonparvarlikni asos qilib, modda sanksiyasida nazarda tutilma-

gan yengilroq jazolarni tayinlash masalasi ham bor.

Sud amaliyoti. Ayniqsa mamlakatimizda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyati (266-modda) misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ushbu modda qismlariga qarab bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarimadan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Ammo amaliyotda, ushbu jinoyat tufayli odam (odamlar) o‘limi yoki boshqa og‘ir oqibatlar kelib chiqsa-da, sudlar tomonidan juda yengil jazolar tayinlanmoqda. Masalan, sudlanuvchi S.G‘ avtomashinada yo‘l-transport hodisasini sodir etishi tufayli ayol kishining o‘limiga sababchi bo‘lgan va uning qilmishi JKning 266-moddasi ikkinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilingan. Ushbu moddada muayyan huquqdan mahrum qilib, yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

Sud, S.G‘.ning aybiga to‘liq iqrorligini, qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymonligini va jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar qoplanganligini, JKning 55-moddasida nazarda tutilgan yengillashtiruvchi holatlar sifatida e’tiborga olgan va JK 57-moddasini qo‘llab modda sanksiyasida nazarda tutilmagan uch yil ozodlikni cheklash jazosini tayinlagan [17].

Shu yerda sudning jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplaganligini yengillashtiruvchi holat deb topganligi hayron qoldirdi, jabrlanuvchi vafot etgan bo‘lsa, qanday unga yetkazilgan zarar qoplanishi mumkin, ish materiallarida jabrlanuvchini dafn etish xarajatlari qoplab berilganligi ko‘rsatilgan bo‘lib, dafn etish xarajatlarining qoplanishini yetkazilgan zararni bartaraf etilgan deb topilishi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilishi kerak.

Mamlakatimizda yo‘l-transport hodisalari tufayli o‘lim yuz berishi dunyo bo‘yicha ancha yuqori o‘rinlarda turishi, birgina 2021-yilning 10 oyi davomida yo‘l transport hodisalari tufayli 1964 nafar kishi hayotdan ko‘z yumganligi, 6886 kishi turli darajada tan jarohati olganligi [18] sharoitida sudlar tomonidan aybdorlarga bunday yengil jazo berilishini, insonparvarlik bilan bog‘lash qanchalik to‘g‘ri bo‘ladi?

Shu sababdan ham insonparvarlik faqat jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan bo‘lib qolgan, degan fikrimizda qat’iymiz.

V.V. Malsev insonparvarlik prinsipi haqida so‘z yuritib, uning keng va tor ma’noda mazmuni borligini qayd etadi. Insonparvarlik keng ma’noda olganda jamiyat va davlatning insonparvarlik g‘oyalari, shaxsning huquq va manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan. Shu sababdan ham insonparvarlik prinsipi faqat jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan muomalada bo‘lish bilan cheklanib qolmasdan, balki jinoyat-huquqiy qo‘riqlash nuqtayi nazaridan bo‘lishi kerak [19].

Biz, bu fikrga qo‘shilgan holda, mamlakatimiz Jinoyat kodeksida insonparvarlik g‘oyalari 7-moddada belgilanganligidan ko‘ra kengroq ifoda etilganligini qayd etish lozim.

Jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan insonparvar munosabatda bo‘lish, unga nisbatan jazolash choralarini tejashda namoyon bo‘ladi.

JKning Umumiy qismi qoidalarida sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni hisobga olishi (54-modda), jazoni yengillashtiruvchi holatlarni qo‘llashda sudga berilgan imkoniyatlar (55-modda), jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarni og‘irlashtiruvchi holat deb topmaslik bo‘yicha sudning vakolatlarida (56-modda), yengilroq jazo tayinlashda (57, 571-moddalar), javobgarlikdan va jazodan ozod qilishda (XII, XIII-boblar) ham insonparvarlik g‘oyalari aks ettirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari JK Maxsus qismining 27 ta

moddasida javobgarlikdan va 6 ta moddasida jazodan ozod qilishga oid normalarida ham insonparvarlik prinsipi ko‘rinishlari sifatida qayd etish lozim.

Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risidagi Oliy sud Plenumi qarorining 5-bandida sudlar ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, shuningdek, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan va jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatilishi mumkin bo‘lgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar tayinlash uchun qonunda mavjud barcha imkoniyatlardan to‘liq foydalanishlari kerakligi, qonun normasi sanksiyasida alternativ jazolar mavjud bo‘lganda hukmda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazoni qo‘llash zarurligi to‘g‘risidagi masala muhokama etilishi shartligi belgilanganligini ham insonparvarlik prinsipi ijrosi hisoblanadi.

Ushbu prinsip sudlar tomonidan hukmlarni asoslashda keng qo‘llanilishini ham qayd etib o‘tish lozim.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovda respondentlarga Jinoyat ishi bo‘yicha qaror chiqarishda bevosita Jinoyat kodeksi 4-10-moddalarida belgilangan prinsiplarga havola qilganmisiz (o‘z qaroringizni asoslantirishda prinsiplarni ko‘rsatganmisiz?) degan savolga surishtiruvchi va tergovchilarning 32 %i ha qarorlarimda prinsiplarga bevosita havola qilganman deb, 68 %i yo‘q, qarorlarni asoslantirishda JK tegishli moddalarini ko‘rsatib o‘tish yetarli deb javob berishgan. Xuddi shu savolga sudyalarning 67 %i prinsiplarni qarorlarida ko‘rsatishini, 33 %i esa, ko‘rsatmasligini bildirishgan.

Ko‘rinib turibdiki, sudlar tomonidan qaror chiqarishda bevosita prinsiplarga murojaat qilish ko‘p uchraydi, chunki aynan sud jinoyat ishi bo‘yicha yakuniy qarorni qabul qiladi va o‘z qarorini asoslantirish uchun ko‘proq asoslar topishga harakat qiladi.

Tadqiqot davomida 1000 dan ortiq sud qarorlari (hukm va ajrimlar) o‘rganildi. Jumladan, prinsiplarga asoslanib chiqarilgan hukmlarning barchasi (100 %) insonparvarlik prinsipiga murojaat qilinganligini kuzatdik. Tahlil sudlar tomonidan sanksiyada belgilanganidan ham kamroq yoki sanksiyada belgilanmagan jazo tayinlash (57-modda)da asoslantirish qismini kuchaytirish uchun albatta insonparvarlik prinsipiga murojaat qilishganligi aniqlandi.

Xulosalar

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, insonparvarlik prinsipi Jinoyat kodeksining 7-moddasida faqat jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan insonparvar munosabatda bo‘lishga qaratilib qolganligi to‘g‘ri emas deb hisoblaymiz. Insonparvarlik, Jinoyat kodeksining 2-moddasi talablaridan kelib chiqqan holda, jabrlanuvchining huquqlarini ta’minlashga nasbatan ham qo‘llanilishi va 7-moddada o‘z aksini topishi kerakligini qayd etgan holda, Jinoyat kodeksining 7-moddasini quyidagi tahrirda bayon etishni taklif qilamiz:

“7-modda. Insonparvarlik prinsipi

Jinoyat kodeksi shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlaydi.

Jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamaydi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo‘ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishi kerak.

Jazolashdan ko‘zlangan maqsadga ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddalarida nazarda tutilgan yengilroq choralarni qo‘llash orqali erishib bo‘lmaydigan taqdirdagina og‘irroq jazo choralari tayinlanishi mumkin”.

REFERENCES

1. International Covenant on Civil and Political Rights. Available at: https://actforequal.org/library/universal-hujjatlar/hujjatlar/fuqarolik-va-siyosiy-huquqlar-togrisidagi-xalqaro-pakt/?lang=uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev to the Oliy Majlis]. Available at: https://uza.uz/ru/posts/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeevas-28-12-2018

3. Rustambaev M.X., Tuxtasheva U.A. Sudebno-pravovaya reforma v Respublike Uzbekistan: popytka osmysleniya [Judicial and legal reform in the Republic of Uzbekistan: an attempt to comprehend]. Tashkent, TSUL Publ., 2010.

4. Abdurasulova Q.R., Salaev N.S., Karaketova D.Yu. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish muammolari [Problems of decriminalization of crimes in the field of economy]. Tashkent, TSUL Publ., 2014.

5. Yakubov A.S. Pravovaya osnova ucheniya o prestuplenii: predposylki, realnost, perspektivy [Legal basis of the doctrine of crime: background, reality, prospects]. Doctor’s degree dissertation. Tashkent, 1996.

6. Kabulov R., Narbutaev E. Ugolovnaya politika i yee realizatsiya v deyatelnosti organov vnutrennikh del [Criminal policy and its implementation in the activities of internal affairs bodies]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2006.

7. Beyleveld H.B. Understanding Justice: An Introduction to Ideas, Perspectives and Controversies in Modern Penal Theory. Buckingham, England: Open University Press., 1996, p. 23.

8. Model Criminal Code for the member states of the Commonwealth of Independent States. Available at: https://www.icrc.org/ru/doc/assets/files/other/crim.pdf

9. Criminal Code of the Russian Federation. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/

10. Criminal Code of the Republic of Belarus. Available at: https://kodeksy-by.com/ugolovnyj_kodeks_rb.htm

11. Criminal Code of the Republic of Armenia. Available at: http://www.parliament.am/legislation.php?...&lang=rus&sel=show

12. Criminal Code of the Republic of Azerbaijan. Available at: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420353

13. Criminal Code of the Kyrgyz Republic. Available at: http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/112309

14. Criminal Code of Turkmenistan. Available at: http://www.untuk.org/publications/legislation/ug_kod/rz_01.htm#st003

15. Criminal Code of the Republic of Tajikistan. Available at: http://ncz.tj/content/%D1%83...B0%D0%BD

16. Criminal Code of the Republic of Moldova. Available at: https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=125325&lang=ru

17. Verdict of the Vobkent District Court on criminal cases dated October 31, 2022 on criminal case No. 1-2005-2201/154. Available at: https://public.sud.uz/report/CRIMINAL

18. About 2 thousand deaths in 10 months. Accident statistics were published in Uzbekistan Available at: https://kun.uz/news/2021/11/13/10-oyda-salkam-2-ming-kishi-yol-transport-hodisalariga-doir-statistik-malumot-elon-qilindi

19. Maltsev V.V. Printsipy ugolovnogo prava [Principles of criminal law]. Volgograd, 2001, 266 p.

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./EJUO6154
UDC: 343.2(045)(575.1)

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR JINOYATCHILIGINING HOZIRGI HOLATI

Xodjayev Shohrux Muzaffarovich,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy
siyosat instituti katta ilmiy xodimi
ORCID: 0009-0001-3211-2053
e-mail: zoomjph@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muallif O‘zbekiston Respublikasidagi zamonaviy ayollar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi, uning oldini olish, profilaktika o‘tkazish va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari tizimini keyinchalik ishlab chiqish uchun asos sifatida keltirgan. Maqolada, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning tasnifi o‘rganilgan. So‘nggi o‘n yil ichida ayollar jinoyatchiligi darajasining miqdoriy ko‘rsatkichlari uning tendensiyalari va dinamikasini baholashga imkon beradi. Maqolada ayollar jinoyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, g‘arazli va zo‘ravonlik orqali sodir etilgan jinoyatlar tarkibi tahlil qilindi, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar turlari sanab o‘tildi, ayollarning jinoiy xatti-harakatlarining salbiy tendensiyalari ko‘rsatildi. Muallifning ta’kidlashicha, ayollar va erkaklar jinoyatchiligining sifat xususiyatlari yaqinlashishi, ayollar jinoyatchiligining shafqatsizligi kuchayishi, ayollar jinoiy muhitining professionalligi va tashkilotchiligi oshishi, retsidivlarning ko‘payishi, jinoyat subyektlarining yosharishi ushbu hodisaning ijtimoiy xavfliligi ortganligidan dalolat beradi. Mahkum ayollarni jazoni o‘tash davriga moslashtirish va qayta ijtimoiylashtirish bo‘yicha umumiy chora-tadbirlar ishlab chiqish, mahkum ayollarning qonunga bo‘ysunish xulq-ayvorini ta’minlash maqsadida ularni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirishga oid zarur xulosalar olindi.*

Kalit so‘zlar*: ayollar jinoyati, g‘arazli jinoyatlar, zo‘ravonlik jinoyatlari, antisotsial xatti-harakatlar, kriminogen faoliyat.*

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЖЕНСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Ходжаев Шохрух Музаффарович,
старший научный сотрудник
Института законодательной
и правовой политики
при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. *В настоящей статье авторы дают криминологическую характеристику современной женской преступности в Республике Узбекистан как основы для последующей выработки системы мер по ее профилактике, предупреждению и противодействию. В статье изучаются классификация в Республике Узбекистан преступлений, совершаемых женщинами. Приводятся количественные показатели уровня женской преступности за последнее десятилетие, позволяющие оценить ее тенденции и динамику. Исходя из специфических особенностей женской преступности, проанализирована ее структура, в которой выделены корыстные и насильственные преступления, названы виды преступлений, преимущественно*

совершаемые женщинами, подчеркнуты негативные тенденции женского криминального поведения. Авторы доказывают, что сближение качественных характеристик женской и мужской преступности, усиление жестокости женской преступности, укрепление профессионализма и организованности женской криминальной среды, рост рецидивов, омоложение субъектов преступлений свидетельствуют о возрастании общественной опасности данного явления. Автор приходит к выводу о разработке общих мер по адаптации и ресоциализации осужденных женщин в период отбывания наказания, усовершенствовании системы стимулов и поощрений для осужденных женщин для того, чтобы обеспечивать их правопослушное поведение и полезную деятельность.

Ключевые слова: *женская преступность, корыстные преступления, насильственные преступления, антиобщественное поведение, криминогенная активность.*

CURRENT STATUS OF FEMALE CRIME IN UZBEKISTAN

Xodjayev Shoxrux Muzaffarovich,
Leading Researcher, Institute of Legislative and
Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *In this article, the author gives a criminological description of modern female crime in the Republic of Uzbekistan as the basis for the subsequent development of a system of measures for its prevention and counteraction. The article studies the classification of crimes committed by women in the Republic of Uzbekistan. Quantitative indicators of the level of female crime over the past decade are given, allowing us to assess its trends and dynamics. Based on the specific features of female crime, its structure is analyzed, in which mercenary and violent crimes are singled out, the types of crimes predominantly committed by women are named, and negative trends in female criminal behavior are emphasized. The author argues that the convergence of the qualitative characteristics of female and male crime, the increase in the cruelty of the female crime, the strengthening of the professionalism and organization of the female criminal environment, the growth of recidivism, the rejuvenation of the subjects of crime indicate an increase in the social danger of this phenomenon. The author concludes that the development of general measures for the adaptation and resocialization of convicted women during the period of serving their sentence, and the improvement of the system of incentives and rewards for convicted women to ensure their law-abiding behavior and useful activities.*

Keywords: *female crime, acquisitive crimes, violent crimes, antisocial behavior, criminal activity.*

Kirish

Milliy kriminologiyaning mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ayollar jinoyatchiligi masalasi so‘nggi yigirma yillikdagina shakllana boshladi. Bu holat, bizningcha, kriminologik ma’lumotlarni to‘plash va boyitish, tadqiqot ko‘lamini kengaytirish istagi bilan bog‘liq. Ayollar jinoyatchiligi muammosining paydo bo‘lishi nafaqat kriminologiyaning rivojlanish mantig‘i, balki amaliyot ehtiyojlari, birinchi navbatda, ayollarning g‘ayriijtimoiy harakatlarining ko‘lami va xavfli oqibatlari bilan ham belgilanadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ayollarning jinoiy xulq-atvori erkaklarning jinoiy xulq-atvoridan jinoyatni sodir etish usullari va vositalari, ularning ko‘lami, jinoiy xatti-harakatlarning xarakteri, jinoiy tajovuz qurbonini tanlash bilan farq qiladi. Albatta, bugungi kunda hayotning ijtimoiy shart-sharoitlari va undagi ayollarning roli o‘zgarmoqda. G‘ayriijtimoiy xulq-atvor tabiati, jinoyatlarning sodir etish usullari ham o‘zgarib bormoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimiz ayollar jinoyatchiligiga to‘g‘ri baho berish, jinoyat-

chi shaxsini tushunish va uning jinoiy xatti-harakati sabablarini tushuntirish va ularga baho berishda ortda qolmoqda. Gap shundaki, jinoyatlarning asosiy qismi erkaklar tomonidan sodir etiladi, ammo bu ayollar jinoyatchiligi mavjud emas, degan emas.

Material va metodlar

Tadqiqot ishida qiyosiy-huquqiy va statistik tahlil metodidan foydalanildi. Ishda umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari ham qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalari

Bugungu kunda ayollar jinoyatchiligi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri ayollar jinoyatchiligining yanada ortib borishidir. Fikrimizni statistik ma’lumotlar orqali asoslaydigan bo‘lsak, O‘zbekistonda jinoyat sodir etish ishtirokchilari orasida ayollar jinoyatlarining ulushi 70–80-yillarda 5-6 foiz, 90-yillarda 10 foizgacha yetgan bo‘lsa, so‘nggi o‘n yillikning turli yillarida bu ko‘rsatkich 45,5 foizga (2012-yil) yetdi. Oliy sud tomonidan taqdim etilgan statistik ma’lumotlarga asosan, 2020-yilda sudlangan ayollar soni 3 027 nafar, 2021-yilda 5 040 nafar, 2022-yilda esa 6 497 nafarni tashkil etmoqda. Mazkur statistik ma’lumotlar ham yurtimizda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sonining oshib borishini ko‘rsatmoqda.

Ayolning jinoyat sodir etishi, ayniqsa, zo‘ravonlik natijasida jinoyatga qo‘l urishi har doim favqulodda hodisa bo‘lib, uning atrofidagilar tomonidan ayol erkakka qaraganda o‘zining g‘ayrioddiy xatti-harakatlari uchun ko‘proq va qattiqroq qoralanadi. Tarixan shu narsa ayon bo‘ladiki, ayollar jinoyatchiligida qasd bilan sodir etilgan jinoyatlar ustunlik qiladi. So‘nggi besh yilda xotin-qizlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish tartibini buzish holatlari biroz ko‘paygani buning dalilidir.

Biroq olingan ma’lumotlar haqiqiy vaziyatni aks ettirmaydi, chunki bu jinoyatlarning latentligi juda yuqori. Ko‘pincha oz miqdordagi mablag‘ni o‘zlashtirib, jinoyat ustida qo‘lga olingan ayollar jazolanmaydi. Ular yuzasidan materiallar tegishli choralar ko‘rish uchun tashkilotlarga yuboriladi. Bunda ularning ko‘pchiligining voyaga yetmagan bolalari, ko‘pincha murakkab oilaviy sharoiti borligi inobatga olinib, shunday qarorga kelinadi.

Biroq ularga nisbatan qilingan rahm-shafqatli qarorlar har doim ham o‘zini oqlamaydi, chunki qilmishidan pushaymon bo‘lish, tavba qilish faqat jinoyat uchun jazolanishi kerak bo‘lgan taqdirdagina keladi. Bunday “rahm-shafqat” axloqiy va psixologik oqibatlarga olib keladi, ayniqsa, zamonaviy sharoitlarda ayollarning xatti-harakatlariga salbiy ta’sir qiladi. Uning ayol ekani, oilasi, farzandlari uchun jinoyatga qo‘l urayotgani go‘yo boshqalarning ko‘z o‘ngida o‘zini oqlayotgandek, ularni ham shunga o‘xshash ishlarga undaydi.

Ayollar jinoyatchiligi muammolarini o‘rganishda har doim erkaklar jinoyatchiligidan farq qiluvchi miqdoriy va sifat xususiyatlari hamda uning o‘ziga xosligi ta’kidlangan.

Jinoyatlar ulushi tarkibini hisobga olgan holda, shuni aytish kerakki, 2022-yilda mamlakatimizda ayollar jinoyatchiligi umumiy jinoyatlar ulushi tarkibida 14,8 foizni tashkil etadi, ya’ni 2012-yil darajasida saqlanib qolgan, ayrim yillarda 17,0 % (2012), 17,2 % (2013)ga yetgan.

Biroq nisbatan past darajaga qaramay, ayollar jinoyatchiligi alohida e’tibor talab qiladi. Bu, xususan, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ancha murakkab tizim – umumiy jinoyat tarkibidagi quyi tizim bo‘lib, o‘zaro bog‘langanligi va ma’lum darajada uning boshqa tarkibiy qismlariga ta’sir qilishi bilan bog‘liq. Masalan, u voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki uning yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta’siri erkaklar jinoyatchiligiga qaraganda ko‘proq halokatli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi kunda ayollar jinoyatchiligi muammosining dolzarb ekanligidan kelib

chiqib, ushbu masalani bir qator olimlar, jumladan, K.R. Abdurasulova [1, 23-b.], S. Xodjayeva [2, 20-21-b.], A.Y. Pulatova [3, 125-b.], G. Sharipova [4, 72-b.] va boshqalar [5, 150-b.] o‘rgangan. Ularning ilmiy ishlarida ayollar jinoyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari, erkaklar jinoyatidan farq qiluvchi sifat va miqdor belgilari ochib berilgan bo‘lib, bu ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni barcha jinoyatlarning mustaqil tarkibiy elementi sifatida ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda ayollar tomonidan tovlamachilik, qotillik, odam savdosi, talonchilik, tan jarohati yetkazish, bezorilik kabi zo‘ravonlik jinoyatlari ham sodir etilmoqda. Aytish kerakki, ko‘plab ayollar yuzaga kelayotgan nizolarni jismoniy kuch ishlatib hal qilishga moyil. Lekin ko‘pincha ayollarning zo‘ravonligi oilaviy nizolar va kelishmovchiliklar, jinsiy xiyonat asosida sodir etiladi. Odatda, ularning qurbonlari erlar, birga yashovchilar, qo‘shnilar, qarindoshlar va tanishlar bo‘ladi.

Olingan datslabki ilmiy natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ayollar iqtisodiy sohada ham jinoyat sodir etishadi. Bular, birinchi navbatda, firibgarlik, litsenziyasiz faoliyat bilan shug‘ullanish, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan birovning mulkini talon-toroj qilish, o‘g‘rilik, valyuta boyliklarini qonunga xilof ravishda egallash yoki sotish, bojxona qonunchiligini buzish, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi va hokazo. Bu, asosan, ushbu jinoyatlar sodir etilayotgan iqtisodiyot tarmoqlarida (savdo, umumiy ovqatlanish, moliya-kredit va boshqalar) mehnat qilayotganlar orasida ayollar salmog‘ining yuqoriligi, shuningdek, kundalik hayotda rollarning an’anaviy taqsimlanishi bilan bog‘liq.

Tadqiqot natijalari tahlili

O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar o‘rtasidagi jinoyatchilikning asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilganda, jinsidan qat’i nazar, barcha jinoyatchilarga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar va o‘ziga xos belgilar ham ko‘zga tashlanadi [6, 551-b.].

Birinchidan, ayollar tomonidan sodir etiladigan barcha jinoyatlarni ularning kasbiy faoliyati va oilaviy-maishiy munosabatlari bilan bog‘liq holda ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin: birinchi guruh doirasida ko‘proq qasddan sodir etiladigan jinoyatlar; ikkinchi guruhda esa zo‘ravonlik natijasida sodir etiladigan jinoyatlar ro‘y beradi. Birinchi guruh ikkinchisiga qaraganda ancha katta.

Ikkinchidan, ayollar jinoyatchiligi darajasi erkaklarnikiga qaraganda ancha past, ammo keyingi yillarda uning umumiy jinoyatlar tarkibidagi ulushi ortib bormoqda. Yollanma jinoyatlar darajasi, asosan, ularning iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida bandligi, ular uchun ma’lum moddiy ne’matlardan foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ular o‘z oilasi va farzandlari uchun erkaklarnikiga qaraganda ko‘proq bunday huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yishadi.

Uchinchidan, hozirgi vaqtda ayollar o‘rtasida zo‘ravonlik jinoyatlarining biroz ko‘payishi, ularning xatti-harakatlarida tajovuzkorlik va shafqatsizlikning namoyon bo‘lishi kuzatilmoqda. Ular an’anaviy “erkaklar” jinoyatlarini sodir eta boshladilar, masalan, talonchilik, firibgarlik va bosqinchilik kabi. Bu faktlar jamiyatni alohida tashvishga solishi kerak.

To‘rtinchidan, ayollar jinoyatchiligi ular sodir etayotgan jinoyatlarning ko‘pligi tufayli uning tuzilishining o‘ziga xosligi, jamiyatga ta’siri, axloqiy-psixologik muhitining mustaqil shaklidir.

Ayollar jinoyatining ijtimoiy xavfi ortishi shundan iboratki, ularning g‘ayriijtimoiy, jinoiy xulq-atvori kundalik hayotga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, oila asoslarini buzadi va asosiy ijtimoiy institutlarni vayron qiladi.

Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni o‘rganishning murakkabligi ularning obyektiv elementlar va subyektiv elementlar asosda ajratilganligi bilan bog‘liq,

ya'ni subyektning jinoyatchi shaxsi sifatidagi aloqasi va jinoyat sodir etish xususiyatlari aniqlanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar, afsuski, jinoyatchi ayol shaxsidagi o'zgarishlar, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga ba'zi ijtimoiy omillarning ta'siri darajasi to'g'risida to'liq ma'lumot olishga imkon bermaydi. Shu bilan birga, mavjud empirik ma'lumotlar jinoyatchi ayolning shaxsiyati noyob degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi:

– ayol xulq-atvorini belgilaydigan va shakllantiradigan turmush sharoitlari uning shaxsiyatiga sezilarli darajada ta'sir qiladi, keyinchalik bu uning xatti-harakatlarining ijobiy va salbiy shakllarida amalga oshiriladi;

– jinoyatchi ayol shaxsini o'rganishda uning faoliyat sohalarining xususiyatlari, uning jamiyatda bajaradigan funksiyalarini ochib berish muhim ahamiyatga ega. Agar ayol o'zi uchun belgilangan rolni bajarmasa yoki bajara olmasa, bu, birinchi navbatda, uning mavqeyida namoyon bo'ladi. Chunki vazifalar va tegishli funksiyalardan bosqichma-bosqich ozod qilish shaxsiy mulklar hajmining mutanosib ravishda torayishiga olib kelib, shaxsiyat tuzilishining deformatsiyasiga ta'sir qiladi [7, 69-b.]. Shu bilan birga, masalan, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi shaxsini kechikib yoki rasmiy ravishda o'rganish o'ta noqulay oqibatlarga olib kelishi mumkin [8, 30-b.].

Jinoyatchi shaxsining ijtimoiy-demografik xususiyatlarida asosiy elementlardan biri – bu uning yoshi hisoblanadi. U odamlarning xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki u ko'p jihatdan muayyan shaxsning ehtiyojlari va qiziqishlari tizimini belgilaydi va "har bir rivojlanish bosqichida shaxs o'zining ijtimoiy mazmuni bilan bir xil emas" [9, 57-b.].

Mazkur muallifning fikrlariga qo'shilgan holda, shuni aytish mumkinki, jinoyatchi shaxsini aniqlashda shaxsning ijtimoiy-demografik xususiyati birlamchi ahamiyatga ega. Chunki shaxsning yashash joyi kriminogen hudud bo'lishi, shu hududdagi kriminogen muhit uning jinoyat sodir etishiga sabab bo'lishi mumkin. Mazkur holat, o'z navbatida, shaxsni aybdor deb topishda isbot qilinishi lozim. Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasida ayblash va hukm qilish uchun asoslar keltirilgan bo'lib, mazkur normaga asosan, vakolatli organlar ayblanuvchi va sudlanuvchi shaxsini tavsiflovchi holatlarni aniqlashlari talab etiladi.

Bugungi kunda ayollar jinoyatchiligini aniqlash va ularning oldini olishdagi asosiy muammo ularning jinoyat sodir etganidan keyin tayinlangan jazoning ijro etish bosqichida yuzaga kelmoqda. Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksining 533-moddasida hukmning ijrosini kechiktirish asoslari keltirilgan bo'lib, hukmni ijro etish paytigacha mahkuma homilador bo'lib qolsa – bir yildan oshiq bo'lmagan muddatga hamda mahkumaning yosh bolasi bo'lsa – u uch yoshga to'lgunga qadar ozodlikdan mahrum etilgan ayollarga nisbatan hukm ijrosi kechiktiriladi. Bu esa ularning "ochiqda yurishi"ga sharoit yaratib, qayta jinoyat sodir etishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, agarda Jinoyat kodeksining 69-moddasiga asosan, jazoni ijro etish muddati o'tib ketgan taqdirda, ular jazodan ozod qilinadi. Mazkur holat jazolashdan ko'zlangan maqsadga erishishga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi o'n yillikda ayollarning kriminogen faollik yoshi (22-29 yoshdan 30–49 yoshgacha) o'sishi kuzatildi. Shu yoshdagi ayollarning fikrlashi ma'lum bir stereotipi, o'rnatilgan odatlari, qarashlari va qadriyat yo'nalishlarini ishlab chiqqan ayollar toifasidir. Bu ularning ushbu davrda ijtimoiy ishlab chiqarishdagi eng faol ishtiroki kuzatilayotgani, ijtimoiy aloqalari kengayishi, ijtimoiy harakatchanlikda maksimal darajaga yetganligi bilan bog'liq [10, 31–32-b.]. Bu yoshda ayollar ko'pincha rahbarlik lavozimlariga tayinlanadi.

Hayotiy qadriyatlar va qiziqishlar shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan shaxsni tavsiflashda ta’lim darajasi muhim ahamiyatga ega. So‘nggi o‘n yil ichida u biroz oshdi, garchi jinoyatchilar orasida eng katta ulush hali ham to‘liq o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslarga (30 foizga yaqin) to‘g‘ri kelsa-da, o‘rta maxsus ma’lumotli shaxslar 35 foizdan ko‘proqni tashkil qiladi.

Jinoyatchi ayollarning ijtimoiy-demografik xususiyatlarining muhim ko‘rsatkichi sudlanganlik yoki hibsga olingan paytdagi mashg‘ulot toifasi hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bu ayollarning aksariyati muayyan kasblarga ega emas (ularning deyarli yarmi ishlamagan va o‘qimagan). Yakka tartibdagi mehnat (tadbirkorlik) faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mahkuma ayollar salmog‘i bosqichma-bosqich ortib bormoqda [11, 92-b.].

An’anaga ko‘ra, inson uchun eng muhim qadriyat – bu oila. Kriminologik ma’noda oilaning ta’siri ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin, lekin hech qanday holatda neytral emas. Oilaviy holat, ayniqsa, oiladagi nizolarning mavjudligi va tabiati ayolning o‘zi tomonidan ham, uning eng yaqinlari tomonidan ham turmush darajasining ko‘rsatkichi sifatida qabul qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, jinoyat sodir etilgan paytda ayollarning yarmidan ko‘pi turmushga chiqqan bo‘ladi. Bunday holatlarda ularga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazolar kamdan kam holatlarda beriladi.

Jinoyat sodir etishning eng keng tarqalgan motivlari: boshqalardan “yomon yashamaslik”; o‘zi va yaqinlarini eng zarur narsalar bilan ta’minlash; “siz chiroyli yashashni taqiqlay olmaysiz” tamoyiliga ko‘ra o‘z zavqi uchun yashash; spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni sotib olish istagi.

Shu bilan birga, ayollar o‘rtasida ham yollanma, ham zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etish va jinoiy faoliyatni rag‘batlantirishda ularning yaqinlari hayoti bilan bog‘liq motivlar katta ahamiyatga ega.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, jinoyatchi ayolning xatti-harakati ko‘pincha rag‘batlantirish motivlari bilan bir qatorda, oila yoki farzandlari, yaqinlari manfaatiga qaratilgan xatti-harakatlarini oqlash motiviga asoslanadi. Ayniqsa, bunday holatlar oilaviy asosda jinoyat sodir etishda, jabrlanuvchilarning qarindoshlari yoki tanishlari bo‘lganda namoyon bo‘ladi.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, mahkum ayollarning ma’lum bir qismi sudlanganga qadar fohishalik bilan shug‘ullangan. Ular orasida bolali ayollar ham ko‘p. Jinoyatchi ayolga xos bo‘lgan yana bir jinoiy-huquqiy belgi sudlanganlikdir. Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar umumiy sonining 70 foizdan ortig‘i birinchi marta, 25 foizdan ortig‘i ikkinchi marta va 5 foizga yaqini uchinchi marta va undan ortiq marta sodir etilgan. Ularning qayta-qayta sodir etayotgan jinoyatlari ko‘pincha bir-biri bilan bog‘liq, lekin jinoyat tarkibining turli birikmalari ham mavjud.

Ozodlikdan mahrum qilish tarzida tayinlangan jazo muddatiga kelsak, jinoyatning ijtimoiy xavfliligi va mahkumning xususiyatini ko‘rsatuvchi jinoiy-huquqiy xususiyatning muhim ko‘rsatkichi sifatida 1 yildan 3 yilgacha qisqartirish mavjud, va aksincha, 3 yildan ortiq jazo muddati oshirilishi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, ayollarga hukm chiqarish amaliyotining yana bir xususiyatini ta’kidlash lozim. Qoidaga ko‘ra, ular erkaklarnikiga qaraganda yengilroq jazolarga hukm qilinadilar. Bu ma’lum darajada ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi, shuningdek, sodir etgan jinoyatlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazo ayollar uchun liberallashtirilganidan dalolat beradi.

Jinoyatchilarni kriminologik tavsiflashda axloqiy va shaxsiy xususiyatlar, deformatsiya va kriminogenlik darajasi, mavjud hayotiy vaziyatlar va ularning shaxsga ta’sir qilish darajasi katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar natijasida jinoyat sodir etgan

ayollarning 70 %dan ortig‘ida tavba qilish, taxminan 40 %ida o‘z aybini to‘liq tan olish, 30 %dan ortig‘ida aybini qisman tan olish, qolgan 25 %ida esa aybini tan olmaslik kuzatildi.

Mahkum ayollarning psixologik fazilatlarini o‘rganish ularda ko‘proq doimiy affektiv, psixo-travmatik tajribalar, yuqori impulsivlik ajralib turishini ko‘rsatdi. Ular hayotiy vaziyatlarni e’tiborsiz qoldiradilar yoki yetarli darajada idrok etmaydilar va baholaydilar; o‘z harakatlarining oqibatlarini yomon bashorat qiladilar, tajribani hisobga olmaydilar; ularning xatti-harakatlari har doim tartibsizdir [12, B.146]. Shuning uchun ularning noqonuniy xatti-harakatlari himoya xarakteriga ega bo‘lib, o‘zi yoki oilasini himoya qilishga qaratilgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ma’lum fiziologik jihatdan aniqlangan davrlarda ayollarda ruhiy jarayonlarning beqarorligi kuchayishi mumkin va mahkum ayollarning aksariyati aql-idrokni istisno qilmaydigan nevrotik kasalliklarga chalingan [13, 83–84-b.]. Shuning uchun mahkum ayollarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish uchun taklifga asoslangan usullar elementlari (avtojenik tayyorgarlik, o‘z-o‘zini gipnoz qilish va boshqalar) bilan salbiy ruhiy holatlarni qoplash imkonini beradigan psixologik-pedagogik usullar ishlab chiqish lozim.

Ayollarni jinoyatga undaydigan asosiy sabablarni o‘rganmasak, O‘zbekistonda ayollar jinoyatchiligining bugungi ahvoli haqida to‘liq ma’lumot olib bo‘lmaydi.

Dunyodagi har bir davlat, shu jumladan, O‘zbekistonning ham zamonaviy taraqqiyot tahlili jamiyatda jinoyatchilik kabi salbiy hodisaning mavjudligi, bunda ayollar jinoyati ham ma’lum o‘rin egallaganidan dalolat beradi. Aytish kerakki, O‘zbekistonda bu unchalik ahamiyatsiz bo‘lsa-da, ayni paytda “Ayollar nima uchun jinoyat qiladi?”, “Ayollarning jinoyat sodir etishiga qanday sabab va shartlar bor?” degan savollar jamiyatni tashvishga solmoqda.

Bu savollarga qisqacha javob berishga harakat qilamiz.

Birinchidan, ayollar jinoyatchiligi, umuman olganda, jinoyatchilik ijtimoiy xususiyatga ega. Ular jamiyat hayotining o‘ziga xos tarixiy sharoitlari, uning yetakchi institutlarining mazmuni va yo‘nalishi, asosiy qarama-qarshiliklarni hal etishning mohiyati va usullari, ijtimoiy munosabatlar tizimida ayollarning tutgan o‘rni bilan bog‘liq.

Barcha jinoyatlar singari uning “ayol” qismi ham ijtimoiy rivojlanish jarayonida doimiy ravishda qayta tiklanadigan muqarrar va tabiiy hodisadir. Ayollar jinoyati darajasining kamayishi yoki ortishi tashqi muhitga bog‘liq, ba’zi hollarda ayollar jinoyati o‘zini ko‘paytirishga qodir (masalan, retsidiv jinoyatlar doirasida), lekin har doim ijtimoiy omillar yordami bilan. Bularga boshqa jinoyat turlari ham kiradi (masalan, yollanma jinoyatlar).

Ikkinchidan, ayollarning jinoyat sodir etishiga sabab bo‘lgan holatlar, umuman olganda, jinoyat sabablarining bir qismidir. Batafsilroq yondashuvni ham taxmin qilish mumkin, masalan, ayollarning yollanma jinoyati barcha yollanma jinoyatlarni keltirib chiqaradigan harakat va sabablar natijasidir. Ularning zo‘ravonlik jinoyati – bu harakat natijasi va barcha zo‘ravonliklarni keltirib chiqaradigan sabablar va boshqalar.

Uchinchidan, sabablarni tahlil qilishning ikkita asosiy darajasini ajratib ko‘rsatish mumkin: umuman ayollar jinoyatchiligi va ularning individual noqonuniy xatti-harakati. Ular chambarchas bog‘liq. Umumiy tartibning holatlari shaxslarning o‘ziga xos harakatlarida namoyon bo‘ladi. Jinoyat sabablari shaxsning odob-axloqi shakllanishi, ularning hayotiy vaziyatlar va konfliktlarga munosabati hamda reaksiya turlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ayollar va erkaklar jinoyatchiligi umumiy sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Biroq bir vaqtning o‘zida xatti-harakatlar darajasida harakat qilish bilan birga, har bir holatda ular

turli xil natijalarga olib keladi. Shunday qilib, ayollar kamroq jismoniy kuchga ega, bu, masalan, zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etishda namoyon bo‘ladi.

Ayollarning kasbiy mansubligi, kasbi, ishlab chiqarish faoliyati, funksiyalari, oilaviy-maishiy munosabatlar, shaxsiy hayotida bo‘lgan harakatchanligi va erkinligida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni ham unutmaslik kerak.

To‘rtinchidan, jinoyatchi ayollar va ular sodir etayotgan jinoyatlar soni ko‘payishining asosiy sababi yangi iqtisodiy munosabatlar – ishlab chiqarishning qisqarishi, aholining aksariyat qismining moddiy ahvoli biroz yomonlashuvi va uning tabaqalanishi bilan bog‘liq, masalan: daromadlar, ro‘yxatga olingan va yashirin ishsizlikning mavjudligi.

Insonlar rivojlanayotgan bozor tizimining elementiga tobora ko‘proq kirib bormoqda. Ular jinoyatchilar safini to‘ldirishga mahkum. Tabiiyki, bu barcha ijtimoiy notinch qatlamlar jinoyat sodir etish yo‘liga kiradi, degani emas, chunki jinoiy xatti-harakatlar nafaqat insonning hayotiy sharoiti, balki bu sharoitlarning shaxs tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishi bilan bog‘liq.

Beshinchidan, hozirgi davrda ayollarning jamiyatdagi mavqeyini tavsiflovchi turmush sharoitidir. Ijtimoiy huquqlarning yetishmasligi, umumiy psixologik beqarorlik, hayotda ma’naviy va ruhiy yo‘l-yo‘riqlarni yo‘qotish, ma’lum bir qismining oilaviy hayotga qodir emasligi ayollar, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida jinoyatlar sodir etilishiga turtki bo‘lmoqda. Yosh ayollar va qizlar har qanday holatda ham boyib ketish, ijtimoiy zinapoyaning yuksak pog‘onalariga ko‘tarilish uchun intiladi. Istakning o‘zi maqtovga sazovor, ammo haqiqat shundaki, bu maqsadga erishishda, qoida tariqasida, muvaffaqiyatni ta’minlaydigan har qanday vositadan foydalaniladi. Ko‘pincha “axloqiy pasayish” tufayli bu ko‘p marta takrorlanib, odatiy holga aylanadi.

Oltinchidan, uzoq vaqt davomida jamiyat oldida shoshilinch moddiy ehtiyojlarni qondirish asosiy vazifa edi. Albatta, ehtiyojlarning o‘sishi jamiyatda tabiiy hodisa, lekin ularning rivojlanishi jamiyatning muayyan rivojlanish bosqichidagi imkoniyatlari bilan tartibga solinishi kerak. Jinoyat sabablarini aniqlashda, binobarin, oldini olish shakllarini belgilashda bu holat har doim ham hisobga olinmaydi.

Odamlar ehtiyojlarini o‘zgartirish jamiyatning ularni qondirish qobiliyatidan ancha tezroq sodir bo‘ladi. Mamlakatda moddiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari ayollarning turli ijtimoiy guruhlari uchun ancha farq qiladi. Moddiy ehtiyojlarning o‘zi esa aholining barcha guruhlari uchun taxminan bir xil, turli ijtimoiy guruhlaridagi nizolarning jiddiyligi esa har xil.

Ehtiyojlarni qondirishning kriminogen usullari istak va ehtiyojlar jamiyat imkoniyatlariga mos kelmagan hollarda yuzaga keladi [14, 10-b.].

Albatta, zamonaviy ayol jinoyatchiligining xususiyatlari bu omillar bilan cheklanmaydi. Hozirgi vaqtda kriminologlar jinoyat sodir etishga ta’sir qiluvchi 300 dan ortiq turli sabab va shartlarni aniqladilar. Biz uning ahamiyatsiz qismi, lekin ayollar jinoyatining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni rejalashtirishga yordam beradigan asosiy qismini ko‘rib chiqdik.

Xulosalar

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, shuni ta’kidlash kerakki, jinoyatchi ayol o‘ziga xos xususiyatlarni saqlab qoladi. Bu ijtimoiy-demografik, jinoiy-huquqiy, axloqiy va psixologik xususiyatlar bilan tasdiqlanadi. Uning zamonaviy kriminologik portreti quyidagicha: u turmushga chiqqan, 30–49 yoshga to‘lgan, aniq kasbga ega bo‘lmagan, to‘liq o‘rta yoki o‘rta maxsus ma’lumotga ega. U o‘z hayoti yoki yaqinlarining hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan motivlar uchun, qoida tariqasida, qasddan mulkka qarshi bitta jinoyat sodir etgan bo‘lsa, 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi mumkinligi belgilangan.

REFERENCES

1. Abdurasulova K.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari [Criminal legal and criminological problems of women's crime]. Tashkent, TSUL Publ., 2005.

2. Xodjayeva S.A. Fuqarolik jamiyati va xotin-qizlar huquqlari. Qonun himoyasida [Civil society and women's rights. Under the protection of the law]. Tashkent, 2002, no. 4, pp. 20-21.

3. Pulatova A. Nekotoryye aspekty prestupnosti, sovershayemyye zhenshhinami [Some aspects of crime committed by women]. *The role of moral qualities in the formation of a healthy lifestyle: Proceedings of the scientific-practical conference*, 2008, pp. 125–127.

4. Sharipova G. Nekotoryye aspekti kriminologicheskoy kharakteristiki zhenskoy prestupnosti [Some aspects of the criminological characteristics of female crime]. *TSIL Bulletin*, Tashkent, 2008, no. 4, pp. 70–74.

5. Pulatov Yu.S. Preduprezhdeniye terroristicheskikh aktov s ispolzovaniyem psikhologicheskogo portreta terroristki-smertnitsy [Prevention of terrorist acts using the psychological portrait of a female suicide bomber]. *Proceedings of the Academy*, Dushanbe, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Tajikistan, 2015, no. 3 (27), pp. 150–155.

6. Arenova L.K., Turgayev B. Istoriya formirovaniya psikhologicheskogo profilirovaniya lichnosti prestupnika [The history of the formation of psychological profiling of the offender's personality]. 2016. pp. 551–554.

7. Zhenshina – semya – obshestvo: sovremennaya sotsialno-ekonomicheskaya situatsiya [Woman-family-society: The current socio-economic situation]. Saratov. 1992, p. 69.

8. Pulatov Yu.S. O znachenii izucheniya lichnosti uchastnika ugolovnogo protsessa v sovremennykh usloviyakh [On the importance of studying the personality of a participant in criminal proceedings in modern conditions]. Proceedings of scientific-practical conference. Tashkent, TSUL Publ., 2010, p. 30.

9. Kudryavsev V.N. Prichinnost v kriminologii [Causality in criminology]. Moscow, 1968, p. 57.

10. Anvarova D. Xotin-qizlar huquqlari [Women's rights]. *Bulletin of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan*, Tashkent, 2016, no. 4, pp. 31–32.

11. Alimova G.A. Gendernyye aspekty v razvitii predprinimatelskoy deyatelnosti [Gender aspects of entrepreneurial development]. *O'zbekiston Respublikasi IIV Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurti Axborotnomasi – Bulletin of the Tashkent Higher Military-Technical Educational Institution of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*, Tashkent, 2016, no. 1, pp. 88–92.

12. Dmitriyeva N.V., Perevozkina Yu.M., Kachkina L.S. Osobennosti deviantnogo povedeniya osuzhdennykh, sklonnykh k narusheniyu trebovaniy rezhima soderzhaniya v ispravitelnykh uchrezhdeniyakh [Features of deviant behavior of convicts prone to violation of the requirements of the regime of detention in correctional institutions]. Moscow, 2014, no. 2 (18), pp. 146–156.

13. Ryzhkov V.D. Prakticheskaya psikhologiya zhenskikh krizisov [Practical psychology of female crises]. St. Petersburg , 1998, pp. 83–84.

14. Golodnyuk M.N. Problemy sotsialnogo i biologicheskogo v prestupnosti zhenshhin [Social and biological problems in women's crime]. *Questions crime control*, Moscow, Legal literature , 1982, pp. 20–24.

15. The same problems are considered, for example, in Japan. International Comparisons of Criminal Justice Statistics. *Home Office Statistical Bulletin*, 2012, iss. 6/01/-May, p. 10.

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./NLCL9338
UDC: 343.98(045)(575.1)

METHODOLOGY OF INVESTIGATION OF HUMAN TRAFFICKING

Axmedova Guzalxon Utkurovna,
Associate Professor,
Department of Criminalistics and Forensic Examination,
Tashkent State University of Law,
DSc in Law
ORCID: 0000-0002-3709-4245
e-mail: guzal_nc@yahoo.com

Sobitova Umidaxon Murod qizi
Master's Student,
Tashkent State University of Law
ORCID: 0000-0003-1257-0599
e-mail: sobitova.umidakhon@gmail.com

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishi hujjatlari mantiqqa asoslangan holda tartibga keltirilishi va tikilishi lozim. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov harakatlari o‘tkazish orqali isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar mukammal belgilab berilgan bo‘lsa-da, biroq jinoyat ishlari yuzasidan to‘plangan hujjatlarni yig‘majildga joylashtirish bilan bog‘liq qoidalar nazarda tutilmagan. Shu boisdan mazkur masala xususida olimlar turlicha fikr bildirganlar [7, 516-b.]. Shuning uchun surishtiruvchi va tergovchi yig‘majildga to‘plangan hujjatlarni o‘zining mantiqiy teran fikrlashidan kelib chiqib, kelgusida jinoyat ishini o‘rganishda prokuror va sudga turli tushunmovchiliklar keltirib chiqarmaydigan tarzda joylashtirishi talab etiladi.

Jinoyat-protsessual kodeksida hujjatlarni yig‘majildga joylashtirish tartibi ko‘rsatib o‘tilmaganligi, ushbu yuzasidan biror normativ-huquqiy hujjat mavjud emasligi sababli bugungi kunda tergov amaliyotida bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlari yuzasidan to‘plangan hujjatlarni yig‘majildga joylashtirish tartibi va usullari turlicha ekanligini kuzatish mumkin.

Jinoyat ishi hujjatlarini texnik jihatdan tartibga keltirishda, eng avvalo, barcha hujjatlar qalin qog‘oz muqova ichiga solinib, kitob shaklidagi yig‘majildga tikiladi. Yig‘majildning muqovasida quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi: vazirlik, boshqarma, tergov bo‘limining nomi; jinoyat ishi raqami, ayblanuvchilarning familiyasi, ismi, sharifi; qaysi jinoyat sodir etilganligini ifodalovchi Jinoyat kodeksining moddasi, qismi va bandi; jinoyat ishi qanday asosda tamomlanganligi; ish jildlarining miqdori; yig‘majildning raqami; jinoyat ishi bo‘yicha tergovning boshlanish va tamomlanish sanasi; qo‘llanilgan ehtiyot chorasi [8, 173-b.].

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017-yil 12-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida surishtiruv va dastlabki tergovni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 100-son buyrug‘iga asosan, hujjatlar yig‘majildi 250 varaqdan oshmasligi kerak. Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bir yoki bir necha epizodli [9, 5-b.] jinoyat ishlari yuzasidan to‘plangan hujjatlarning hajmidan kelib chiqib, ularni bir yoki bir nechta yig‘majildlarga joylashtirish mumkin.

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishiga ko‘p sonli ayblanuvchilar jalb qilinganligi sababli jinoyat ishi muqovasida ulardan asosiylari haqida ma’lumot aks ettiriladi, qolgan ishtirokchilar esa “va boshqalar” deb yozib qo‘yiladi.

Tergov amaliyotida jinoyat ishi hujjatlarini yig‘majildga joylashtirishda xronologik, mantiqiy va aralash usullaridan foydalaniladi. Ayrim holatlarda esa tematik usul ham qo‘llanilayotganligini kuzatish mumkin. Ularni atroflicha tahlil qilishga harakat qilamiz.

Tadqiqot natijalari tahlili

I. Jinoyat ishi hujjatlarini xronologik usulda yig‘majildga joylashtirish

Xronologiya so‘zi grekcha “xronos” – vaqt, “logos” – fan so‘zlaridan olingan bo‘lib, vaqtni o‘rganish haqidagi ta’limot [10, 5–6-b.], degan ma’noni anglatadi.

Jinoyat ishi hujjatlarini xronologik usulda yig‘majildga joylashtirish deganda, muayyan jinoyat ishi yuzasidan to‘plangan protsessual hujjatlarni sanalari bo‘yicha ketma-ketlikda joylashtirish tushuniladi.

Jinoyat ishi hujjatlarini xronologik usulda yig‘majildga joylashtirish, avvalo, surishtiruvchi yoki tergovchiga tergov harakatlarini olib bo-

rishda isbotlash ketma-ketligini, dalillarni olish, tekshirish va mustahkamlash to‘g‘risida o‘z vaqtida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Biroq amaliyotda bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlari yuzasidan to‘plangan hujjatlarni yig‘majildga joylashtirishning sof xronologik usuliga rioya qilib, jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror mazkur qarorni chiqarishga asos bo‘lgan hujjatlardan so‘ng joylashtiriladi. Ammo bu jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishib chiqishda muayyan qiyinchiliklarni tug‘diradi. Sababi jinoyat ishi hujjatlari yig‘majildga sof xronologik usulda joylashtirilganda, ish hujjatlarini tez va to‘liq o‘rganish imkoniyati murakkablashadi, ishdagi hujjatlardan tergov va sud muhokamasi jarayonida foydalanish qiyinlashadi. Ish yuzasidan tergov taxminlarini tekshirish biroz noqulaylik tug‘diradi. Masalan, tergov harakatlari ketma-ketligi bo‘yicha rasmiylashtirilgan hujjatlar hodisa bo‘yicha yig‘majildga joylashtirilganda, guruh a’zolarining jinoiy xatti-harakatlari ketma-ketligi bo‘yicha bergan ko‘rsatmalarini biri-biriga solishtirish, ularni tahlil qilish, sinchiklab o‘rganib chiqish mushkullashadi. Biroq shunday bo‘lsa-da, tergov amaliyotida ayrim surishtiruvchi yoki tergovchilar xronologik usuldan foydalanadi.

II. Jinoyat ishi hujjatlarini mantiqiy usulda yig‘majildga joylashtirish

Jinoyat ishi hujjatlarini mantiqiy usulda yig‘majildga joylashtirish deganda, muayyan jinoyat ishi yuzasidan to‘plangan protsessual hujjatlar qachon rasmiylashtirilganidan qat’i nazar, mantiqiy o‘zaro bog‘liqligi asosida joylashtirish tushuniladi.

Tergov harakatlarini olib borish va jinoyat ishi hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonida mantiqiy fikrlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy fikrlash – inson tomonidan ko‘rib, eshitib, bilib, his qilib va anglanib turgan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatuvchi tushuncha [11, 1–2-b.]. Mantiqiy fikrlash orqali faoliyatning barcha sohalarida mantiqiy ketma-ketlik, izchillik va muayyan samaraga erishiladi.

Surishtiruvchi va tergovchining mantiqiy fikrlashi orqali tergov jarayonida turli xato va kamchiliklarning oldi olinadi. Tergov jarayonida mantiqiy fikrlashdan asosiy maqsad haqiqatni aniqlash, unga erishish yo‘llarini o‘rganishdir.

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishi hujjatlarini mantiqiy usulda yig‘majildga joylashtirishda murakkab bo‘lgan bir epizodli yoki ko‘p epizodli jinoyatlar [12, 7-b.] alohida-alohida, ayblanuvchilar bo‘yicha alohida yoxud jinoiy faoliyat obyektlari bo‘yicha alohida to‘plangan hujjatlar yig‘majildga birgalikda ketma-ketligi bo‘yicha joylashtiriladi.

Tergov amaliyotida jinoyat ishi hujjatlari mantiqiy usulda yig‘majildga joylashtirilishining afzallik tomoni shundaki, eng kam kuch va vaqt sarflab, barcha dalillarning to‘plangan yoki to‘planmaganligini tekshirish uchun qulay imkoniyat yuzaga keladi. Shuningdek, jinoyat ishi hujjatlarini mantiqiy usulda yig‘majildga joylashtirish tergovchining o‘ziga va ish hujjatlarini tekshiruvchi shaxslarga tergov taxminlarini to‘liq tekshirishni qulay tarzda nazorat qilib borish imkonini beradi.

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishi hujjatlari mantiqiy usulda yig‘majildga quyidagi tartibda joylashtiriladi:

a) jinoyat ishi qo‘zg‘atilishiga asos bo‘lgan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari: ya’ni bildirgi, ariza, tushuntirish xatlari, shaxsiy tintuv va olib qo‘yish bayonnomasi, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi [13, 151–154-b.] hamda unga ilovalar, pochta jo‘natmalari [14, 204-b.], ushlab turish to‘g‘risida bayonnoma, ekspertiza yoki taftish tayinlash to‘g‘risida qaror, tergovga qadar tekshiruvning yakuni bo‘yicha hujjatlar (jinoyat ishini qo‘zg‘atish, qo‘zg‘atishni rad qilish, arizani tegishliligi bo‘yicha yuborish to‘g‘risida qarorlar) va boshqa hujjatlar [15, 73-b.];

b) jinoyat ishi yuzasidan so‘rov xatlari va ularning javoblari (qaysi sanada kelib tushganligidan qat’i nazar);

d) ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qarorlar va olingan xulosalar;

e) guvohlarga tegishli bo‘lgan hujjatlar: guvohning chaqiruv qog‘ozi [16, 174-b.], advokatlik orderi, guvohning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, guvoh tariqasida so‘roq qilish bayonnomalari;

f) jabrlanuvchilarga tegishli bo‘lgan hujjatlar: jabrlanuvchining shaxsiga oid hujjatlar nusxasi, uni so‘roq qilish bayonnomasi hamda jabrlanuvchi deb e’tirof etish haqida qaror;

g) shaxsni fuqaroviy da’vogar va fuqaroviy javobgar sifatida e’tirof etish bilan bog‘liq hujjatlar [17, 215–243-b.];

h) guvoh va jabrlanuvchilar bilan bog‘liq holda o‘tkazilgan tergov harakati bayonnomalari;

i) gumon qilinuvchilarga tegishli bo‘lgan jinoyat ishi hujjatlari, ya’ni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risida qaror, ularni so‘roq qilish bayonnomalari, tintuv, olib qo‘yish, ko‘zdan kechirish, ko‘rsatmalarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish, tanib olish uchun ko‘rsatish va shu kabi boshqa tergov harakatlari yuzasidan tuzilgan qarorlar va bayonnomalar;

j) mulk yoki pul mablag‘larini xatlash to‘g‘risidagi hujjatlar: mol-mulkni xatlash haqida qaror, mol-mulkni xatlash to‘g‘risida bayonnoma, agarda xatlash olib qo‘yish yoki tintuv bilan birga amalga oshirilgan bo‘lsa, tintuv va olib qo‘yish tayinlanishi va o‘tkazilishida rasmiylashtirilgan protsessual hujjatlar, xatlangan mulklar saqlab turish uchun moddiy javobgar shaxsning tilxati, pul jamg‘armasini xatlash haqida qaror, bank hisob raqamidagi pul mablag‘larini xatlash to‘g‘risida bayonnoma va boshqalar;

k) jinoyat ishi bo‘yicha moddiy ziyonni hisoblash to‘g‘risida qaror;

l) jinoyat ishining bir qismini tugatish, uning ayrim qismlariga aniqlik kiritish, bir qismini ajratib olish to‘g‘risidagi va shu kabi boshqa tergov natijalari yuzasidan qabul qilinadigan ayrim taktik qarorlar;

m) ayblanuvchining shaxsini tavsiflovchi hujjatlar, ya’ni uning shaxsiga oid hujjatlarning nusxalari, ilgari sudlangan bo‘lsa, ulardan sudlanganlik muddati o‘tib ketmagan ishlar bo‘yicha sud hukmlarining nusxalari; jazoni o‘tayotgan mahkum yoki nazorat ostidagi shaxs bo‘lsa, jazoni o‘tayotganlik to‘g‘risidagi yoki o‘sha jazoni almashtirishga oid ma’lumotlar, yo‘llanma qog‘ozi va shu kabi ish uchun ahamiyatli boshqa ma’lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar yoki ularning nusxalari;

n) jinoyatlarning oldini olish choralarini ko‘rish yuzasidan rasmiylashtirilgan hujjatlar: jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida taqdimnomalar, fuqaro ijtimoiy burchini namunali bajarilganligi to‘g‘risida taqdimnoma. Taqdimnomalarning tuzilishiga asos bo‘lgan hujjatlar hamda ular bo‘yicha olingan javob xatlari. Mazkur hujjatlar odatda surishtiruv yoki dastlabki tergovni tugatish to‘g‘risida e’lon qilingan bayonnomadan avval ayblanuvchini tavsiflovchi hujjatlar bilan bir qatorda joylashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi;

o) shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etish uchun jalb qilish to‘g‘risidagi qaror;

p) agar ayblov to‘ldirilgan yoki o‘zgartirilgan bo‘lsa, ayblovni to‘ldirish yoxud ayblovni o‘zgartirish to‘g‘risida qaror;

q) ayblanuvchini so‘roq qilish bayonnomasi (agar ayblov to‘ldirilgan yoki o‘zgartirilgan bo‘lsa, ayblanuvchini qo‘shimcha so‘roq qilish bayonnomasi);

r) ayblov xulosasi va uning ilovalari, taqqoslash dalolatnomasi.

Muayyan jinoyat ishi yuzasidan barcha tergov harakatlari va qabul qilinishi lozim bo‘lgan qarorlar shaxs ishda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingunga qadar o‘tkazilgan va qabul qilingan bo‘lishi shart. Agar shaxs ishda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingandan keyin tergov harakatlari o‘tkazilgan yoki boshqa qarorlar qabul qilingan bo‘lsa,

ayblov mukammal bo‘lmagan hisoblanadi. Shunday bo‘lgan taqdirda ayblovni to‘ldirish (mazmunan to‘ldirish) yoki ayblovni o‘zgartirish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinishi lozim.

III. Jinoyat ishi hujjatlarini aralash usulda yig‘majildga joylashtirish

Jinoyat ishi hujjatlarini aralash usulda yig‘majildga joylashtirish deganda jinoyat ishi hujjatlarini rasmiylashtirish vaqti bo‘yicha bir-biridan tafovut qilishidan qat’i nazar, hujjatlarni mazmunan tanishib chiqishga qulay bo‘lishi uchun hodisalar va shaxslar bo‘yicha alohida-alohida mantiqiy bir-biriga bog‘liq tarzda yoki ayrim holatlarda esa xronologik usulni qo‘llagan holda jinoyat ishi hujjatlarini tartibga solish tushuniladi.

Tergov amaliyotida bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bir epizodlik yoki ko‘p epizodlik jinoyat ishi yuzasidan to‘plangan hujjatlar birlashtirilganida, jinoyat ishi hujjatlari yig‘majildga asosan aralash usuldan foydalanib joylashtiriladi.

Jinoyat ishi hujjatlari bitta jinoyat ishiga birlashtirilganda, avvalo, tergov muddati oldingi hisoblangan jinoyat ishi hujjatlari joylashtiriladi, so‘ng jinoyat ishini birlashtirish haqidagi qaror va birlashtirilayotgan ishga taalluqli ikkinchi jinoyat ishi hujjatlari joylashtiriladi.

Katta hajmdagi bir qancha jinoyat ishi hujjatlari birlashtirilganda, birinchi jinoyat ishiga doir hujjatlar ichiga ulardan avval yoki tuzilish sanasiga qarab joylashtiriladi. Ya’ni hujjatning tergovchiga kelib tushishi, olib qo‘yilishi yoxud tekshirilishi sanasiga qarab joylashtiriladi. Ayblanuvchi shaxslar bo‘yicha ham jinoyat ishi hujjatlari shu tartibda, ammo yig‘majild ichida alohida-alohida joylashtirilishi lozim [18, 516-b.]. Ayrim holatlarda to‘plangan hujjatlarning hajmi katta bo‘lsa, ular alohida yig‘ma jildga joylashtiriladi.

Jinoyat ish bo‘yicha ayblanayotgan ikki yoki undan ortiq shaxsning jinoiy faoliyatiga doir ish hujjatlari sodir etilgan hodisalar bo‘yicha bir joyga joylashtirilgan, guruhdagi shaxslarning shaxsiga oid ma’lumotlar va ularning jinoiy faoliyatiga tegishli bo‘lgan hujjatlarni yig‘majildga joylashtirish masalasini puxta o‘ylab ko‘rish kerak. Sababi sodir etilgan jinoyatning xronologik tartibi har bir ayblanuvchining jinoiy faoliyatidagi haqiqiy ketma-ketligini yaqqol ifodalab beradi. Shu boisdan jinoyat ishi hujjatlari jinoiy qilmishlarning jamiyat uchun xavflilik darajasi, ochilish ketma-ketligi va ayblanuvchilar sodir etgan jinoiy qilmishlarning bir-biri bilan o‘zaro aloqasi bo‘yicha yig‘majildga joylashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Jinoyat ishi materialini hodisalar yoki ayblanuvchilar bo‘yicha tartibga solishda u yoki bu hujjatda turli hodisalar yoki bir nechta ayblanuvchilarning harakatlariga taalluqli ma’lumotlar bir joyga birlashtirilishi lozim. Xususan, gumon qilinuvchi tariqasida ishga jalb qilish to‘g‘risida qaror, gumon qilinuvchini so‘roq qilish bayonnomasi, undan so‘ng guvohlarni so‘roq qilish bayonnomalari va boshqa ma’lumotlar birgalikda yig‘majildga joylashtirilishi mumkin.

Jinoyat ishida bir nechta jinoyat sodir etgan shaxslar bo‘lganda, ayblanuvchilardan biriga taalluqli barcha hujjatlarni bir joyga jamlash imkoniyati har doim ham bo‘lavermaydi. Chunki bir guruh shaxslarning jinoiy faoliyati o‘zaro aloqadorlikda amalga oshirilgan bo‘lib, yagona tizimni tashkil qiladi. Bunday holatlarda jinoyat ishi yuzasidan to‘plangan hujjatlar xronologik usulda va hodisalar bo‘yicha yig‘majildga joylashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa jinoyat ishi hujjatlarini tizimlashtirishning aralash usuli hisoblanadi.

Aksariyat tergovchilar tomonidan bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha to‘plangan ish hujjatlari aralash usuldan foydalangan holda yig‘majildga joylashtiriladi. Hujjatlarning mazkur usulda yig‘majildga joylashtirilishi jinoyat ishi materiallari bilan tanishib chiqishga ancha qulaylik tug‘diradi.

Jinoyat ishi hujjatlarini aralash usulda yig‘majildga quyidagicha joylashtirish tavsiya etiladi.

Avvalo, yig‘majildning boshiga jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi qaror, undan so‘ng ishni qo‘zg‘atishga asos bo‘lgan hujjatlar joylashtiriladi. Boisi bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishi yig‘majildining boshida jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror tursa, ishning mazmuni bilan darhol tanishib chiqish mumkin bo‘ladi. Misol uchun, giyohvandlik moddalari bilan bog‘liq jinoyat ishida jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risida qarordan so‘ng hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi, sud-kimyoviy ekspertizasini tayinlash haqidagi qaror va ekspertiza xulosasi, tintuv qilish haqidagi qaror va bayonnoma, ashyoviy dalillarni olish haqidagi qaror joylashtiriladi.

Ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qarordan so‘ng ekspertiza o‘tkazishga asos bo‘lgan hujjatlar joylashtiriladi. Xususan, ayblanuvchining ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror bilan tanishganligi haqidagi bayonnoma, qon dog‘laridan namunalar olishga doir hujjatlar, ekspert xulosasi joylashtiriladi. Ayrim holatlarda esa ekspertiza xulosalari va ularga asos bo‘lgan boshqa hujjatlar ko‘p bo‘lgan taqdirda, ular alohida yig‘majildga joylashtirilishi mumkin.

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan poraxo‘rlik jinoyatlari bilan bog‘liq jinoyat ishi hujjatlarini aralash usulda yig‘majildga joylashtirishda, avvalo, jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror, undan so‘ng xodimning bildirgisi, jabrlanuvchining arizasi, nazorat-yetkazib berish tezkor tadbiri, berilgan pullarni berish bayonnomasi, daliliy ashyolarni olish bayonnomasi, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi ketma-ketlikda joylashtiriladi. Shu bilan bir qatorda, mansabdor shaxs qaysi idoraviy yo‘riqnomada belgilangan qoidalarni qo‘pol ravishda buzganligidan kelib chiqib, mazkur yo‘riqnomaning nusxasi va idoraviy tekshirish hujjatlari joylashtiriladi.

Aralash usulda hujjatlarni yig‘majildga joylashtirishda jabrlanuvchilarni, guvohlarni so‘roq qilish bayonnomalari va boshqa protsessual hujjatlar xronologik tartibda, ya’ni tergovchiga kelib tushgan yoki tergovchi tuzgan vaqtlar bo‘yicha ketma-ketlikda joylashtiriladi. Undan so‘ng jabrlanuvchining pasport nusxalari va boshqa hujjatlar ham joylashtirilishi mumkin. Qayd etish kerakki, mazkur sanab o‘tilgan hujjatlar jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni [19; 102-b.] bartaraf qilish to‘g‘risida taqdimnomalar va ularga olingan javob xatlaridan oldin joylashtirilishi lozim.

Ishtirokchilikda gumon qilinuvchi shaxslar tergov qilinganda, jinoyat ishi hujjatlari tuzilish vaqti bo‘yicha bir-biridan tafovut qilishidan qat’i nazar, ular mazmunan tanishishga qulay bo‘lish maqsadida mantiqiy bog‘liqligi bo‘yicha birgalikda joylashtiriladi. Ushbu hujjatlardan so‘ng jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qarorlar, ayblanuvchilarni so‘roq qilish bayonnomalari hamda ularga nisbatan ehtiyot choralarini tanlash haqidagi qaror yig‘majildga tartib bo‘yicha joylashtiriladi.

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishida, agar ayblanuvchiga ayb e’lon qilinib, u jinoyat ishi bilan tanishganidan so‘ng iltimosnoma bergan bo‘lsa, iltimosnoma qanoatlantirilganligi yoki qanoatlantirilishi rad etilgani to‘g‘risida qaror ayblov xulosasidan avval joylashtirilishi lozim. Shu boisdan, avvalo, jinoyat protsessi adolatli va tizimlashtirilgan bo‘lishi zarur. F.M. Muhitdinov o‘rinli ta’kidlaganidek, “Jinoyat protsessining mohiyati adolatni o‘rnatish ekan, demak, unga olib boruvchi protsessual shaklning o‘zi ham adolatli bo‘lmog‘i zarur” [20, 341–342-b.].

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan to‘plangan ish hujjatlarini yig‘majildga mantiqiy teran fikrlagan holda, muayyan tartibda tizimlashtirib joylashtirish surishtiruvchi va tergovchi uchun quyidagi qulayliklar yuzaga kelishini ta’minlaydi:

birinchidan, ishning mazmuniga chuqurroq kirib borish, ya'ni tergovchi jinoyat ishining mohiyati, ish holatlari, shaxs aybini isbotlash uchun keltirilgan dalillarni tez tushunib olishi, ish hujjatlarining daliliy qiymatini o'z vaqtida baholab borishi [21, 209-b.], isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar yo'nalishini o'z vaqtida belgilab olishi mumkin;

ikkinchidan, u yoki bu hujjatni topishda vaqtni tejash va u bilan ishlash osonlashadi;

uchinchidan, voqealarga taalluqli hujjatlar, tekshirilayotgan taxminlar, murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan tergov harakatlarini birlashtirish [22, 156-158-b.] va u yuzasidan vazifalarni rejalashtirib olish mumkin;

to'rtinchidan, ish bilan tanishib chiqish osonlashadi;

beshinchidan, tergovni sifatli va o'z vaqtida kontrol hamda nazorat [23, 128-b.] qilishga qulaylik tug'iladi.

Xulosalar

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki, bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishi yuzasidan to'plangan hujjatlar tergovchi tomonidan butun ish yuritish davomida tartibga keltirilib, tizimlashtirib borilishi lozim. Chunki o'z vaqtida tizimlashtirilgan tergov hujjatlari tergov ishi madaniyatini ko'rsatadi. Shu boisdan surishtiruvchi va tergovchi jinoyat ishi materialini tartibga keltirib tizimlashtirishda, avvalo, tuzilgan hujjatlarning dalillarga asoslanganligi, xolisona va haqiqatga mos kelishi, protsessual to'g'ri tuzilganligi, to'liqligi va har tomonlamaligini tekshirib chiqishi lozim. Jinoyat ish materiallari asoslanganligini aniqlashda, avvalo, ish yuzasidan chiqarilgan qaror jinoyat ishi hujjatlaridagi obyektiv ma'lumotlarga asoslanganligini tekshirib borish zarur. Har doim jinoyat ishi hujjatlarini tizimlashtirish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishda, uni tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etib borish darkor.

Yuqoridagi umumiy tahlillarga asosan, nazarimizda, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksining alohida moddasida "Jinoyat ishi yuzasidan to'plangan hujjatlarni yig'majildga joylashtirish tartibi" belgilab berilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Qayd etish kerakki, yuqoridagi taklif va tavsiyalarimiz tergov amaliyotida faoliyat olib borayotgan surishtiruvchi va tergovchilar uchun kelgusida ish yurituvlaridagi bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlari yuzasidan to'plangan ish hujjatlarini yig'majildga yuqoridagi sanab o'tilgan maqbul usulda tartib bilan tizimlashtirilgan holda joylashtirishlari o'z vaqtlari tejalishi, jinoyat ishi bo'yicha o'tkazilishi lozim bo'lgan kelgusi tergov harakatlari oson rejalashtirilishi, tartibsizlikka barham berish orqali ish unumdorligi oshishi, ish mohiyati, holatlari va shaxs aybini isbotlash uchun keltirilgan dalillarning tez tushunib olinishi orqali ish hujjatlarining daliliy qiymatini o'z vaqtida tekshirib baholash, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar yo'nalishini o'z vaqtida belgilab olish, qolaversa, jinoyat ishi hujjatlari bilan tegishli prokuror va sudyaning tez va oson tanishib chiqishiga imkon yaratadi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz [We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new level]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2017, p. 115.

2. Shavkat Mirziyoev criticized the activities of internal affairs bodies. Available at: https://kun.uz/news/2017/02/10/savkat-mirzieev-icki-islar-organlari-faoliatini-tankid-ostiga-oldi (accessed 21.01.2023).

3. Musayev M. Jinoiy uyushma tashkil etishga qarshi kurash muammolari [Problems of combating the organization of a criminal association]. Tashkent, Sharq Publ., 2005, p. 6.

4. Sottiyev I.A. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy vositalari [Legal means of combating organized crime]. Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2005, p. 51.

5. Temur tuzuklari [Timur's rules]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2013, p. 14.

6. Tergov xizmati faxriylari [Veterans of the investigative service]. Ed. Y. Abdulkhakov. Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ., 2005, p. 5.

7. Rahmonqulov A.X., Mirazov D.M. Dastlabki tergov [Preliminary investigation]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2012, p. 516.

8. Qulmatov Sh.A. Dastlabki tergovda protsessual majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik muammolari [Problems of liability for failure to fulfill procedural obligations in the preliminary investigation]. PhD thesis. Tashkent, 2011, 173 p.

9. Sottiyev I.A. Jinoyatda ishtirokchilikning uyushgan shakllari [Organized forms of participation in crime]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2014, p. 5.

10. Rahmonqulova Z. Xronologiya [Chronology]. Tashkent, Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2006, pp. 5–6.

11. Qomus.info. Online encyclopedia. Available at: https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mantiq-uz/ (accessed 17.01.2023).

12. Ismailov I. Jinoyatchilikda uyushganlik: nazariya va amaliyot muammolari [Organized crime: problems of theory and practice]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2005, p. 7.

13. Sharofutdinov A.O. Ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi [The procedure for conducting and formalizing the review investigation]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2022, pp. 145–154.

14. Musayev G.F. et al. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar (kiberjinoyatlar): turlari, kvalifikatsiyalanishi va ularga nisbatan tergov harakatlarini o'tkazish taktikasi [Crimes in the field of information technologies (cybercrimes): types, classification and tactics of investigative actions against them]. Tashkent, Baktria press publ., 2020, p. 204.

15. Rashidov B.N. Tergovga qadar tekshiruv. Ma'ruzalar kursi [Investigation before interrogation. Course of lectures]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2018, p. 73.

16. Matkarimov Q.Q. Guvohlik immunitetining jinoyat protsessual asoslari [Criminal procedural foundations of witness immunity]. PhD thesis. Tashkent, 2012, p. 174.

17. Tergov protsessual hujjatlari namunalari [Samples of investigative procedural documents]. Ed. O.B. Muradov. Tashkent, Tasvir Publ., 2018, vol. 1, pp. 215–243.

18. Rahmonqulov A.X., Mirazov D.M. Dastlabki tergov [Preliminary investigation]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2012, p. 516.

19. Ismailov I., Zokirov B.E., Muxtorov J.S. et al. Qasddan odam o'ldirish jinoyatlarini ochish, tergov qilish, ularning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish [Opening, investigating, determining and eliminating the causes and conditions of intentional homicide crimes]. Ed. D.M. Mirazov. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2017, p. 102.

20. Muhitdinov F.M. Jinoyat-protsessual shakl: nazariy va metodologik muammolar [Criminal-procedural form: theoretical and methodological problems]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2005, pp. 341–342.

21. Inomjonov Sh.X. Jinoyat protsessida dalillarni taqdim qilish va ulardan foydalanish muammolari [Problems of presentation and use of evidence in criminal proceedings]. PhD thesis. Tashkent, 2005, 209 p.

22. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish institutini takomillashtirish. [Improvement of the institution of termination of criminal case. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2018, pp. 156–158.

23. Mirazov D.M. Dastlabki tergov idoralari faoliyati ustidan kontrol va nazoratni takomillashtirishning nazariy, tashkiliy va protsessual jihatlari [Theoretical, organizational and procedural aspects of improving control and supervision over the activities of preliminary investigation agencies]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2016, 128 p.

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./BTAV6306
UDC: 343.126(045)(575.1)

JINOYAT-PROTSESSUAL EHTIYOT CHORASI SIFATIDA UY QAMOG‘I TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MOHIYATI

Abdullayev Diyor Ibodillayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Kadrlar bo‘limi bosh mutaxassisi,
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0001-9557-6309
e-mail: abdullayev_diyor@internet.ru

Annotatsiya. *Milliy qonunchiligimizga ko‘ra, uy qamog‘i boshqa jinoyat-protsessual ehtiyot choralariga nisbatan yangi huquqiy institut hisoblanadi. Mazkur maqolada muallif tomonidan jinoyat-protsessual ehtiyot choralarining umumiy tavsifi, ehtiyot chorasi sifatida uy qamog‘i tushunchasi, uning huquqiy elementlari hamda mazmun-mohiyatining ilmiy-nazariy jihatlari xorijiy mutaxassislar va mahalliy tadqiqotchilar fikrlarini qiyosiy tahlil qilish orqali atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada uy qamog‘i ehtiyot chorasini tayinlash tartibini belgilovchi xorijiy hamda milliy qonunchilik va qonunosti normalari asosida huquqni qo‘llash amaliyotida yuzaga kelgan muammolar bayon etilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha xulosa va takliflar keltirilgan. Jinoyat sodir etgan yoxud uni sodir etishda gumonlanayotgan shaxsga nisbatan dastlabki tergov yoki sud jarayonida qamoqqa olish tariqasidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun qonuniy asoslar mavjud bo‘lsa-da, uning yoshi, sog‘lig‘i holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarni inobatga olgan holda, insoniylik nuqtayi nazaridan uni qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirdagina ehtiyot chorasi sifatida uy qamog‘i qo‘llanadi. Lekin shaxs belgilangan tartibga rioya qilmasdan o‘ziga berilgan yengillikni suiiste’mol qilsa, unga nisbatan qamoqqa olish tariqasidagi ehtiyot chorasi tayinlanadi. Shu boisdan huquqni qo‘llovchi, birinchi navbatda, ya’ni ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish o‘rniga uy qamog‘ini tanlashda, ehtiyot chorasi sifatida qamoqni qo‘llash asosi va uni tanlashda inobatga olinadigan holatlarni aniq farqlashi lozim.*

Kalit so‘zlar: *jinoyat protsessi, ehtiyot chora, uy qamog‘i, taqiqlar (cheklovlar).*

ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ ДОМАШНЕГО АРЕСТА КАК УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОЙ МЕРЫ ПРЕСЕЧЕНИЯ

Абдуллаев Диор Ибодиллаевич,
главный специалист отдела кадров,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. *Принимая во внимание, что, согласно нашему национальному законодательству, домашний арест считается новым правовым институтом по сравнению с другими уголовно-процессуальными мерами пресечения, в данной статье автор приводит общую характеристику уголовно-процессуальных мер пресечения и понятие домашнего ареста как меры пресечения, его правовые элементы и научно-теоретические аспекты содержания детализированы путем сравнительного анализа мнений зарубежных специалистов и отечественных исследователей. Также в статье описаны проблемы, возникшие в*

практике применения законодательства на основании иностранного и отечественного законодательства и правовых норм, определяющих порядок назначения домашнего ареста, а также сделаны выводы и предложения по их устранению. При наличии законных оснований для избрания меры пресечения в виде содержания под стражей на стадии предварительного следствия или судебного разбирательства в отношении лица, совершившего преступление, или подозреваемого в его совершении, с точки зрения гуманности, с учетом возраста, состояния здоровья, семейного положения и иных обстоятельств домашний арест применяется в качестве меры пресечения только в случае признания лишения его свободы нецелесообразным. Однако в случае злоупотребления лицом предоставленной ему меры пресечения без соблюдения установленного порядка к нему будет применена мера пресечения в виде лишения свободы. Поэтому прежде всего при избрании домашнего ареста вместо содержания под стражей в качестве меры пресечения правоприменитель должен четко разграничивать основания применения меры пресечения в виде заключения под стражу и учитываемые при ее избрании обстоятельства.

Ключевые слова: *уголовный процесс, мера пресечения, домашний арест, запреты (ограничения).*

THE CONCEPT AND LEGAL NATURE OF HOUSE ARREST AS A CRIMINAL PROCEDURAL MEASURE OF RESTRAINT

Abdullayev Dior Ibodillayevich,
Chief Specialist, Personnel department,
Independent Researcher, Tashkent State University of Law

Abstract. *According to our national legislation, house arrest is considered a new legal institution compared to other criminal procedural precautionary measures. Taking this into account, in this article, the author provides a general description of criminal procedural precautionary measures, the concept of house arrest as a preventive measure; its legal elements and the scientific-theoretical aspects of its content are detailed through a comparative analysis of the opinions of foreign experts and local researchers. Also, the article describes the problems that have arisen in the practice of applying the law on the basis of foreign and national legislation and legal norms that determine the procedure for the appointment of house arrest, as well as conclusions and suggestions for their elimination. Although there are legal grounds for choosing a preventive measure in the form of detention during the preliminary investigation or trial against a person who has committed a crime or is suspected of committing it, from the point of view of humanity, taking into account his age, state of health, family situation and other circumstances, house arrest is used as a preventive measure only if it is deemed inappropriate to incarcerate him. However, if a person abuses the relief given to him without following the established order, a preventive measure in the form of imprisonment will be applied to him. Therefore, first of all, when choosing house arrest instead of detention as a preventive measure, the law enforcer should clearly distinguish the grounds for using detention as a preventive measure and the circumstances that are taken into account when choosing it.*

Keywords: *criminal procedure, house arrest, restraints, prohibitions (restrictions).*

Kirish

Yurtimizda inson manfaatlari yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so‘z borganda, shuni alohida qayd etish lozimki, jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatni takomillashtirishda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni yanada liberallashtirish hamda insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish eng muhim yo‘nalishga aylandi. Buning yorqin misoli sifatida 2014-yil 4-sentabrdagi

“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-373-sonli Qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga (keyingi o‘rinlarda JPK) “uy qamog‘i” ehtiyot chorasi kiritilishini keltirish mumkin. Uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasining kiritilishi insonparvarlik prinsipini yanada rivojlantirdi. Zero, “insonparvar demokratik huquqiy davlat qurishni o‘ziga oliy maqsad qilib qo‘ygan” xalqimiz o‘zi ishonch bildirgan vakillari tomonidan ma’qullangan mazkur qonun orqali insonparvarlik-bag‘rikenglik yo‘lida yana bir bor dadil qadam tashladi.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning mantiqiy va ilmiy uslublaridan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, induksiya, deduksiya, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish kabi uslublar qo‘llanilgan. Bundan tashqari, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Yuqoridagi fikrlarimizni teran anglab, mubolag‘aga o‘rin qoldirmaslik uchun, avvalo, mazkur ehtiyot chorasi, ya’ni “uy qamog‘i”ning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratsak. O‘zbekiston Respublikasi JPKga kiritilgan 242[1]-moddada: “Uy qamog‘i gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo‘lganda, uning yoshini, sog‘lig‘i holatini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda, qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirda qo‘llaniladi”, deyilgan. Mazkur moddaning mazmuniga ko‘ra, uy qamog‘ining asosiy mohiyati – bu ayblanuvchi (ayrim hollarda gumon qilinuvchi)ni sud ajrimi orqali jamiyatdan to‘liq yoki qisman ajratib qo‘yish zaruriyati bo‘lgan holatlarda uning yoshi, sog‘lig‘i holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarni inobatga olgan holda, o‘zi mulkdor, ijaraga oluvchi sifatida yoki boshqa qonuniy asoslarda yashab turgan turar joyda erkin harakatlanishi, ya’ni ayrim shaxslar bilan aloqada bo‘lishi, xat-xabar olishi va jo‘natishi, har qanday aloqa vositalaridan foydalanishi va ular yordamida so‘zlashuvlar olib borishi, uy-joyni tark etishini cheklash va taqiqlab qo‘yishdan iboratdir.

Huquq va erkinlik insonga berilgan eng ulug‘ va daxlsiz ne’matdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilganidek, insonni ulardan sud qarorisiz mahrum etish yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas. Biroq jinoyat sudlov ishlarini yuritishda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini turli darajada cheklovchi ba’zi majburlov choralari qo‘llaniladi. Ularni qo‘llamasdan adolat tantanasiga erishib bo‘lmaydi [1]. Huquqqa xilof harakatlarni sodir etar ekan, shaxs, jamiyat unga nisbatan majburlov choralarini qo‘llashga majbur bo‘ladigan vaziyatni yuzaga keltiradi. Qonun surishtiruv, dastlabki tergovni o‘tkazuvchi organlar, shuningdek, sud ixtiyoriga ayblanuvchilarning shaxsiy erkinligini cheklaydigan, ularning yangi jinoyatlar sodir etishga, jinoyat izlarini yashirishga qaratilgan harakatlariga chek qo‘yadigan protsessual majburlov choralarini bergan.

Ushbu choralar ehtiyot choralari deb ataladi.

A.D. Buryakovning ta’kidlashicha, “ehtiyot choralari ayblanuvchi yoxud gumonlanuvchiga ruhiy ta’sir ko‘rsatadi”. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda, B.B. Hidoyatov “Ehtiyot chorasi – bu ayblanuvchi (gumonlanuvchi) irodasi va istagiga xilof ravishda qo‘llanadigan majburlov choralari bo‘lib, ayblanuvchi (gumonlanuvchi)ning xohish-irodasiga qarshi ta’sir etib, uni o‘z irodasidan tashqari harakatlar sodir etishga majbur qiladi. Ushbu muhim holat dastlabki tergovda qonun bilan yo‘l qo‘yilgan chegaradan o‘tib, qamoqqa olishning ehtiyot chorasi sifatida emas, ayblanuvchidan ko‘rsatma olishda bosim o‘tkazish vositasi sifatida qo‘llanishining oldini olishini e’tiborga olish lozim” [2], deb ta’kidlagan.

Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasida ta'kidlanishicha, faqat konstitutsiyaviy tuzumni, axloq, sog'liq, demokratik huquqiy davlatdagi boshqa fuqarolar qonuniy huquq va manfaatlarini muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan hollardagina inson va fuqaro huquq hamda erkinliklari qonun bilan cheklanishi mumkin. Barcha jinoyat-protsessual majburlov choralari fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklashi tufayli ular faqatgina qonun bilan ko'zda tutilgan hollarda qo'llanilishi lozim.

Z.F. Kovriga, o'z navbatida, ehtiyot choralari jamiyatni xavfli shaxslardan himoyalashiga e'tibor qaratadi. Y.V. Manayev, V.S. Postnikov va V.V. Smirnovlar ham shunga o'xshash nuqtayi nazarni qo'llab-quvvatlagan holda, "xavfli jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxslarni o'z vaqtida jamiyatdan ajratish jamoatchilik, barcha fuqarolarni ularning tinchligi hamda huquqlari ishonchli tarzda qo'riqlanayotganligi, jinoyatchilikka qarshi qat'iy kurash olib borilayotganligiga ishontirishi"ni e'tirof etib o'tganlar [3].

Ehtiyot chorasi mohiyati – ayblanuvchi (gumonlanuvchi)ning kelgusidagi harakatlarini qonunga moslash bo'lib, o'z mazmuniga ko'ra turli-tuman va hokimiyat harakatining natijasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 28-bobi ehtiyot choralariga bag'ishlangan. Ushbu bobda ehtiyot choralari qo'llanishi maqsadining asoslari hamda turlari ko'rsatilgan. Ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tovlashining oldini olish; uning bundan keyingi jinoiy faoliyatining oldini olish; uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik; hukmning ijro etilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi JPK 236-moddasi 3-qismiga ko'ra: "Ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirilishini kutayotgan, shuningdek, aqli noraso deb topilgan yoki jinoyat sodir qilganidan so'ng ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan ehtiyot choralari ular yashirinishi va boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir qilishining oldini olish, shuningdek, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash haqidagi sud ajrimi ijrosini ta'minlash maqsadida qo'llanishi mumkin".

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ehtiyot choralariga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Qonun bilan o'rnatilgan asos va tartibda, vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan ayblanuvchi, sudlanuvchi, alohida hollarda esa gumonlanuvchiga ularning surishtiruv, tergov va suddan yashirinishi, ish bo'yicha haqiqatni aniqlashiga to'sqinlik qilishi, jinoiy faoliyatini davom ettirishiga xalal berish, shuningdek, hukm ijrosini ta'minlash maqsadida qo'llanadigan jinoiy-protsessual majburlov choralari ehtiyot choralari deb ataladi". Ehtiyot choralarini qo'llashda majburlov ayblanuvchining shaxsiy erkinligini (erkin harakatlanish huquqi va h.k.) cheklash yoki chegaralashda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi JPK 237-moddasida ehtiyot choralarining turlari keltirilgan bo'lib, 2014-yilning 4-sentabriga qadar ular quyidagilardan iborat edi: 1) munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risidagi tilxat (JPK 250-moddasi); 2) shaxsiy kafillik (JPK 251-moddasi); 3) jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi (JPK 252-moddasi); 4) garov (JPK 249-moddasi); 5) qamoqqa olish (JPK 242-moddasi); 6) voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish (JPK 253-moddasi); 7) harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo'mondonlik kuzatuvi (JPK 254-moddasi) [4]. O'zbekiston Respublikasining 373-sonli Qonuniga asosan, JPK 237-moddasiga yana bir ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i kiritildi. Ehtiyot choralari jumlasiga uy qamog'ini kiritish haqidagi tavsiya MDH parlamentlararo assambleyasi 1996-yil 17-fevralda tasdiqlagan JPK modelida aks ettirilgan edi (175-modda).

Deyarli har bir jinoyat ishi bo'yicha yuqoridagi ehtiyot choralaridan biri qo'llanadi. Fikrimiz tasdig'i sifatida Respublika

Oliy Sudi arxivining quyidagi ma’lumotlarini keltiramiz: birgina 2014-yilning o‘zida 11759 jinoyat ishi bo‘yicha 12687 nafar shaxsga, 2015-yilning birinchi choragida esa 2780 ta jinoyat ishi bo‘yicha 3000 nafar shaxsga ehtiyot chorasi qo‘llanilgan. Bir shaxsga nisbatan bir vaqtning o‘zida ehtiyot choralaridan faqat bittasi qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yiladi. Ehtiyot chorasi uni aniq gumonlanuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadga mos bo‘lishi lozim. Shu sababli ham qonun ehtiyot choralarining yengilidan og‘irigacha bo‘lgan turlarini ko‘rsatib, ulardan birini tanlash imkonini beradi. Ehtiyot chorasi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori va sud ajrimi bilan qo‘llanilishi, bekor qilinishi va o‘zgartirilishi mumkin. Bunday qaror asoslangan bo‘lishi lozim. Chiqarilgan qaror yoki ajrim kimga nisbatan chiqarilgan bo‘lsa, shu shaxsga darhol xabar qilinadi va u ushbu qaror bilan tanishib chiqqanligi to‘g‘risida o‘z imzosini qo‘yadi [5].

Umuman, mazkur masalada protsessual qaror qabul qilishda birinchi o‘rinda asoslarga, undan keyin esa ish holatlariga e’tibor beriladi. Jinoyat-protsessual qonunchiligida ham ayblanuvchi, sudlanuvchi sodir etgan, Jinoyat kodeksi 15-moddasining to‘rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatning xavfliligi tufayli u surishtiruv, dastlabki tergov va suddan yashirinishi mumkin, degan o‘rinli taxmin ham qamoqda saqlash tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asos bo‘lishi mumkin, deb ko‘rsatilgan. Mazkur masalada Belorussiya Jinoyat-protsessual kodeksida “o‘rinli taxmin” (O‘zR JPK 236-m., 2-q.) o‘rniga “ehtiyot chorasini qo‘llash uchun asoslar yetarliligini tasdiqlovchi dalillar to‘planganda” [6] ehtiyot chorasini qo‘llash mumkinligi ko‘rsatilgan. Fikrimizcha, so‘nggi holat o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra yanada aniq va asosli bo‘lib, mavhumlik kelib chiqishining oldini oladi. Shu tufayli ushbu holatni milliy jinoyat-protsessual qonunchiligiga ham joriy etish [7] taklifi ilgari surilgan.

Yaxshi ma’lumki, agar fuqaro tanlangan ehtiyot chorasini buzsa, unga nisbatan og‘irroq ehtiyot chorasi qo‘llanadi. Bu haqda 1879-yilda qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari to‘g‘risidagi fransuz deklaratsiyasining 7-moddasida belgilangan edi: “... qonun bilan ushlab turilgan yoki qo‘lga olingan har bir fuqaro so‘zsiz bo‘ysunishi lozim: qarshilik ko‘rsatgan taqdirda, u javobgarlikka tortiladi”. Ehtiyot chorasi turini almashtirish ham javobgarlik emas, balki jinoyat ishi yurituvi bo‘yicha vujudga kelgan sharoitga moslashish chorasidir.

Ehtiyot choralari darajalariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi: eng og‘ir chora qamoqqa olish bo‘lsa, eng yengili munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risida tilxat olishdir. “Uy qamog‘i gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo‘lganda, uning yoshi, sog‘lig‘i holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirda qo‘llanadi... O‘rnatilgan taqiqlar (cheklovlar) uy qamog‘ida bo‘lgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan buzilgan taqdirda unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanishi mumkin”.

Ko‘rib turganimizdek, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish va uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot choralari mantiqiy jihatdan biri ikkinchisini taqozo etadi. Chunki jinoyat sodir etgan yoxud uni sodir etishda gumonlanayotgan shaxsga nisbatan dastlabki tergov yoki sud jarayonida qamoqqa olish tariqasidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun qonuniy asoslar mavjud bo‘lsa-da, uning yoshi, sog‘lig‘i holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarni inobatga olgan holda insoniylik nuqtayi nazaridan uni qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirdagina ehtiyot chorasi sifatida uy qamog‘i qo‘llanadi. Lekin shaxs belgilangan tartibga rioya qilmasdan o‘ziga berilgan yengillikni suiiste’mol qilsa, unga nisbatan qamoqqa olish tariqasidagi ehtiyot chorasi

qo‘llanadi. Shu bois huquqni qo‘llovchi, birinchi navbatda, ya’ni ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish o‘rniga uy qamog‘ini tanlashda, ehtiyot chorasi sifatida qamoqni qo‘llash asosi va uni tanlashda inobatga olinadigan holatlarni aniq farqlashi lozim.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, qator adabiyotlarda ehtiyot chorasi asoslari *umumiy* va *maxsus* (uning alohida turlari uchungina qo‘llanadigan) bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan. Ehtiyot chorasi sifatida qamoqni qo‘llashda huquqni qo‘llovchi umumiy (barcha ehtiyot choralari uchun majburiy) va maxsus (faqatgina qamoq tarzidagi ehtiyot chorasi uchun zarur) asoslar mavjudligini aniqlashi zarur. Binobarin, ushbu holatlarning aniq belgilanganligi ularni qo‘llashning ehtiyot chorasi sifatida qamoqni qo‘llash uchun sud sanksiyasi mavjud bo‘lgan taqdirda ham inson huquq va erkinliklari kafolatlanmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Xususan, ehtiyot choralaridan birini tanlashda JPKning 236-moddasida nazarda tutilgan asoslardan tashqari quyidagi holatlar ham e’tiborga olinadi: 1) qo‘yilgan ayb (sodir etilgan jinoyat) ning og‘irligi; 2) ayblanuvchining shaxsi; 3) ayblanuvchi shug‘ullanadigan mashg‘ulot (faoliyat) turi; 4) ayblanuvchining yoshi (masalan, voyaga yetmaganligi yoki keksayganligi); 5) sog‘lig‘i; 6) oilaviy ahvoli (uylanganligi, qaramog‘ida voyaga yetmagan farzandlari yoki nafaqa yoshidagi ota-onalari yoxud boshqa boqimandalari mavjudligi) va boshqa holatlar. *Boshqa holatlarga* quyidagilar kiradi: 1) mehnatga layoqatliligi; 2) yashash va ish joyining mavjudligi; 3) davlat mukofotlari, faxriy unvonlari borligi; 4) sudlanganlik holati, ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoni o‘tagan muddati, ozodlikka chiqqan vaqti; 5) ayblanuvchini jamiyat a’zosi sifatida tavsiflovchi ma’lumotlar (yashash, ish joylaridan olingan ma’lumotnomalar va h.k.); 6) tarjimayi holida ko‘rsatilgan ba’zi holatlar (masalan, terroristik to‘dalarga qarshi kurashda, tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etganligi) va h.k.

Fikrimizcha, tergovchi va prokuror tomonidan ayblanuvchi (gumonlanuvchi)ga nisbatan faqat JPK 236- va 242-moddalariga asoslanib, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni qo‘llash maqsadga muvofiq emas, chunki yuqoridagi sanab o‘tilgan holatlarga ham e’tibor berilishi lozimki, buning natijasida ehtiyot chorasi qo‘llanayotgan shaxsning JPK 242^1-moddasida ko‘rsatilgan sog‘lig‘i holati, oilaviy ahvoli kabilar chuqur o‘rganib chiqiladi va unga insonparvarlik nuqtayi nazaridan nisbatan yengilroq bo‘lgan uy qamog‘i tariqasidagi ehtiyot chorasi tanlanishi mumkin.

Shuni aytib o‘tish kerakki, ehtiyot chorasi sifatida uy qamog‘ining mazmun-mohiyati, birinchi navbatda, jinoyat-protsessual qonunchilikdan kelib chiqsa, “uy qamog‘i” tushunchasi esa hatto ushbu ehtiyot chorasini qo‘llash amaliyoti uzoq tarixga ega davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida ham aniq belgilanmagan, shu sababli olimlar orasida bu borada yagona yondashuv mavjud emas.

Xususan, tadqiqotchi M.Gulyakevich “Rossiya Federatsiyasi jinoyat-protsessual kodeksi (RF JPK)ning 107-moddasida “uy qamog‘i” tushunchasi yoritib berilmaganligi uchun turli huquqiy savollar paydo bo‘lmoqda”, deb qayd etadi. Jumladan, ayblanuvchi (gumonlanuvchi)ning jamiyatdan ajratib qo‘yilish joyini qanday tushunish kerak: bu uning doimiy yoki vaqtincha yashash joyimi (ya’ni hovli uy, kvartira, dacha, mehmonxona, pansionat, ijaradagi uy) yoki u borib turadigan joylarmi (o‘qish va ish joyi, dam olish uchun boradigan joylari, qahvaxona, bar, restoran va h.k.); agar uy qamog‘i qo‘llanilgan bo‘lsa, shaxs ish, o‘qish, dam olish joylari, davolanish maskanlari, dorixona, do‘kon va bozorlar yoki boshqa joylarga borib kelishi zaruriyati paydo bo‘lsa yoki uydan belgilangan vaqtda chiqib va qaytib kirishi uchun uni nazorat qilayotgan organga xabar berishi lozimmi [8]?

RF JPKdan farqli ravishda Jinoyat-protsessual kodeksimizga yangi kiritilgan 242[1]-moddaning 2-qismida yuqoridagi singari ba'zi savollarga duch kelishning oldi olingan bo'lib, "uy qamog'i gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi jamiyatdan to'liq yoxud qisman ajratib qo'yilib, o'zi mulkdor, ijaraga oluvchi sifatida yoki boshqa qonuniy asoslarda yashab turgan turar joyda taqiqlar (cheklovlar) o'rnatilgan, shuningdek, uning ustidan nazorat amalga oshirilgan holda bo'lishidan iborat bo'ladi", deyilgan.

Ko'rinib turibdiki, bizning jinoyat-protsessual qonunchiligimizda ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i qo'llangan shaxsning jamiyatdan to'liq yoki qisman ajratib qo'yilish joyi keltirib o'tilgan, ya'ni bu uning o'zi mulkdor, ijaraga oluvchi sifatida yoki boshqa qonuniy asoslarda yashab turgan turar joyidir. Mazkur holat qonunchiligimizning ijobiy sifati bo'lsa-da, biroq ushbu holatda "*turar joy*" deyilganda, aynan qanday sifatlarga ega bo'lgan "*joy*" nazarda tutilayotganligi aniqlashtirilmagan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi JPKning hech bir moddasida turar joy tushunchasi yoritilmagan. Bu esa "uy qamog'i" tushunchasida amaliyotchilar o'rtasida bahs-munozaraga sabab bo'luvchi qisman mavhumlik mavjud ekanligidan dalolat beradi. Hech shubhasiz, har qanday normativ hujjatni birinchi galdayoq mukammal darajada ishlab chiqish yoki unga butun kelajak muammolarining yechimini bayon etish mushkul vazifa hisoblanadi, garchi bu qonunshunoslarning asosiy maqsadi bo'lsa ham. Shuning uchun davlat rivojlanishi, jamiyat ijtimoiy holati va odamlar dunyoqarashi o'zgarishi bilan har qanday qoidani ham o'zgartirish yoki konkretlashtirish zarurati paydo bo'laveradi.

"Uy qamog'i" tushunchasini yana Rossiya Federatsiyasi JPK [9] tayyorlanishi vaqtida ishlab chiqilgan loyihalarida uchratish mumkin. O'sha paytda ishlab chiqilgan RF JPK loyihasining Umumiy qismi 178-moddasida uy qamog'iga quyidagicha ta'rif berilgan: "Uy qamog'i ayblanuvchini jamiyatdan qisman ajratib qo'yib, sud orderi orqali uning huquqlarini cheklab, uyida saqlashdir".

Ammo chet el qonunchiligida keltirilgan uy qamog'i bilan bog'liq normalarning huquqiy tahlili va ulardan olingan natijalar bizga uy qamog'i tushunchasining milliy qonunchilikda qo'llash mumkin bo'lgan to'liq va aniq ilmiy-nazariy tushunchasini topish muammosini yechishda yordam bermadi va shu sababli bizning tadqiqotimiz protsessualist olimlar tomonidan tuzilgan tushunchalarni o'rganish bilan bog'lanadi.

K.T. Baltabayev uy qamog'ini quyidagicha belgilaydi: "Uy qamog'i – jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan asoslar mavjud bo'lgani holda shaxsning munosib xulq-atvorda bo'lishini ta'minlash maqsadida ayblanuvchining erkinligi va shaxsiy daxlsizligini protsessual majburlov choralarini qo'llash orqali uning tabiiy huquqlarini to'laqonli qondirib, jamiyatdan qisman ajratib qo'yishdir [10]". N.V. Tkachevaning monografiyasida Rossiya Federatsiyasi JPK 5-moddasining "*Ushbu kodeksda ishlatiladigan asosiy tushunchalar*"ga qo'shimcha band bilan "uy qamog'i" tushunchasini qo'shish haqidagi taklifida shunday deyilgan: "Uy qamog'i – ayblanuvchining (gumonlanuvchining) erkinligi jamiyatdan qisman ajratib qo'yilib, qonuniy asoslarda doimiy yashab turgan turar joyda qamoqda saqlashdir [11]". V.Dal esa uy qamog'ini uydan chiqmaslik buyrug'i deb talqin qiladi [12].

Y.G. Ovchinnikov Rossiya jinoyat-protsessual qonunchiligi ehtiyot choralari tushunchalari va mohiyatini tahlil qilib, o'zining "uy qamog'i" tushunchasi variantini nazariyaga kiritib, shunday tushuntiradi: "Uy qamog'i – sud qarori yo'li bilan sud majlisida ayblanuvchiga, agar u sodir etgan jinoyatning jazosi ikki yildan ko'p bo'lgan bo'lsa, ayrim holatlarda gumonlanuvchiga, nisbatan uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash orqali shaxsiy erkinligini cheklash yo'li bilan

ta’sir o‘tkazib, muayyan shaxslar bilan aloqada bo‘lish, xat-xabar olish va jo‘natish, har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so‘zlashuvlar olib borishni taqiqlash protsessual majburlovidir [13]”.

Y.V. Saltikov Y.G. Ovchinnikov kabi o‘z tushunchasini ehtiyot choralari tushunchalari va mohiyatini tahlil qilish bilan izohlab, shunday deydi: “Uy qamog‘i – sud qarori bilan ayblanuvchiga (gumonlanuvchiga) nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo‘lganda, uning yoshi, sog‘lig‘i holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarni hisobga olgan holda, qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirda uning erkin harakatlanishini taqiqlash va muayyan shaxslar bilan aloqada bo‘lish, xat-xabar olish va jo‘natish hamda har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so‘zlashuvlar olib borishni man etishdir”.

G.Z. To‘laganova uy qamog‘i tushunchasini quyidagicha bayon qilgan: “Uy qamog‘i ayblanuvchining harakatlanish erkinligi va uning boshqa shaxslar bilan muloqotlarini cheklashni nazarda tutuvchi ehtiyot chorasi hisoblanadi. Uy qamog‘i ham xuddi ushlab turish, qamoqqa olish kabi jismoniy xarakterdagi majburlov chorasi bo‘lib, protsess ishtirokchilarini jamiyatdan ajratish bilan bog‘liq”.

Fikrimizcha, so‘z yuritayotganimiz, ya’ni “uy qamog‘i” tushunchasi jumlasining tuzilishini bilish maqsadida, avvalo, uning etimologik, lingvistik, nazariy va boshqa negizlari tahlil qilingan holda ko‘rib chiqilsa, ushbu tushunchani ehtiyot chorasi sifatida anglash yengillashadi. Shu maqsadda mamlakatimizdagi olimlar tomonidan yozilgan adabiyotlarda mazkur jumlaga berilgan ta’riflarga nazar solsak. Mazmun jihatdan “uy” so‘zi bu uyga, ya’ni inson yashashi uchun xizmat qiladigan turar joyga tegishlidir.

A. Madvaliyev tahriri ostida chop etilgan O‘zbek tilining izohli lug‘atida “uy” so‘zining quyidagi ma’nolarni anglatishi mumkinligi ko‘rsatilgan: 1) yashash uchun yoki turli tashkilot, muassasa va shu kabilar joylashishi uchun mo‘ljallangan bino; 2) yashash uchun mo‘ljallangan bino ichidagi har bir xona; 3) biror ijtimoiy talabni qondirishga qaratilgan muassasa (Qariyalar uyi); 4) biror oila yoki xonadon o‘rnashgan bino va shu binoga taalluqli yer, hovli [17]. Jumla tarkibidagi “qamoq” so‘zining ma’nosi mazkur lug‘atda quyidagicha izohlangan: “Qamoq – ozodlikdan mahrum etilgan kishilar, mahbuslar, jinoyatchi va sh.k. qamaladigan joy; qamoqxona, turma” [14].

Yuridik terminologiya nuqtayi nazaridan esa “qamoq” uch xil, ya’ni jazo turi, jazoni o‘tash joyi hamda ehtiyot chorasi ma’nolarida ishlatiladi. Xususan, jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan qamoq jazo turi bo‘lib, uning mohiyati “shaxsni qat’iy ravishda jamiyatdan batamom ajratib olingan holda saqlashdir” [15]. Jinoyat-ijroiya huquqi nuqtayi nazaridan qamoq qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar-mahkumlarning jamiyatdan batamom ajratib olingan holda saqlanishi uchun ushbu jazoni ijro etishning alohida tartibi va sharoitlari hisobga olingan joy. Jinoyat-protsessual huquqi nuqtayi nazaridan esa qamoq majburlov tarzidagi chora bo‘lib, shaxsga birmuncha ma’naviy azob yetkazadi, lekin jazo hisoblanmaydi [16]. Demak, umumiy jihatdan ushbu atamaning tushunchalari insonni erkinligidan mahrum qilishni anglatadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida bayon etilganlarni inobatga olgan holda bizning fikrimizcha, uy qamog‘i – bu ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchini vakolatli organning qarori (ajrimi) asosida jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan muddat davomida unga nisbatan muayyan cheklov (taqiq)larni qo‘ygan holda, o‘zi istiqomat qilib turgan turar joy doirasida jamiyatdan qisman ajratib qo‘yishda ifodalanadi. Ushbu holatda uy hududi sud tomonidan ma’lum bir vaqtgacha shaxsga nisbatan belgilangan hududiy cheklov hisoblanadi. Aynan shu holat shaxsning jamiyatdan to‘liq

emas, qisman ajratib qo‘yilishidan dalolat beradi. Shu sababli tergov hibsxonasi yoki qamoqxona kamerasi emas, uy hududi shaxsni jamiyatdan qisman ajratib qo‘yish uchun asosiy vazifani bajaradi. Birinchi navbatda, uy qamog‘i – bu shaxsning erkin harakatini cheklashdir, ba’zi bir harakatlardan taqiqlash esa bu keyingi bosqich. Ushbu holatlarda “uy qamog‘i” tushunchasidagi “turar joy” atamasiga aniqlik kiritilishi lozim deb hisoblaymiz. Zero, qonundagi har qanday bo‘shliq huquqni qo‘llash jarayonida turli tushunmovchiliklarga olib keladi. Aksariyat MDH davlatlari JPKlarida bu kabi holatlar yuz bermasligining oldi olingan. Misol uchun, RF JPK 5-moddasi 10-bandida “turar joy yakka tartibdagi yashash uchun yaroqli, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, turar joy fondiga kiruvchi, fuqarolarning doimiy yoki vaqtincha yashashiga mo‘ljallangan va turar joy fondiga kirmagan, lekin vaqtincha yashashga mo‘ljallangan bino va inshootlardir”, [20] deya qayd etilgan.

M.H. Rustamboyev jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan “turar joy” tushunchasini quyidagicha ta’riflagan: “Turar joy deb, odamlarning doimiy yoki vaqtinchalik yashashi uchun mo‘ljallangan joy (shaxsiy uy, kvartira, hovli, mehmonxona va h.k.) tushuniladi. Shuningdek, yuqoridagilarning dam olish, mol-mulkni saqlash, yashovchilarning boshqa zarur ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan tarkibiy qismlari (balkon, oynavand ayvonlar va h.k.) ham turar joyga kiradi. Ombor, garaj yoki boshqa xo‘jalik xonalari odam yashashi uchun mo‘ljallanmagan bo‘lsa, turar joy hisoblanmaydi [17]”.

O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy Kodeksining 9-moddasida “turar joy” tushunchasi ifodalangan bo‘lib, unda: “Fuqarolarning doimiy yashashiga mo‘ljallangan, belgilangan sanitariya, yong‘inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek, belgilangan tartibda maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek, bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylar) sifatida foydalanishga mo‘ljallangan joylar turar joy deb hisoblanadi. Turar joy ko‘chmas mulk hisoblanadi”, deya belgilangan. Kodeksning 10-moddasida esa turar joylarning turlari keltirilgan bo‘lib, ularga uylar, ko‘p kvartirali uylardagi kvartiralar; boshqa imoratlardagi yashash uchun mo‘ljallangan xonalar va o‘zga turar joylar kiritilgan. Bizningcha, ushbu ta’rif turar joyga berilgan eng maqbul ta’rifdir.

Xulosalar

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, tahlil qilgan holda ehtiyot chorasi sifatida uy qamog‘i qo‘llangan shaxsni jamiyatdan qisman ajratib qo‘yish joyi, ya’ni u yashab turgan turar joyga o‘z ta’rifimizni beradigan bo‘lsak, bizningcha, turar joy deganda, fuqarolarning doimiy yoki vaqtincha yashashi uchun mo‘ljallangan, belgilangan tartibda sanitariya, yong‘inga qarshi va boshqa texnik talablarga javob beradigan, shuningdek, belgilangan tartibda maxsus uylar (xususan, yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek, bolalar uylari, boshqa maxsus maqsadli uylar) sifatida foydalanishga mo‘ljallangan joylar tushuniladi.

Demak, uy qamog‘i shaklidagi ehtiyot chorasi deganda sud ajrimi asosida gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan tayinlanadigan, shaxsni yashash uchun yaroqli bo‘lgan turar joyda qisman jamiyatdan ajratib, unga nisbatan qonunda belgilangan cheklovlarni o‘rnatishni o‘z ichiga olgan ehtiyot chorasi tushuniladi. Demak, bunda shaxsni jamiyatdan to‘la ajratish imkoni mavjud bo‘lmay, u Konstitutsiyamizga muvofiq, jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sanalmish oilada qoldirilgan holda muayyan huquq va erkinliklarni amalga oshirishdan mahrum bo‘ladi. Shunga ko‘ra, JPK 242^1-moddasi 1-qismidan shaxsni jamiyatdan *“to‘la”* ajratish jumlasini olib tashlash maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Uy qamog‘i tushunchasi va mazmun-mohiyati shundan dalolat beradiki, u shaxs erkinligini uning tabiiy huquqlari va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirgan holda cheklovchi ehtiyot chorasidir.

REFERENCES

1. To‘laganova G.Z. Uy qamog‘i: uni qo‘llash zaruriyati [House arrest: the need to apply it]. *Huquq va burch – Right and Duty,* 2015, vol. 01 (109), p. 29.

2. Buryakov A.D. Mery presecheniya v sovetskom ugolovnom protsesse [Measures of restraint in the Soviet criminal process]. PhD thesis. Moscow, 1967, pp. 15–17.

3. Hidoyatov B.B., Safarov J.I., Astanov I.R. Dastlabki tergovda shaxs huquq va erkinliklarini cheklashning ayrim jihatlari [Some aspects of restriction of individual rights and freedoms in the preliminary investigation]. Tashkent, TSUL Publ., 2008, p. 45.

4. Kovriga Z.F. Ugolovno-protsessual’noye prinuzhdeniye [Criminal procedural coercion]. Voronezh, 1975, p. 104.

5. Manayev YU.V., Posnik B.C., Smirnov V.V. Primeneniye mer presecheniya sledovatelem [Application of measures of restraint by the investigator]. Volgograd, 1976, p. 53.

6. Aleksandrovich S.V. Domashniy arest kak mera presecheniya v ugolovnom protsesse Rossiyskoy Federatsii [House arrest as a measure of restraint in the criminal process of the Russian Federation]. PhD thesis. Kaliningrad, 2009, p. 670.

7. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. Ed. G. Abdumazhidov. Tashkent, TSIL Publ., 2009, pp. 380–421.

8. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Academy of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 1999, p. 347.

9. Ugolovno-protsessual’nyy kodeks Respubliki Belarus’ [Criminal Procedural Code of the Republic of Belarus]. 1999, June 24. *Gazette of the National Assembly of the Republic of Belarus*, 1999, no. 28-29, p. 433.

10. Gulyakevich M.S. Aktual’nyye problemy primeneniya domashnego aresta v Rossiyskoy Federatsii [Actual problems of application of house arrest in the Russian Federation]. *Russian Investigator*, 2006, no. 11, p. 8.

11. Ugolovno-protsessual’nyy kodeks Rossiyskoy Federatsii (Obshchaya chast’) [Criminal Procedural Code of the Russian Federation (General part)]. Project. State Legal Department of the President of the Russian Federation. Moscow, Russian Justice, 1994, 96 p.

12. Ugolovno-protsessual’nyy kodeks Rossiyskoy Federatsii [Criminal Procedural Code of the Russian Federation]. Project. Moscow, Research Institute of Problems of Strengthening Law and Order under the General Prosecutor’s Office of the Russian Federation, 1994, 235 p.

13. Ugolovno-protsessual’nyy kodeks Rossiyskoy Federatsii [Criminal Procedural Code of the Russian Federation]. Project. Moscow, 1997, p. 270.

14. Tkacheva N.V. Mery presecheniya, ne svyazannyye s zaklyucheniyem pod strazhu, v ugolovnom protsesse Rossii [Measures of restraint not related to detention in the criminal process of Russia]. 2004, p. 159.

15. Dal’ V. Tolkovyy slovar’ zhivogo Velikorusskogo yazyka [Explanatory dictionary of the living Great Russian language]. Moscow, State Publishing House of Foreign and National Dictionaries, 1955, vol. 1, p. 22.

16. Ovchinnikov Y.G. Domashniy arest kak mera presecheniya v ugolovnom protsesse [House arrest as a measure of restraint in criminal proceedings]. Abstract of PhD thesis. Omsk, 2006, p. 6.

17. Saltikov Y.V. Domashniy arest v rossiyskom ugolovnom protsesse [House arrest in the Russian criminal process]. Abstract of PhD thesis. Yekaterinburg, 2007, p. 13.

18. To‘laganova G.Z. Jinoyat protsessida protsessual majburlov va uning o‘ziga xos xususiyatlari [Procedural coercion in criminal proceedings and its characteristics]. Doctor’s degree dissertation. Tashkent, 2009, p. 177.

19. O‘zbek tilining izohli lug‘ati [An explanatory dictionary of the Uzbek language]. Tashkent, National Encyclopedia of Uzbekistan State scientific publ. house, 2006, p. 271.

20. Rustamboyev M.H. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Ilm Ziyo Publ., 2011, vol. 2, p. 51.

21. Jinoyat protsessi (Umumiy qism) [Criminal procedure (General part)]. Ed. F. Inogomzhonova. Tashkent, TSIL Publ., 2008, p. 463.

22. Criminal Code of the Russian Federation [Criminal Code of the Russian Federation]. Approved by the Federal Law of the Russian Federation of 1996, June 13, No. 63-FZ (as of July 24, 2009). Consultant Plus, ATP.

23. Rustamboyev M.H. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Ilm Ziyo Publ., 2011, vol. 3, p. 211.

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.2./BOIW2548
UDC: 343.1 (045)(575.1)

JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY ZARURATI

Umarxonov Azizxon Sharipxonovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi,
dotsent, yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0009-0000-8656-9182
e-mail: umarazizhon1@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jinoyat protsessi ishtirokchilari hisoblangan jabrlanuvchi, guvohlar, ekspert, tarjimon va boshqalarning xavfsizligini ta'minlash zarurati va bugungi kunda yuzaga kelayotgan muammolar o'rganilgan hamda chuqur tahlil qilingan. Jinoyat protsessida shaxsiy xavfsizlik muammosini ilmiy (doktrinal) asoslash va ilmiy tadqiqotning miqdoriy qismini yetarli darajada to'plash zarurligini hisobga olib qabul qilingan huquqiy hujjatlar bilan bir qatorda, jinoiy odil sudlovga hissa qo'shayotgan shaxs, shuningdek, zamonaviy jinoiy sudlovning boshqa ishtirokchilari uchun jinoiy-protsessual xavfsizlik choralarini tergov va sud amaliyotida samarali qo'llash muammosi haqida bir qancha fikr-mulohazalar bildirilgan. Bundan tashqari, muallif protsess ishtirokchilarining jinoyat-protsessual xavfsizligini ko'p tomonlama, ziddiyatli, tarmoqlararo va fanlararo xususiyatga ega bo'lgan huquqiy hodisa sifatida ko'radi. Shuningdek, tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirish, Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlangan tamoyillar, huquqiy himoya vositalarini ishlab chiqish va huquqni qo'llash bosqichida jarayonning maqsadiga erishish uchun qoidalarni qo'llashga qaratilgan tashqi va ichki noqonuniy ta'sirlardan himoya qilishning huquqiy, tashkiliy va boshqa vositalari tizimining mavjudligi va ulardan foydalanishni o'z ichiga olishi haqida xulosa qiladi.*

Kalit so'zlar: *guvoh, jabrlanuvchi, davlat himoyasi, xavfsizlikni ta'minlash, jinoyat protsessi ishtirokchilari.*

СОЦИАЛЬНАЯ ПОТРЕБНОСТЬ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ УЧАСТНИКОВ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА

Умархонов Азизхон Шарипхонович,
кандидат юридических наук, доцент,
самостоятельный соискатель
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

Аннотация. *В данной статье исследуются и глубоко анализируются необходимость обеспечения безопасности потерпевших, свидетелей, экспертов, переводчиков и др., являющихся участниками уголовного процесса, и проблемы, возникающие на сегодняшний день. Научно (доктринально) обоснована проблема обеспечения личной безопасности участников уголовного процесса, с учетом достаточного количества изученных нормативно-правовых документов,*

научных исследований и ряда высказанных мнений по проблеме эффективного применения мер уголовно-процессуальной безопасности в следственной и судебной практике как для лица, содействующего уголовному правосудию, так и для других участников современного уголовного процесса. Кроме того, автор рассматривает безопасность участников уголовно-процессуального процесса как многогранное, противоречивое, междисциплинарное и межнаучное правовое явление. Также сделаны выводы и предложения по разработке норм, направленных на развитие средств правовой защиты, включающие систему правовых, организационных и иных средств защиты от внешних и внутренних противоправных воздействий при осуществлении следственных и процессуальных действий, применения принципов, установленных в Уголовно-процессуальном кодексе.

Ключевые слова: *свидетель, потерпевший, государственная защита, безопасность, участники уголовного процесса.*

THE SOCIAL NEED TO ENSURE THE SAFETY OF PARTICIPANTS IN THE CRIMINAL PROCESS

Azizkhon Umarkhonov Sharipxonovich,
Independent Researcher, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

Abstract*. This article examines and thoroughly analyzes the need to ensure the safety of the victim, witnesses, expert, interpreter and other persons who are considered participants in the criminal process, as well as the current problems that arise. Taking into account the need for scientific (doctrinal) substantiation of the problem of personal security in criminal proceedings and the need for an adequate collection of the quantitative part of scientific research, in addition to the accepted legal documents, the person assisting the criminal process, as well as other participants in modern criminal justice, a number of opinions and comments were made on the problem of effective application of procedural security measures in investigative and judicial practice. In addition, the author considers the criminal procedural security of the participants in the process as a legal phenomenon that has a multilateral, contradictory, intersectoral and interdisciplinary character. It also concludes that the implementation of investigative and procedural actions, the principles enshrined in the Code of Criminal Procedure, the development of legal remedies and the use of a system of legal, organizational and other means of protection against external and internal illegal influences are aimed at applying the rules to achieve the goal of the process at the stage of law enforcement.*

Keywords: *witness, victim, state protection, security, participants in criminal proceedings.*

Kirish

Jinoyat protsessi samaradorligi ish holatlarining to‘liq va har tomonlama tekshirilishi, dalillarni to‘g‘ri baholash va muayyan ish yuritish bo‘yicha qaror qabul qilish imkonini beruvchi fakt va ma’lumotlarning aniqlanishiga bog‘liq. Bunday fakt va ma’lumotlarning eng muhim va “ishonchli” manbai har doim guvohlar, jabrlanuvchilar, jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari ko‘rsatmalari va guvohliklari hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy jinoyat protsessida davlat himoyasi va shaxs xavfsizligini ta’minlash choralarini amalga oshirish jarayonlari birlashtirilishi lozim. Ularni huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining yagona turi sifatida ko‘rib, jinoyatchilikka qarshi kurashda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadi yuzasidan muvozanat o‘rnatish zarur. Shu bilan birga, jinoyat protsessida

himoya qilinadigan shaxslarning huquqlarini amalga oshirishning jinoyat-protsessual va boshqa kafolatlariga katta ahamiyat berilishi kerak.

Davlat faoliyatining ushbu turiga ko‘maklashuvchi shaxsning jinoyat protsessida ishtirok etishi uchun xavfsiz sharoitlarni ta’minlash jarayonining asosiy maqsadi, eng avvalo, uning qonuniy manfaatlarini himoya qilishdir. Bunda ham shaxsiy, ham jamoat, ham davlat manfaatlarini himoya qilishning oqilona muvozanatini o‘rnatish muhim vazifa hisoblanadi.

Jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan davlat himoyasi va xavfsizligini ta’minlash jarayoni hozirgi vaqtda o‘zining jinoiy-protsessual faoliyati doirasidan ancha chiqib ketgan va faqat jinoyat-protsessual sohada faoliyat ko‘rsata olmaydi. Uy-joy, oilaviy, fuqarolik, mehnat va huquqshunoslikning boshqa sohalari normalari bilan amalga oshiriladigan ayrim xavfsizlik choralari ijrosini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi bunga misoldir. Bundan tashqari, agar xavfsizlik jinoyat-protsessual huquq instituti sifatida tushunilsa, ilmiy tadqiqotning alohida yo‘nalishi uning tamoyillarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi kerak va bu sohani jinoyat-protsessual huquq doirasida tadqiq etish muhim sanaladi.

Shuningdek, bugungi kunda jinoiy odil sudlovni qo‘llab-quvvatlovchi shaxslarni himoya qilishning keng xalqaro va milliy tajribasiga qaramay, jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlash muammosi dolzarb bo‘lib, bu tadqiqot mavzusining aktualligini belgilaydi.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan M. Shou, N. Masamba Sata, M. Tushi, R. Dobson, M. Borziki, T. Makai, D. Merdok Laura va A. Djokin kabilar mazkur masalada tadqiqotlar olib bormoqda. MDH mamlakatlari olimlaridan N. Tomilova, N. Tixonov, A. Timoshenko, A. Abramov, N. Tomilova, M. Biryukov, A. Galuzin, A. Yepixin, A. Xalikov va boshqalarning mavzuga oid tadqiqot natijalari e’lon qilingan.

Jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlash masalasini yoritishda mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, jinoyat protsessida ishtirok etuvchi barcha ishtirokchilarning xavfsizligini ta’minlash chuqur tahlil etilib, muhim xususiyatlari alohida ta’kidlandi. Ushbu maqola xorijiy keng tarqalgan usullarni konseptual, nazariy va amaliy tushunishga qaratilgan. Tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli, formal-yuridik o‘rganish usullaridan foydalanildi.

Olimlarning ta’kidlashicha, so‘nggi o‘n yillikda uyushgan jinoyatchilikning ta’siri ortgan, jinoyatchilarning tajovuzkorligi va shafqatsizligi kuchaygan. Ularning kasbiylashuvi va, birinchi navbatda, jabrlanuvchi va guvohlar ko‘rsatmalarini istisno qilgan holda, sanab o‘tilganlarning barchasi dalillarning sun’iy “yetishmasligi”ni yaratish orqali jinoyat ishlarini “ichkaridan” “parchalash” yo‘lini yuzaga keltirdi [1, 18-b.]. Bularning barchasi hozirgi bosqichda jinoiy odil sudlov sohasida shaxsni himoya qilish samaradorligini oshirishning dolzarbligini belgilaydi. Shu munosabat bilan I.A. Bobrakov quyidagicha fikr bildiradi: “Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslarga tajovuz qiluvchi jinoyatlar umumiy jinoyat tarkibining faqat bir qismidir. Shu bilan birga, u o‘zining tabiati, subyektlari, jabrlanuvchilari, jinoiy motivi va boshqa xususiyatlari bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi” [2, 64-b.]. Bundan tashqari, mamlakatimiz olimlarining fikricha, kechikish muammosi odil sudlov ishtirokchilariga tajovuz qilishning turli holatlarida yuzaga kelishini hisobga olish kerak [3, 12–35-b.].

Jinoyatning bunday ko‘payishiga davlat tomonidan ta’sir ko‘rsatish vositalari boshqa chora-tadbirlar qatori barcha jinoiy protsess ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlagan holda, yetarli dalillar olish, jinoyatlarni ochish, aybdorlarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun zarur kafolatlarni o‘rnatishdan ibo-

rat. Ushbu vositalardan biri jinoiy ish yuritishni osonlashtiradigan davlat himoyasi va ishtirokchilar xavfsizligini ta’minlash choralari tizimidir.

Material va metodlar

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, empirik tadqiqot, statistik ma’lumotlar tahlili, so‘rov o‘tkazish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Turli yillarda ilmiy nashrlar va himoya qilingan dissertatsiyalarda o‘rganilayotgan muammoga nisbatan, asosan ikkita atama qo‘llanilgan: “davlat muhofazasi” [4, 77–81-b.] va “xavfsizlik” [5].

Jinoyat protsessida shaxsning xavfsiz ishtirok etishini huquqiy tartibga solish muammolarini ko‘rib chiqish, birinchi navbatda, bu bilan bog‘liq bo‘lgan tegishli terminologiyani aniqlashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, ular (atama va ta’riflar) ilmiy ishlarda turlicha ko‘rib chiqiladi.

Masalan, professor O.A. Zaysev jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan “davlat muhofazasi” atamasini ishlatadi.

Professor L.V. Brusnitsin protsessda yordam ko‘rsatuvchi shaxslarga nisbatan “xavfsizlik” atamasini qo‘llaydi [6]. Professor A.Yu. Yepixin esa “xavfsizlik” ta’rifini jarayon ishtirokchilarining yanada keng doirasiga nisbatan ham ishlatadi: nafaqat ish bo‘yicha ish yurituvchi, balki boshqa shaxslarga ham. Shu bilan birga, muallif “soha” atamasidan foydalanib, xavfsizlikni nafaqat jinoyat protsessining o‘z doirasida, balki uning tugallanishidan oldin va keyin ham ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi [7].

Jinoyat protsessida xavfsizlik muammolarini muhokama qilar ekanmiz, biz “davlat himoyasi” va “xavfsizlik” atamalarini sinonim tushunchalar sifatida ishlatamiz. Ular birgalikda shaxsning zamonaviy jinoyat protsessida xavfsiz ishtirok etishiga qaratilgan yagona jarayonni tashkil qiladi. Jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan ushbu atamalardan (“davlat himoyasi” va “xavfsizlik”) jinoyat protsessida (xavfsizlik) jismoniy shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlashning yagona jarayonining ikkita muhim tarkibiy qismi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday uyg‘unlik, bizning fikrimizcha, har ikkala jarayon ham jinoiy odil sudlovni targ‘ib qiluvchi va qonuniy manfaatlarini ta’minlaydigan shaxslar tomonidan amalga oshirishning turli mexanizmlarini istisno qilmasdan yoki bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymasdan birgalikda amalga oshirilishi mumkinligi bilan izohlanadi. Ushbu atamalardan foydalanish “Jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasida ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, xavfsizlik choralari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari tizimi, qonun chiqaruvchi davlat himoyasi chora-tadbirlari umumiy tizimning kichik guruhi sifatida qaraladi.

Jinoyat protsessida davlat himoyasi va shaxs xavfsizligini ta’minlash vazifasi davlatning vaqtinchalik huquqni qo‘llash funksiyasidan iborat bo‘lib, u davlat manfaatlarining oqilona muvozanatiga erishish, jinoyatlarni ochish, aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish va unga adolatli jazo tayinlash, shu bilan birga, jinoyat protsessi ishtirokchilarining (ularning qarindoshlari, yaqin shaxslarining) qonuniy manfaatlarini ta’minlash, jinoiy sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishda ifodalanadi.

Davlat muhofazasi va xavfsizligi jarayonining mazmuni, shuningdek, konsepsiyasi turli mualliflar tomonidan turlicha ko‘rib chiqiladi. Ushbu jarayonni jinoiy hodisa yoki uning institutining huquqiy prinsipi sifatida ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi.

Mustaqil huquqiy jinoyat-protsessual prinsip sifatida jinoyat protsessida ko‘mak beruvchi shaxslar xavfsizligini ta’minlash professor L.V. Brusnisin tomonidan ko‘rib chiqilgan [8, 102–110-b.]. Olim, xususan, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning mustaqilligini alohi-

da jinoyat-protsessual prinsip sifatida asoslash tamoyilining elementi sifatida jarayon ishtirokchilarining xavfsizlik huquqini kiritish yetarli emasligini qayd etadi. Shu bilan birga, u jinoiy jarayonning prinsipi sifatida himoyalangan shaxslarning xavfsizligini tan olish uchun barcha zaruriy belgilar mavjudligini ko‘rsatadi: jarayonning barcha bosqichlarida harakat qilish; mustaqil tarkib; butun jarayon uchun asos bo‘lish; qonun normalarida ifodalanish; ustunlik (boshqa tamoyillardan kelib chiqmagan). Haqiqatan ham, bu belgilarning barchasi yordam ko‘rsatadigan jinoiy protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash jarayoniga taalluqlidir. Shu bilan birga, jinoyat protsessi sohasida shaxs xavfsizligi boshqa mualliflar tomonidan prinsip sifatida ko‘rib chiqilgan [9, 139–145-b.].

N.S. Tomilova shaxsiy xavfsizlikni huquqiy institut sifatida baholaydi va “bu institut huquqni qo‘llash amaliyoti uchun nisbatan yangi bo‘lib, ko‘plab muammolar yuzaga keladi, ularning o‘z vaqtida va to‘g‘ri hal etilishi jinoyat protsessida shaxs huquqlarini himoya qilish samaradorligini belgilaydi”, deb ta’kidlaydi. Shuningdek, u jinoyat protsessi ishtirokchilarining davlat himoyasi instituti tamoyillarini belgilab bergan [11].

Bizning fikrimizcha, xavfsizlikning ta’minlash mulki jinoyat-protsessual prinsip sifatida hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi va amalga oshirilmaydi, chunki prinsip faqat ma’lum bir tarmoq doirasida ishlaydi, ayrim tarmoqlararo prinsiplar, masalan, qonuniylik, oshkoralik prinsipi bundan mustasno.

Shu munosabat bilan biz protsess ishtirokchilarining jinoyat-protsessual xavfsizligini ko‘p tomonlama, ziddiyatli, tarmoqlararo va fanlararo xususiyatga ega bo‘lgan huquqiy hodisa sifatida ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Tarmoqlararo jinoyat-protsessual institut sud amaliyotining boshqa sohalari normalari bilan bog‘liq va shaxsning xavfsiz ishtirok etishi uchun xalqaro standartlarga asoslangan jinoyat protsessida shaxs xavfsizligi jinoyat protsessining barcha bosqichlarida o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan jinoyat-protsessual qoidalar majmuyi sifatida tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunida belgilangan davlat himoyasi choralari protsessual xususiyatga ega bo‘lib, amaldagi ichki jinoyat-protsessual xarakterdagi normalar bilan bevosita tartibga solinmaydi. Shu munosabat bilan bizning e’tiborimizni, birinchi navbatda, Jinoyat-protsessual kodeksi normalari bilan tartibga solinadigan jinoyat-protsessual xavfsizlik choralari tizimi jalb qiladi. Shu bilan birga, avval aytib o‘tganimizdek, xavfsizlikni ta’minlash jarayoni murakkab va tarmoqlararo xususiyatga ega bo‘lib, shu sababli ushbu tadqiqotda jinoyat protsessi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan davlat himoyasi choralariga ham murojaat qilamiz.

Hozirgi vaqtda jinoiy odil sudlov sohasida muhim ilmiy bilimlar to‘plandi; davlat himoyasining individual choralarini tartibga soluvchi va jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlovchi ko‘plab qonunlar va huquqiy hujjatlar qabul qilindi; amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligiga jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi; huquqni muhofaza qilish organlarining huquqni qo‘llash amaliyotida ijobiy tajriba yuzaga keldi.

Ushbu sabablar jinoiy odil sudlov sohasida shaxsga xavfsiz yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq muammolar majmuasini o‘rganishga yangicha qarash zarurligini keltirib chiqaradi.

Jinoyatga qarshi kurashning ko‘plab huquqiy usullari orasida aybdorlik (aybsizlik)ni aniqlashning asosiy huquqiy vositalaridan biri milliy jinoyat-protsessual qonunchilikdir. U jinoyat protsessining maqsadiga erishish uchun zarur va yetarli shart-sharoitlar yaratadi.

Fuqarolarning jinoyat protsessida xavfsiz ishtirok etishi uchun zarur va yetarli shart-sharoitlarni ta’minlash muammosi so‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida nafaqat jinoyat-protsessual, balki kriminologiya, jinoyat huquqi, huquq nazariyasi va boshqa sohalarda ham mahalliy olimlar orasida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligi huquqiy hodisa sifatida ko‘p tomonlama, qarama-qarshi va tarmoqlararo, fanlararo xarakterga ega. Masalan, himoyalangan shaxsni yangi yashash joyiga ko‘chirish kabi xavfsizlik chorasini amalga oshirish nafaqat jinoiy-protsessual qoidalar, balki “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunda uy-joy mulkdorligi, uy-joy qonunchiligi va boshqalarda belgilangan ta’riflarni ham qo‘llashni talab qiladi.

Bundan tashqari, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksi jinoyat protsessida bir qator umumiy va maxsus xavfsizlik choralarini o‘z ichiga oladi. Bu choralar ham sudgacha, ham sud tartibida amalga oshirilishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy jinoyat protsessida davlat himoyasi va shaxs xavfsizligini ta’minlashning zamonaviy nazariy modeli muayyan majburiy komponentlar (tushunchalar)ni o‘z ichiga olishi kerak.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarini himoya qilish tamoyillari va ularni amalga oshirish nuqtayi nazaridan ular xalqaro tajriba va jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlash institutini tartibga soluvchi xorijiy qonun hujjatlari asosida ilmiy ishlarda keng o‘rganilgan. Ularning barchasi inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlaydigan xalqaro va milliy huquqning huquqiy asosiy manbalariga tayanadi.

“Shaxs va fuqaro sifatida shaxsiy xavfsizlik” tushunchasi XX asrda G‘arb dunyosida shakllangan va xalqaro huquqiy hujjatlar tufayli erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kontekstida qo‘llanadi [12]. 1997-yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan Amsterdam shartnomasi transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan Yevropa davlatlarining huquq-tartibot idoralari va institutlari o‘rtasidagi hamkorlik asosida erkinlik, xavfsizlik va adolat hududini belgilab berdi [13]. Shaxsiy xavfsizlik sivilizatsiyalashgan jamiyatning asosiy qadriyati bo‘lib, u tabiiy, ajralmas huquq sifatida qabul qilinadi. Jinoiy sudlov sohasida shaxs xavfsizligi tayanch huquqiy institut bo‘lib, davlat tomonidan xavfsizlik choralarini ta’minlash, shuningdek, jinoyatlar va boshqa noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishda namoyon bo‘ladi.

Jinoyat-protsessual sohada xavfsizlik konsepsiyasiga oid ilmiy qarashlarni tahlil qilib, biz shunday xulosaga keldikki, u “tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirish, Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlangan tamoyillar, huquqiy himoya vositalarini ishlab chiqish va huquqni qo‘llash bosqichida jarayonning maqsadiga erishish uchun qoidalarni qo‘llashga qaratilgan tashqi va ichki noqonuniy ta’sirlardan himoya qilishning huquqiy, tashkiliy va boshqa vositalari tizimining mavjudligi va ulardan foydalanishni o‘z ichiga oladi”.

Tadqiqot davomida biz nafaqat qonunda (Jinoyat-protsessual kodeksi) belgilangan holatlar tufayli jinoyat protsessining ishtirokchisiga aylangan, balki unga qarshi namoyon bo‘ladigan salbiy jismoniy yoki ruhiy ta’sir natijasida xavfli holat, ya’ni qandaydir zarar, baxtsizlikka sabab bo‘la oladigan sharoit (hayotiy vaziyat)ga tushib qolgan shaxs xavfsizligi mavzusiga to‘xtalamiz. Xavfli vaziyatga tushib qolgan shaxs o‘z xavfsizligini ta’minlashi, unga qilingan har qanday noqonuniy ta’sirdan himoyalanishi kerak. Shuning uchun biz “xavfsizlik maqsad sifatida jamiyatning barqaror rivojlanishi maqsadi bilan mos keladi” degan fikrga qo‘shilamiz. Agar biz xavfsizlikni ijtimoiy me’yor deb hisoblasak, bu ma’noda u ijtimoiy qadriyat sifatida ishlaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shaxs xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha huquqiy munosabatlarning subyektlari quyidagilar:

a) xavfli holatda bo‘lgan, shu jumladan, tahdidlar qaratilgan shaxs;

b) inson va fuqaro xavfsizligini ta’minlashni o‘z organlari orqali ifodalovchi davlat.

Bunday munosabatlarning mazmuni ushbu subyektlarning huquq va majburiyatlari bo‘lib, ular xavf holatida bo‘lgan shaxs o‘z hayotiy manfaatlarini davlat tomonidan turli tahdidlardan himoya qilish va davlat ularni bartaraf etish uchun o‘z imkoniyatlariga mos keladigan tegishli choralarni ko‘rish huquqiga ega bo‘lishidan iborat. Shu bilan birga, xavfli holatga tushib qolgan shaxs tegishli davlat organiga tahdidlar to‘g‘risida o‘z ixtiyorida bo‘lgan barcha ma’lumotlarni taqdim etishi va ularni bartaraf etishi yoki vaziyatni yumshatish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga ko‘maklashishi shart.

Jinoyat protsessida ishtirok etish bilan bog‘liq tahdidlarni qabul qilgan va xavfli holatga tushib qolgan, xavfsizlikka muhtoj bo‘lgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini butun jarayon davomida noqonuniy ta’sirdan himoya qilishni kafolatlaydigan qonuniy va boshqa vositalar bilan ta’minlanishi shart. Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, jinoyat-protsessual qonunchilikning nomukammalligi, undagi bo‘shliq va ziddiyatlar, jinoyat protsessi ishtirokchilarining ushbu huquq va manfaatlari buzilishi ularning xavfsizligiga tahdid bo‘lishi ham mumkin.

Xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlar kompleksining xilma-xilligini tashkiliy, texnik va profilaktika xarakteri bo‘yicha tasniflashimiz mumkin.

V.N. Kudryavsev ta’kidlaganidek, “tashkiliy choralarni jamoatda ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan odamlar faoliyatini to‘g‘ri muvofiqlashtirish bilan o‘z vazifalarini bajarishda nazoratsiz beparvolikni istisno qiladigan va shu bilan ushbu obyektda jinoyat (noqonuniy harakatlar) sodir etishni qiyinlashtiradigan yoki imkonsiz qiladigan choralar” [14, 308-b.] sifatida tushunish kerak.

Tashkiliy xavfsizlik choralari huquqiy, boshqaruv yoki texnik xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Huquqiy xususiyatga ega bo‘lgan chora-tadbirlar, birinchi navbatda, ularni qonunchilik bilan tartibga solishning sifat holati bilan belgilanadi; boshqaruv xarakteridagi chora-tadbirlar – tegishli davlat organlarining to‘g‘ri tuzilmaviy va tashkiliy holati hamda aniq huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy va ma’naviy darajasi; texnik xarakterdagi chora-tadbirlar, ularning barcha xilma-xilligi bilan, asosan qo‘riqlanadigan obyektlarga mumkin bo‘lgan tajovuzlarning oldini olishga qaratilgan bo‘lib, bunday tajovuzlar sodir etilganda, ularning oqibatlarini zararsizlantirish va ularni bartaraf etishga hissa qo‘shishga chaqiriladi.

Yuqorida qayd etilgan ta’minlash choralari xavfsizligini tushunish va ularni jinoyat-protsessual sohada tasniflash bo‘yicha loyihalashtirib, shuni ta’kidlash mumkinki, ijtimoiy munosabatlarning ushbu sohasidagi xavfsizlik shaxsning ijtimoiy qadriyatlariga har qanday tajovuzlardan uning ishtirokchilarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va to‘liq amalga oshirish qonun bilan kafolatlanadi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va unga asoslangan maxsus normativ-huquqiy hujjatlar) va nafaqat jinoyat-protsessual qonunchilik, balki ushbu yo‘nalishdagi alohida xususiyatga ega qonunchilik, idoraviy hujjatlarda ham belgilangan zarur va yetarlicha xavfsizlik choralarini o‘z vaqtida bartaraf etish va qo‘llash orqali tegishli organlar timsolida davlat tomonidan ta’minlanadi.

Vakolatli organlar tomonidan xavfsizlik choralarini amalga oshirish biz tomoni-

mizdan quyidagi bosqichlardan iborat tizim sifatida taqdim etiladi:

a) axborot tashuvchilardan tegishli ma'lumotlarni olish va tegishli tekshirish orqali mumkin bo'lgan xavf manbalarini aniqlash;

b) xavf manbalari, chiquvchi tahdid darajasi, shuningdek, bunday tahdidning manzilini hisobga olgan holda xavfsizlik choralarini tanlash;

d) tanlangan xavfsizlik choralarini aniq tashkiliy, protsessual-huquqiy va boshqa harakatlar orqali amalga oshirish;

e) jinoyat protsessi ishtirokchilariga davlat muhofazasi subyektiga aylangan xavf bartaraf etilgandan keyin ularga yetkazilgan ma'naviy, jismoniy va moddiy zararni qoplash;

f) muhofaza qilinadigan obyektlar (jismoniy va yuridik shaxslar) xavfsizligini ta'minlash bo'yicha profilaktika choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

